

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Alishyer Navoiy nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVYERSITYETI

Qo'lyozma huquqida
UDK

Husanov G'olib
TINChLIKPARVARLIK AXLOQIY TAMOYILI VA UNING
YoShLAR MA'NAVIYaTINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.
5A120503 - "Etika va estetika"

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
D I S S E R T A S I Y a

Ilmiy rahbar: f.f.n, dots.
A.R.Samadov

SAMARQAND – 2015

Magistrlik dissertasiya ishi “Siyosatshunoslik. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazaryasi va amaliyoti” kafedrasining 2015 yil ____ maydagi ____ sonli bayonnomasi bilan dastlabki himoyadan o’tgan.

Kafedra mudiri: f.f.n.dots. M.J.Muxtorov _____

Ilmiy rahbar: f.f.n.dots A.R.Samadov _____

Magistr: G’.Husanov _____

Magistrlik akademik darajasiga talabgor Husanov G'olibning 5A-120503-Etika va estetika ixtisosligi bo'yicha «Tinchlikparvarlik axloqiy tamoyili va uning yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishdagi o'rni» mavzuidagi dissertasiyasining

Annotasiyasi

Tayanch (eng muhim) so'zlar: tinchlikparvarlik, mustaqillik deklarasiyasi, Avesto, axloqiy tamoyil, din, ma'naviy yangilanish, tinchlikni saqlashda O'zbekistonning yo'li.

Tadqiqot obyekti: "Tinchlikparvarlik" tamoyilining axloqiy tafakkur tarixida o'rni va mustaqillik davrida tinchlikparvarlik tamoylini falsafiy jihatdan tadqiq va tahlil etilishi. Tinchlikparvarlik tamoyilini mazmun-mohiyati, genezisi hamda ularning yoshlar ma'naviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi roli.

Tadqiqotning maqsadi: tadqiqotning maqsadi –tinchlikparvarlikning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi ahamiyati va zaruriyatini axloqiy jihatdan taxlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: analiz va sintyez, tizimli funksional yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabilardir.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: - tinchlikparvarlik tushunchasi va mazmuni muammosi ahloqiy-falsafiy tahlil qilingan, tinchlikparvarlik tamoyilining tarixiy tadrijiy o'zgarishlari tizimli tarzda o'rganilgan, jamiyatning ma'naviy yuksalishi tinchlikparvarlik g'oyalari axloqiy ehtiyojga aylanishi yangicha yondashuv asosida ko'rsatilgan, tinchlikparvarlik axloqiy tamoyili mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining omili ekanligini tadqiq etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertasiyasining amaliy ahamiyati inson ma'naviy kamolotida axloqiy tamoyillar ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq erishilgan ilmiy natijalar yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash ishlariga yaqindan ko'mak beruvchi jamoat birlashmalarining faoliyatlarida samarali foydalanish mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: Mazkur tadqiqotning ilmiy yutuqlari va erishilgan natijalaridan "Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi bilan korparativ hamkorlikda bo'lgan Siyob va So'zangaron kollejida sinovdan o'tgan. Bu erda o'tiladigan bir qator falsafiy fanlar uchun ma'ruzalar matni tayyorlashda foydalanildi.

Qo'llanish sohasi: magistrlik dissertasiyasi natijalaridan professor-o'qituvchilar, kollej, lisey va oliy o'quv yurtlarida ma'naviyat asoslari darslari, etika, estetika va mantiq fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

MUNDARIJA

KIRISH		8
1-BOB.	TINChLIKPARVARLIK AXLOQIY TAMOYILI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI	
1.1.	“Tinchlikparvarlik” tushunchasi va uning axloqshunoslik tafakkurida o’rganilishi	
1.2.	Tinchlikparvarlik g’oyalarining tarixiy asoslari	
1.3	Ma’naviy yuksalish jarayonlarida tinchlikparvarlikning axloqiy ehtiyojga aylanishi	
	Bob buyicha xulosalar	
2-BOB.	TINChLIKPARVARLIK – MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASH DAVRINING YuKSAK QADRIYATI SIFATIDA	
2.1.	Tinchlikparvarlikning milliy va umuminsoniy qadriyatga aylanishi	
2.2.	O’zbekistonning “Mustaqillik deklarasiyasi”da tinchlikparvarlik tamoyilining inikosi	
2.3	O’zbekistonda barqaror taraqqiyotning tinchlikparvarlik tamoyili bilan bog’liqligi	
	Bob buyicha xulosalar	
3-BOB	TINChLIKPARVARLIK AXLOQIY TAMOYILI VA UNING YoShLAR MA’NAVIYaTINI RIVOJLANTIRISHIGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI	
3.1.	Tinchlik va barqarorlikni asrash, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashning ijtimoiy-siyosiy asoslari	
3.2.	Yoshlarni tinchlikparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik mahorat hamda uning singdirish usullari.	
3.3.	Globallashuv davrida yoshlarda tinchlikparvarlik madaniyatini shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining natijalari.	
	Bob buyicha xulosalar	
XULOSA		
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI		
ILOVALAR		

KIRISH

Magistrlik dissertasiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliги.

Insoniyat o’z hayot yo’lida turli urush va nizolarga boy tahlikali kunlarni kechirdi. Bugungi kunda ham bu jarayonlar jahon siyosatida uchrab turganligi har bir insonni hushyorlikga chorlaydi. Yadro urushlari havfi, ekstremizm, terrorizm va mintaqaviy mojarolar hali xanuz fuqarolar xavfsizligiga tahdid solib kelmoqda.

Yurtboshimiz Islom Karimov 2015 yil 9 may kuni “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so’zlagan nutqida ta’kidlaganidek, “Biz dunyoning turli o’lkalarida davom etayotgan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqatgina siyosiy yo’l bilan, tinchlik yo’li bilan hal etish tarafborimiz”¹.

Bunday o’zgarishlar yer yuzida tinchlikni saqlash masalasini nazariy va amaliy jihatdandan tadqiq etish zaruriyatini oshirmoqda. Zero, so’nggi yillarda global miqyos kasb etib, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan turli xavf-xatarlar vujudga keldi, ularning oldini olishning samarali yo’llarini aniqlash ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, globallashuv sharoitida jahon hamjamiatida tinchlikni saqlashga doir turli ijtimoiy siyosiy islohotlar olib borishga urinishlar kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan tadqiqtin dolzarbligini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, “tinchlikparvarlik” tushunchasini mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlarning ilmiy tahlilini jamoatchilik e’tiboriga taqdim etish va uning yangi talqindagi nazariy asoslarini mustahkamlash g’oyatda muhim;

ikkinchidan, tinchlikparvarlikning axloqiy tamoyil sifatidagi mazmuniga yangicha yondoshuvni shakllantirish, uning falsafiy – axloqiy mohiyatini yoritib berish hamda global muammolar tizimida dunyo va insoniyat hayotida tinchlikparvarlik g’oyalarining ahamiyatini asoslash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Xususan, globallashuv sharoitida jamiyat hayotiga xavf solayotgan tahdidlar

¹ Каримов И.А. Ўтганларни хотирлаш, кексаларни эъзозлаш бизнинг фарзандлик бурчимиздир. 2015 йил 9 май “Хотира ва қадрлаш” куни муносабати bilan сўзлаган нутқидан олинган. // Zarafshon газетаси 2015 № 62, 2-бет.

o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, ta'sir kuchi ortib bormoqda. Jumladan, turli yovuz va vayronkor g'oyalar, qarashlarning murakkab sintezi sifatida chiqayotgan mafkuraviy tahdidlar jamiyat umumiyligi xavfsizligiga jiddiy ta'sir etayotganini ta'kidlash zarur. Bu mafkuraviy tahidlarning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lism shakllari va ijtimoiy oqibatlariga yangicha falsafiy – axloqiy nuqtai nazardan yondashuvni taqozo qiladi.

uchinchidan, tinchlikparvarlik axloqiy tamoyilining nazariy, metodologik, va amaliy jihatlarini yoritib berish hamda tinchlikparvarlik g'oyalarining tarixiy asoslarini tadqiq etish orqali amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muammoning ilmiy va ta'lim jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shuning uchun tinchlikparvarlikni nafaqat siyosiy omil sifatida, balki axloqiy tamoyil sifatida tadqiq etish g'oyatda muhimdir;

to'rtinchidan, ma'naviy yuksalish jarayonlarida tinchlikparvarlikning axloqiy ehtiyojga aylanishini asoslash hamda tinchlikparvarlikning umuminsoniy qadriyatga aylanishining mohiyatini ochib berish insoniy munosabatlar tizimida milliy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash imkonini beradi;

beshinchidan, tinchlikparvarlikning axloqiy tafakkurning natijasi ekanligini isbotlash hamda O'zbekistondagi barqaror taraqqiyot tinchlikparvarlik tamoyili bilan uzviy bog'liq ekanligini axloqiy jihatdan tahlil qilish ijtimoiy ehtiyojga aylandi. Shuningdek, tadqiqotning dolzarbligi jamiyat tinchligini buzishga qaratilgan tahidlarning oldini olish insoniyat hamjamiyatining tinchligi – barqarorligini ta'minlashning muhim omili ekanini ijtimoiy-falsafiy, axloqiy tadqiq etish zaruriyati bilan ham belgilanadi.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. “Tinchlikparvarlik” axloqiy tamoyilining axloqiy tafakkur tarixida o'rni va yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini falsafiy jihatdan tadqiq va tahlil etilishi. Tinchlikparvarlik tamoylini mazmun-mohiyati, genezisi hamda uni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tinchlikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga mosligi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Tadqiqotning maqsadi – tinchlikparvarlikning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi ahamiyati va zaruriyatini

axloqiy jihatdan taxlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilarni tadqiqotning vazifalari qilib belgiladik:

- “Tinchlikparvarlik” tushunchasi va uning axloqiy mohiyatini falsafiy tahlil qilish;
- tinchlikparvarlik g’oyalarining tarixiy asoslari tizimli asosda yoritib berish;
- ma’naviy yuksalish jarayonlarida tinchlikparvarlikning axloqiy ehtiyojga aylanganligini asoslab berish;
- tinchlikparvarlikning umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo’lishini ochib berish;
- O’zbekistonda barqaror taraqqiyotning tinchlikparvarlik tamoyili bilan bog’liqligini ko’rsatib berish kabi vazifalarnihal etish nazarda tutiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- tinchlikparvarlik tushunchasi va mazmuni muammosi ahloqiy-falsafiy tahlil qilingan;
- tinchlikparvarlik tamoyilining tarixiy tadrijiy o’zgarishlari tizimli tarzda o’rganilgan;
- jamiyatning ma’naviy yuksalishi tinchlikparvarlik g’oyalari axloqiy ehtiyojga aylanishi yangicha yondashuv asosida ko’rsatilgan;
- tinchlikparvarlik umuminsoniy qadriyatning ajralmas qismi tashkil etganligi ko’rsatib o’tilgan;
- tinchlikparvarlik axloqiy tamoyili mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining omili ekanligini tadqiq etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: tinchlikparvarlikning tamoyilini hayotda aks etishi va amal qilishining bog’liqlik qonuniyatlarining nazariy yoritilishi kelajakdagi nazariy va amaliy faoliyat ishlari uchun metodologik zaminlardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusi bo’yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Tanlab olingan mavzu doirasida olib borilgan izlanishlarni, ularning mazmun-mohiyati va

ijtimoiy-tarixiy davrini hisobga olib, guruhlab chiqdik. Buni quyidagicha amalga oshirdik:

Birinchi guruhga, tinchlikparvarlik haqidagi axloqiy g'oyalar qadim zamonlardan boshlab diniy dunyoqarash sifatida shakllangan va falsafiy - axloqiy meros zamirida vujudga kelgan. Bu borada Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Unda "kishilarning birgalashib yashashi, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning axloq normalariga tayanishi, vatanparvarlik, tinchlik – ahillik kabi g'oyalar ilgari surilgan. "Avesto" ning ikkinchi daftari bo'lmish Yasnaning 62-hot, 5-qo'shig'ida shunday deyiladi: "Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishili, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar"¹. "Avesto" ning tub ma'no mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilini oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli g'oya va ta'limotlar bundan uch ming yil oldin ilgari surilgan. Tinchlikparvarlikka oid ta'limotlar va qarashlar hamda buyuk mutafakkir ajdodlarimizning mumtoz asarlarida jamiyat uchun turli tahdidlarning oldini olishda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash masalalari muhim o'rinn tutadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiyning (873-950) "Fozil odamlar shahri" asarida davlatni boshqarishda adolatli qonunlarga tayanish lozimligini uqtiriladi. Unda "Fuqarolarni birlashtirib turuvchi asos insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lgani uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim"² deb ta'kidlanadi. Allomalarimizdan yana biri Abu Rayhon Beruniy (973-1048) inson hayotiga daxl qiluvchi xavf-xatarlar haqida fikr yurita turib, ular ko'p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi³. Unga hamohang tarzda Ibn Sino (980-1037) esa xavf – xatarlarni bartaraf etishda ta'lim – tarbiya omiliga tayanishni ta'kidlaydi⁴. Bu borada G'arbda bir necha mumtoz Ovro'po axloqshunoslarining ta'limotlarida

¹ Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик. А.Махкам таржимаси.– “Шарқ”, 2001. –90 б.

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. . А. Кодирий номидаги халқ меросинашриёти, 1993.186-б.

³ Абу Райхон Беруний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. –Тошкент: Фан, 1972. – 68 б.

⁴ Абу Али Ибн Сина. Философски трактаты. –М.: Наука, 1980. – С. 43.

Kant, Gegel Karl Yaspers, Bertran Rassel¹ kabi faylasuflarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi guruhga, mustaqillikdan so'ng tinchlikparvarlikning ma'naviy-axloqiy ijtimoiy-siyosiy yangi ko'rinishlari ishlab chiqilgan manbalar bu – Yurtboshimiz I.A.Karimov asarlarini davrlashtirdik. So'nggi yillarda tinchlikparvarlikning ilmiy-nazariy masalalari faylasuf, siyosatshunos, tarixchi, sharqshunoslар va dinshunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilmoqda. Umuman olganda, tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha jamiyat tinchligiga raxna soluvchi ma'naviy, mafkuraviy siyosiy tahdidlarning mohiyati, ularning oldini olishning nazariy-metodologik asoslari tizimli ravishda, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida o'z ifodasini topganini alohida qayd etish lozim².

Uchinchi guruhga, B.Husanov A.Sher, M.M.Gafarli, A.Ch. Kasayev, L.Levitin,Q.Nazarov, A.Ochilidiyev, N.Jo'rayev, F. Sulaymonova³ kabi ijtimoiy-gumanitar fan vakillarining monografiya, risola va ilmiy maqolalari tadqiq etildi. Shuningdek mavzu doirasidagi muammolar qator xorijiy mutaxasislar tomonidan ham tadqiq etildi. Ular orasida A.Toynbi, Z.Bjezinskiy, S.Xantington, A.Dugin, V.

¹К вечному миру.-И.Кант.Соченения на немецком и русском языках.-М.,1994. Том 1 стр 358. Гегель. Философия права. М., 1990, стр.469. Ясперс К. Смысл и назначение истории. М., «Юнион», 1991., С 115-116;Рассел Б. Здравый смысл и ядерная война = Common sense and nuclear warfare / Пер. с англ. В. М. Карзинкина. — М.: Изд-во иностранной литературы (ИЛ), 1959.

²Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 3-34.; Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 225-266.; Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. Т.10. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.; Каримов И.А. Инсон, унинг хуққува эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 61-97.; Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Т.16. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 3-56.; Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.; Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.– Б. 29-65; И.А.Каримов. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т., Ўзбекистон, 2000, 59-б; Каримов.И.А. Ватан саждағоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент: Ўзбекистон. 1996. -39 б; Каримов И.А. Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти давлат раҳбарлари кенгашининг кенгайтирилган таркибидаги мажлисдасёзлаган нутқ.||Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чукурлаштириш,маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизни ҳаёт даражасини ошириш-барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир.Т.15.- Т.: «Ўзбекистон», 2007. 290-б. И.А. Каримов Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Тошкент: Ўзбекистон 2011 й. 250 – бет;

³А.Шер. Ахлоқшунослик. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” Т.,2010. 278 б; Л.Левитин. “Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида”Т.;2001;Гафарли М.М., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик - тараққиёт асоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 288 б.; Назаров Қ. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсад ва вазифалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 38 б.; Очилдиев А.С. Бугунги дунёнинг мафкуравий манзараси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.; Ўша муаллиф. Миллий гоя ва миллатлараро муносабатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004.; Ўша муаллиф. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Мухаррир, 2009. Тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт омили Т., Академия, 2005; Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. Нарзулла Жўраев. Агар огоҳ сен ...Т.: «Ёзувчи» 1998; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Фарб. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 36 б;

Slipchenko, Amartiya Sen, E.Giddens, F.Fukuyama¹ va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin.

Shu bilan birga mamlakatimizda mavzu doirasida yaxlit ijodiy tadqiqot olib borilmaganligi va bu borada biz bu jarayonga ilk marotaba qo'l urayotganimizni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Mazkur olimlar tadqiqotlaridan unumli foydalanib, ularni umumlashtirishga erishdik. Shu ma'noda biz ushbu mavzuda aynan Tinchlikparvarlik ahloqiy tamoyilini falsafiy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: o'tmish pandnomalar, didaktik manbalar va milliy g'oyaga sadoqat ruhida yozilgan axloqiy manbalar, Prezidentimizning shu mavzuga tegishli asarlari va boshqa falsafiy tadqiqotlar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertasiyasining nazariy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalilar, fikrlar va chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar xalq ta'limi muassasalarida "Odobnama", kasb-hunar kollejlarija "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar", oliy ta'lim muassasalarida "Axloqshunoslik" kabi fanlarning tegishli muammoga oid bo'limlarini qisman to'ldiradi.

Magistrlik dissertasiyasining amaliy ahamiyati inson ma'naviy kamolotida axloqiy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq erishilgan ilmiy natijalar yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash ishlariga yaqindan ko'mak beruvchi jamoat birlashmalarining faoliyatlarida samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining asosiy natijalarini sinovdan o'tkazish va tatbiq etish. Mazkur tadqiqotning ilmiy yutuqlari va erishilgan natijalaridan "Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi bilan korparativ hamkorlikda bo'lgan Siyob tibbiyot kollejida sinovdan o'tgan. Bu erda

¹Энтони Гидденс. Социология. Тошкент.,Шарқ. 2002 Б.387421; Фрэнсис Фукуяма. Конец истории и последний человек. М., Аст, 2005; С.Хантингтон Кто мы? Вызовы американской национальной идентичности.М.,Транзиткнига,2004; З.Бзежинский. Выбор. Мировая господства или глобальное лидерство. М.,Международные отношения, 2005; Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивы) М., Междинародные отношения, 1998; Амартия Сен. Развитие как свобода. М.,Новое издательство, 2004;А. Дугин. Основы geopolитика М.: Арктория-центр,1999;Тойнби А. Дж. Постижение истории. Сборник. / Пер. с англ. Е.Д.Жаркова, М., Рольф, 2001; Слипченко В. Война будущего (прогностический анализ). – М.: Глобус, 2001. – С. 5.

o'tiladigan bir qator falsafiy fanlar uchun ma'ruzalar matni tayyorlashda foydalanildi.

Ish tuzilmasining tavsifi: Ushbu magistrlik dissertatsiyasida bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar muallif tomonidan nashr etilgan jami 3 respublika ilmiy-nazariy konferensiyalaridagi ma'ruzalarida o'z aksini topgan.

Ilmiy tadqiqotning o'rganishda foydalaniladigan metodlar: analiz va sintez, tizimli funksional yondashuv, tarixiylik va mantiqiylilik, qiyosiy tahlil kabilardir.

Dissertatsyaning tarkibi: tadqiqot "Kirish", 9 ta paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, "Xulosa", "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" va "Ilovalar"dan iborat. Matning umumiy **hajmi betni tashkil** etadi.

I-BOB.TINChLIKPARVARLIK AXLOQIY TAMOYILI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

1.1. “Tinchlikparvarlik” tushunchasi va uning axloqshunoslik tafakkurida o’rganilishi

Insoniyat paydo bo’libdiki, jamiyat ravnaqida tinchlik va barqarorlik muhimligini anglagan. Hatto davlatlar o’rtasida tuzilgan ilk shartnoma- tinchlik shartnomasi ekanligini saqlanib qolgan tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Tinchlikparvarlik axloqiy tamoyili insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Abdulla Sherning Axloqshunoslik nomli darsligida Tinchlikparvarlik urushning qon to’kishning har qanday ko’rinishini inkor etadi, tinchliksevar shaxsning tinch -totuv yashashga bo’lgan ijobiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig’inlarda ma’ruzalar qilish emas, balki faol xatti – harakat, uyushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi,¹ - deb ta’rif beriladi.

2005 yilda nashr ettirilgan «Tinchlikparvarlik va bag’rikenglik: atamalar lug’ati»da «tinchlik so’zning ma’nolari xilma-xil bo’lib, u, eng avvalo, urush va terrorning yo’qligi, osoyishtalik, hamjihatlik va xotirjamlikni bildiradi. Tinchlik jamiyatning barcha a’zolari o’rtasida, ularning millati, dini, jinsi, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, o’zaro ahillik va totuvlik mavjudligini anglatadi»².

Tinchlikparvarlar fidoyi insonlardir. Ularning ana shu fidoyilarcha hatti – harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotida takrorlanmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o’z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy – madaniy hamkorlikka millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o’zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladilar. SHuni ham alohida ta’kidlab o’tish joizki, ba’zi ulug’ davlatchilik va buyuk millatchilik ruhi hukmron bo’lgan

¹ А.Шер. Ахлошунослик. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти -Т., 2010. 278 б.

² Тинчликпарварлик ва бағрикенглик: атамалари лугати. Тошкент, 2005, 88-б.

jamiyatlarda tinchlikparvarlar quvg'in qilinadilar. Lekin ular o'z tamoyillaridan hech qachon voz kechmaydilar. Ular insoniyatning barcha bahsli masalalarini tinch yo'l bilan hal qilishga chaqiradi. Er yuzida tinchlik o'rnatish uchun tinimsiz kurash olib bordilar. Bunday tinchlikparvar buyuk siymolar sifatida: Betti Uilbms (1943 yilda tug'ilgan) SHimoliy Irlandiyada tinchlik o'rnatish maqsadida Tinchlik jamiyati tuzdi va bu xizmatlari uchun 1977 yilda tinchlik sohasidagi xizmatlari uchun "Nobel" mukofoti bilan taqdirlandi; Bertran Rassel (1872-1870) faylasuf tinchlikparvarlik faoliyati uchun ikki bora (dastlab birinchi jahon urushi paytida, ikkinchi marta AQSH ning Vietnamdagi bosqiniga qarshi kurash olib borganida) ingliz ma'muriyati tomonidan qamoqqa olindi. Bartran Rassel Nobel mukofoti bilan birgalikda "Insonparvarlik va hurfikrlilik havoriysi" kabi bir qancha faxriy nomlarni olgan edi.

Tinchlikparvarlik axloqiy tamoyil sifatida faqatgina insoniyatning tinch – totuv hayot kechirishi haqidagi ta'limot yoki harakat bo'lib qolmay, balki insoniyatga qarshi qaratilgan turli vayronkor mafkuralar bilan kurashuvchi ta'limot va harakatdir. Bu erda tinchlikparvarlikning strategik xarakteriga diqqat qaratmog'imiz lozim. Biror – bir harbiy mojaroni hal etishda tinchlikparvarlik taktik xususiyat kasb etadi. Tinchlikparvarlik g'oyalari tinchlikparvarlik nazariyasi yoki amaliyotidan kelib chiqqan holda strategik prognozlash va hal etish yo'llarini taqdim etadi. Bugungi kunda tinchlik, tinchlikparvarlik, barqarorlik, osoyishtalik kabi tushunchalar o'z ma'no mohiyati bilan turli ijtimoiy voqelikni tushuntirishga xizmat qiladi. Jumladan, Tinchlik va barqarorlik davlat va jamiyat hayotida tartibni, ma'lum mezonlarga ko'ra tizimning muvozanatini saqlanishiga xizmat qiluvchi kategorial tushunchalar sirasiga kiradi. Har qanday ijtimoiy siyosiy islohotlar uchun qulay sharoityaratilishiga xizmat qiladi. Tinchlik va barqarorlikning ahloqiy ma'naviy xarakteri inson kamoloti va eng muhimi ma'nani xotirjamlikni o'zida mujassamlashtiradi. Bu tamoyillarning o'ziga xos funksiyalari urushlarga yo'l qo'ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishni

ifodalaydi. Insoniyat tarixida barcha millat va elatlar madaniy boylik sifatida, urf-odatlariga esa cheksiz hurmat bilan qarab kelingan. Sog'lom ahloqiy muhit (Etosfera)ni shakllanishi orqaligina ma'naviy boyliklarni saqlab qolish uchun, avvalo, qonli mojarolarga barham berish, tinchlik, barqarorlik, totuvlikni qaror toptirish, madaniy meros, osori-atiqalar, urf-odatlarni asrab-avaylash, dunyo xalqlarining ilm-fan yutuqlaridan birdek bahramand bo'lismiga erishish zarurligini bugun butun insoniyat tushunib etmoqda.

Tinchlik va barqarorlikda:

birinchidan ozodlik, adolat va demokratiya tamoyillariga asoslangan do'stona va ittifoq madaniyat yotadi;

ikkinchidan zo'ravonlikni qaytaruvchi va nizolar paydo bo'lган zahoti uni bartaraf etishga chorlaydigan, muammolarni muloqot va muzokaralar yo'li bilan hal etuvchi madaniyat shakllanadi;

uchinchidan o'z jamiyatining ichki rivojida uning barcha huquqlari, har bir kishining o'z imkoniyatlarini amalga oshirishda to'liq ishtirokini ta'minlovchi madaniyatga erishish g'oyasi asos qilib olinishi kerak.

Tinchlikni tasniflash birmuncha murakkab bo'lib, bu qaysi mezonlar asos qilib olinayotganligiga bog'liq. Masalan, tinchlik o'z mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Negativ tinchlik, ya'ni tomonlar o'rtasidagi urushning yo'qligi, birok hamkorlikning ham yo'qligi;
2. Pozitiv tinchlik, ya'ni tomonlar o'rtasida urushning yo'qligi va uzviy hamkorlikning mavjudligi.

O'z ko'lamiga ko'ra tinchlik quyidagi tur larga bo'linadi:

1. Individlar o'rtasidagi tinchlik;
2. Guruhlar o'rtasidagi tinchlik;
3. Jamolar o'rtasidagi tinchlik;
4. Davlatlar o'rtasidagi tinchlik.

Tinchlik kelib chiqishiga ko'ra:

1. Azaliy (tabiiy mavjud bo'lган) tinchlik;

2. O'rnatilgan tinchlik (sulh shartnomalari natijasida) abi tur larga bo'linadi¹.

Tinchlik va barqarorlik — bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinch-totuvlikka intilib kelgan, u — barqaror taraqqiyot garovi ekanligi sir emas. O'zbek xalqi tinchlik va barqarorlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi. Shuning uchun doimo YAratgandan tinchlik va barqarorlik hamda omonlik tilaydi. Lekin, afsuski, hayotda bu ezgu tilaklarning ijobat bo'lishiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o'zlarining g'arazli maqsadlari, nafs balosi yo'lida bashariyatni hamisha nizo-adovat, urush va qirg'inbarot urushlar domiga tortib keladi. Insoniyat tarixiga nazar tashlansa, keyingi besh ming yil mobaynida odamzot o'n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshidan kechirganini ko'rish mumkin. Bu — urush va tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo'lib qolayotganidan dalolatdir. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi. Sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrga hukmronlik qilgan 40 yil mobaynida mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ustuvor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan. Aksincha, urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzul botqog'iga botiradi. O'ttiz yildan buyon o'zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizasiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib qolgan Afg'oniston buning yaqqol dalilidir. Bu mamlakat hududining xavf-xatar o'chog'iga aylanib qolgani yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikga, taraqqiyot yo'lidagi ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishga xalaqit bermoqda.

Dunyoda yalpi tinchlik va barqarorlikga erishish uchun, avvalo, har bir mamlakat va har bir mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash zarur, degan qarashning bugungi kunda g'oyatda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan

¹ Тинчликпарварлик ва бағрикенглик: атамалари луғати. Тошкент, 2005, 88-89 бетлар.

dalolat beradi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini eng asosiy boylik sifatida asrab kelmoqdamiz. Bugungi va keyingi nasllar ham ko'p mehnat va mashaqqatlar evaziga qo'lga kiritilgan mana shu beba ho ne'matni asrab-avaylashi zarur. SHundagina ular xalqimizning asl orzu-intilishlariga, istiqlol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga munosib voris bo'la oladi. Tinchlik va barqaror Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liq. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy etukligi tinchlik barqarorlikni saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan bu g'oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga hamda shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Faqat tinchlik-xotirjamlik, barqarorlik, o'zaro ahillik bizga munosib hayot baxshida etadi, o'zimizni, farzandlarimizni barcha musibatlardan asraydi. Tinchlik, xotirjamlik va totuvlik — bular hayotbaxsh chashmalar bo'lib, hozirgi kunda hayot kechirayotganlarning farzandlari va avlodlarida ertangi kunga porloq kelajakka umid va ishonch uyg'otadi. Barqarorlik esa eng katta boyligimiz va muvaffaqiyatli rivojlanishimiz kafolatidir.

Endi tadqiqotimizning asosiy mavzusi bo'lgan tinchlikparvarlik tushunchasini tahlil qilib chiqamiz. Bu tushuncha odatda tamoyil yoki ma'lum kategorial tushuncha sifati namoyon bo'lmasada, uning mazmuni tushuntirshda quyidagi holatlarga e'tibor berildi. Jamiyat va davlatda tinchlikni istovchi va uni o'zining mafkuraviy shioriga aylantirgan kishilar tinchlikparvarlar deb nom ola boshladi.

Keyinchalik ularning soni va ma'lum strategik maqsadlarga ega bo'lgan mafkuralari shakllandı. Uning natijasi ko'plab insonlar tinchlikparvarlik xarakatiga birlasha boshladi. Dastlabki xarakatlar Ikkinci jahon urushidan keyin BMT ga a'zo mamlakatlar doirasida avj ola boshladi. Endilikda dunyoda tinchlik qadriyat darajasiga ko'tarila boshladi. Urush va o'zaro nizolarga chek qo'yish dolzarb

vazifalardan biriga aylana boshladi. Urushda ko'p minglab insonlar xalok bo'lgani, separistik xarakatlar o'zaro etnik ziddiyatlar kuchaygani insonlarni xushyorlikka chorladi. Keyinchalik rivojlangan davlatlarning boshqa davlatga intervensiya xarakatlariga qarshilik xarakatlari avj oldi. Bu ayniqsa AQSHning Vietnamga harbiy harakatlari davrida avj oldi. Bu erda amerika fuqarolari o'z farzandlarini urushga yuborishdan voz kechganligi tinchlik istagi ustuvorlik qilgani ko'rish mumkin. Dastlab mustamlakadan qutilgan davlatlar qo'shilmaslik xarakati tashkilotini tuzdi. Bu ham tinchlik yo'lidagi qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu kabi xarakatlar negizida tinchlikparvarlik ahloqiy tamoyili yuzaga kela boshladi. Demak, bu tushuncha o'zida qanday ma'no va mazmunni mujassamlashtirgani ko'rib chiqamiz.

Tinchlikparvarlik — insonlarning tinch-xotirjam, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ijod qilish, yaratgan ijod mahsullarining uzoq yillar mobaynida xalqi, el-yurti, Vatani va umuman, insoniyatga xizmat qilishiga ishonch-e'tiqod, hayotning qadriga etish, tiriklikni ulug'lash ruhidagi faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog'liq tarbiyaviy yo'nalish, xususiyati xisoblanadi. Tinchlikparvarlikxususiyati o'zbek xalqining turmush tarzi, qo'shiqlari, alla va ertaklari, dostonlarida ham ifodalanadi. Chunki xalqimiz tinch-totuv yashashni, bunyodkorlik, yaratuvchanlikni afzal ko'radigan tinchlikparvar, mehnatkash, bolajon xalq. Xalqimizning ezgu niyatli, ochiq ko'ngilli, hammaga yaxshilikni ravo ko'rib yashaydigan xalq ekanini ko'pchilik chet ellik sayyoohlar, olimlar ham ta'kidlagan. Masalan, mashhur venger olimi German Vamberi (1832-1913) o'z asarlarida turkiylarning mehmondo'st, tinchliksevar, sabr-qanoatli, og'ir-bosiq xalq ekanini ta'kidlaydi. Tinchlikparvarlik tamoyili kishi xulq-atvorida, xarakterida tarbiya orqali, ko'p yillik hayotiy tajriba vositasida tarkib topadigan xususiyatdir. Odatda, bu kabi xususiyat, xislat yoki fazilatlar kishilarning ong-tafakkurida shakllana borib, butun bir xalqning xarakteri, ma'naviyati, milliy xususiyatini belgilaydigan omilga aylanadi. O'zbek xalqi ham do'stlik, ahillik, hamjihatlik, bunyodkorlikni ardoqlab, shu kabi noyob xislatlari bilan umuminsoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shib kelayotgan xalq hisoblanadi. Tinchlikparvarlik

xalqimiz mentaliteti, orzu-niyatlari, xulq-atvoridagi bosh fazilatlardan hisoblanadi. Bu xususiyat xalqimizga xos bo'lgan mahalla bo'lib yashash, beva-bechoralarga yordam berish, ularga qayishish, hashar va xayr-ehson uyushtirish, yaxshi qo'shnichilik, saxovatpeshalik kabi qator oljanob an'ana va urf-odatlarda, tarbiya yo'sinlarida ham ko'rindi. Xalqimiz murosai madora, qo'shni haqi, xalq mulki, yaxshilik nimayu, yomonlik nima ekanligini juda yaxshi biladi. Unga xos "Bir kun urush-janjal bo'lgan erdan qirq kun baraka qochadi", "Yon qo'shni – jon qo'shni", "Qo'shning tinch – sen tinch", "Tinchlikning boshi birlikda" kabi serma'no maqollar tinchlik, ahillik, hamjihatlikning asl mazmun - mohiyatini aks ettirib, tarbiyaviy ahloqiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Mamlakatimizning hozirgi tashqi siyosati ham aynan xalqimizning tinchlikparvarligi, yaxshi qo'shnichilik ibrati, beg'araz va sof niyatli xalq ekanidan dalolatdir.

Keyingi paytlarda tinchlikni saqlash va unda fuqarolarni ishtirokini ta'minlashda tinchlik madaniyati tushunchasi ilmiy muomalada qo'llanila boshlandi. Tinchlik madaniyati urushlarga yo'l qo'ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash. Insoniyat irqi, millati, madaniy boyliklariga, urf-odatlariga buyuk hurmat bilan qarab kelgan. Bugungi zamonda ma'naviy boyliklarni saqlab qolish uchun, avvalo, qonli mojarolarga barham berish, tinchlik va totuvlikni qaror toptirish, madaniy meros, osori-atiqalar, urf-odatlarni asrab avaylash, dunyo xalqlarining ilm-fan yutuqlaridan birdek bahramand bo'lishiga erishish zarur. Tinchlik madaniyatida birinchidan,

ozodlik, adolat va demokratiya tamoyillariga asoslangan do'stona va ittifoq madaniyati;

ikkinchidan, zo'ravonlikni qaytaruvchi va nizolar paydo bo'lgan zahoti uni bartaraf etishga chorlaydigan, muammolarni muloqot va muzokaralar yo'li bilan hal etuvchi madaniyat;

uchinchidan, o'z jamiyatining ichki rivojida uning barcha huquqini, har

kishining to’la miqyosda va imkoniyatlarini amalga oshirishda to’liq ishtirokini ta’minlovchi madaniyatga erishishlik g’oyasi asos qilib olinishi kerak.

Bugun dunyoda qolaversa O’zbekiston Respublikasida tinch totuv yashash tamoyili siyosatimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Tinch-totuv yashash insonlar, millatlar, davlatlar va birlashmalar orasidagi murosa va o’zaro hamkorlikka asoslangan turmush tarzida namoyon bo’ladi. U turli ijtimoiy tuzumga mansub mamlakatlar o’rtasidagi xilma-xil munosabatlarda urushdan voz kechishni, nizoli masalalarni urush vositasi bilan emas, balki muzokaralar yo’li bilan ularning ichki ishlariga aralashmasdan, bir-birlarining o’zaro qonuniy manfaatlarini hisobga olib ish tutishni taqozo qiladi. Bu tushuncha xalqlarning o’z taqdirlarini o’zlari mustaqil hal etishlari, davlatlar suvereniteti va hududiy daxlsizligi hamda ularning chegaralari mustahkamligini qat’yan hurmat qilishni, teng huquqlilik va o’zaro manfaatdorlik asosiga qurilgan hamkorlikni anglatadi.

Tinch totuv yashash umume’tirof etilgan xalqaro huquq va shartnomalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni halol bajarishni taqozo etadi. Bular esa, o’z navbatida, alohida xalqlar ma’naviyatida tinch totuv yashash ehtiyoji, ruhiyatining qanday darajada ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi. Tinch totuv yashash jahondagi barcha odamlar, davlatlar va xalqlar manfaatlariga javob beradi, ular o’rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi uchun, fan va texnika yangiliklari, madaniy va ma’naviy qadriyatlar bilan o’rtoqlashish uchun sharoit yaratadi. Bunday yashash tarzi xalqlarni tashqi xavf-xatardan qo’riqlab, milliy va ijtimoiy taraqqiyot yo’lidan mustaqil rivojlanishini ta’minlaydi, juda ko’p imkoniyatlar va kishilar mehnatidan bunyodkorlik maqsadlarini ko’zlab, global muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratib beradi. Tinch totuv yashash yo’li davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda eng maqbul yo’l ekanini hayot tobora teran isbot qilib bormoqda.

Shuning uchun mamlakatimizning davlat mafkurasi bo’lgan milliy istiqlol g’oyasining asosiy tamoyillari tinchlik va barqarorlikni o’zida mujassamlashtirganini ko’rimiz mumkin. Jumladan, Yurt tinchligi – bebahone’mat, ulug’ saodatdir. Bashariyat o’z taraqqiyotinnig barcha bosqichlarida,

avvalo tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasa, keyingi besh ming yil mobaynida odamzot o'n besh mingdan ziyod katta–kichik urushlarni boshdan kechirganini ko'ramiz. Bu urush va tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi yung olamshumul muammo bo'lib qolayotganidan dalolatdir.

Holbuki, bashariyat fanat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, modniy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini yung asosiy boylik sifatida asrab kelmoqdamiz. Bugungi va keyingi nasllar ham ko'p mehnat va mashaqatlar evaziga qo'lga kiritilgan mana shu beba ho ne'matni asrab-avaylashi zarur. Shundagina ular xalqimizning asl orzu-intilishlariga, istiqlol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga munosib bo'la oladi.

Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy etukligi – yurt tinchligini saqlashning murim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan bu g'oya milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

1.2. Tinchlikparvarlik g'oyalarining tarixiy asoslari

Sharqda tinchlik va tinchlikparvarlik tushunchasiga nisbatan o'ziga xos talqinlar mavjud. Bu odob - axloq, madaniyat, va siyosatning uyg'unlashgan shakllari bilan bog'liq. Bundan uch ming yil avval qadimiy Xorazmga dunyoga kelgan "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida katta ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy voqe'likka aylandi. "Avesto" ning ijtimoiy–tarixiy hodisa sifatidagi qadriyati shundaki, u butun insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi,

tasavvur va tafakkur olamining yangi sarchashmasi, ijtimoiy hayot, yashash zavqi va mohiyati bilan bog'liq bo'lgan g'oyat insonparvar g'oya sifatida yuzaga keldi.

"Avesto" dagi ijtimoiy adolatga yo'g'rilgan, g'oyat insonparvar qarashlar nafaqat inson, balki butun borliq, tuproq, havo, suv, koinot, yulduzlar, hayvonlar, hasharotlar, parrandayu darrandalar yaxlit olamining o'zaro munosabatlari orqali inson ma'naviy-axloqiy me'yorlarini ilk bor ishlab chiqdi. Inson faoliyati, xatti-harakatlari va munosabatlarining qonuniyatlarini dastlabki ko'rinishlarda, ammo qiymatini yo'qotmaydigan darajada yuzaga keltirdi. Xuddi ana shu umuminsoniy, dunyoviy g'oyalar orqali "Avesto" ning falsafiy mohiyati belgilanadi.

Ko'pdan – ko'p qirg'in barot urushlar, vayronagarchiliklarni ko'rgan Turonda "Avesto" tinchlik va hamkorlik, do'stlik va o'zaro hurmat orqali insoniyat tub mohiyatini yuksak darajada targ'ib qilish bilan birga ana shu jangu jadallarning qurbaniga ham aylandi. "Avesto" g'oyalarida inson va tabiat, hayot va uning mohiyati atrofidagi ilk tasavvurlar ilgari suriladi. Ushbu g'oyalar insoniyat sivilizasiyasining ilk kurtaklari sifatida o'zini namoyon etadi. Darhaqiqat, insoniyat tafakkuri va tasavvuri tadrijiy taraqqiyotining ilk bosqichlari bevosita "Avesto"ga borib taqaladi. Shu bilan birga undan etarli darajada quvvat oladi.

Bundan uch ming yil avval odamlar tasavvuridagi ilk o'zgarishlar bevosita "Avesto" orqali umuminsoniy qadriyatlar maqomini egalladi. Jumladan, "Avesto" turli qabilalar, guruhlar o'rtasida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka nuqta qo'yib, yakkaxudolik g'oyasini ilgari surdi. Bu bevosita diniy ta'limotda inson qanday guruh, urug', qabili yoki millatga mansub bo'lmasin, er yuzining qaysi hududida yashamasin, u yolg'iz Ollohnning bandasi va Olloh uning asraguvchisidir, degan g'oyaga olib keldi. Yakkaxudolik orqali "Avesto" turli qabila va urug'larni yagona e'tiqod, yagona maslak va yagona g'oya orqali birlashtirib, umumiyl manfaatlar atrofida jiplashishiga da'vat etdi. Natijada insoniyat jamiyatini ma'naviy qiyofasi, odamlarning ichki dunyosi, fikr – o'ylari va amaliy xatti – harakatlarining madaniylashishiga olib keladigan qudratli mafkuraga aylandi. Inson, jamiyat va hayot jarayonining mislsiz ravnaqiga asos bo'lib xizmat qildi. Ana shu tarzda "Avesto" odamlarni ezgulikka da'vat etuvchi, yaxshilikni himoya qiluvchi,

yovuzlik va jaholatdan uzoqlashishga chaqiruvchi g'oyalarni ilgari surdi. “Avesto” kitobida kishilarning birgalashib yashashi, insonlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning axloq normalariga tayanishi, vatanparvarlik, tinchlik – ahillik kabi g'oyalarni ilgari suradi. “Avesto”ning ikkinchi daftari bo’lmish YAsnaning 62-hot, 5-qo’shig’ida shunday deyiladi: “Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishili, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag’ishla. Toki ular manzil, shahar, o’lka va uning nom hamda ovozasini ko’tarsinlar”¹. “Avesto” ning tub ma’no mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal ” degan tamoyilini oladigan bo’lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli g’oya va ta’limotlarning asosi bo’lganligini ko’rish mumkin. Ana shunday fikrlar ya’ni, ezgu niyat so’z va ish birligi jamiyat hayotining ustuvor g’oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog’liq, nechog’lik mustahkam hayotiy asosga ega ekanligi ayniqsa e’tiborga molik hisoblanadi.

“Avesto” da bayon etilgan g’oyalarga ko’ra, olam nur va zulmat, hayot va o’lim, tana va jon, yaxshilik va yamonlik, erkinlik va tobe’lik, singari hodisalarning azaliy va abadiy kurashdan iborat. “Avesto”da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining ezgulik bilan uyg’unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog’liq holda ko’rsatilgan. Bu holat insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda kuchli ta’sir o’tkazadi. Qadimgi ajdodlarimizning ezgu g’oyalari va milliy davlatchilik ananalari o’z aksini topgan bu kitob faqat mustaqillik yillarida haqiqiy qadr qimmatini topdi.

Jahon falsafiy tafakkurining shakllanish omillari va rivojlanish manbalari, unga Sharq falsafasining ta’siri, o’rni va roli xususida gapirar ekan, F.Sulaymonova belgiyalik olim Jak Dyushen Giyyomenning ibratli so’zlarini keltiradi: “Sharq o’g’lonlari orasidan G’arb birinchi bo’lib Zardushtrani o’g’il qilib oldi. Uning ta’limoti Xristos ta’limotidan to’rt asr avval Gresiyani boyitdi. Zardushtrani Platon bilgan. Budda va Konfusiylarning ovozi Evropaga etib

¹ Авесто. Тарихий – адабий ёдгорлик. А.Махкам таржимаси.– “Шарқ”, 2001. 90-б.

kelguncha juda ko'p vaqt kerak bo'ldi. Shuning uchun asrlar davomida G'arb qadimiy Sharq donishmandligi bilan faqat Zardushtra orqali tanish bo'lган”¹.

“Avesto”ning ijtimoiy–falsafiy g'oyalari insoniyat sivilizasiyasining sarchashmasi, unga g'oyat kuchli ta'sir o'tkazgan manba sifatida ko'zga tashlanadi. Garchi u O'rta Osiyoda dunyoga kelib, ana shu makon xalqlari ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy– axloqiy me'yorlarining ishlab chiqqan bo'lsa–da, uning g'oyat insonparvar g'oyalari butun insoniyat ma'naviy mulkiga aylandi. Jahon fani, xususan ijtimoiy fanlar namoyandalari undan unumli foydalanishdi. Abu Rayhon Beruniy fikricha, “Avesto” ayrim hollarda, hatto, davlat yaxlitligi va birligini ta'minlashda, boshqaruvda umummanfaat va g'oyalar mushtarakligini vujudga keltirishda muhim rolб o'ynagan. Bu ayniqsa Sosoniylar davri uchun xos xususiyat bo'lган.

Tinchlikparvarlik g'oyalari Abu Nasr Forobiy asarlarida jumladan, “Fozil odamlar shahri” asarida davlatni boshqarishda adolatli qonunlarga tayanish lozimligini uqtiriladi. Odamlarga nisbatan, deb yozadi buyuk alloma Abu Nasr Forobiy, ularni birlashtirib turuvchi asos insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lgani uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.²

Abu Nasr Forobiy o'zining falsafiy tizimiga asoslanib insoniyatni bir butun Buyuk jamiyat deb qaraydi. Butun insoniyatni birlikka birlashtirish mutafakkirning orzusi edi. Insoniyat doimiy sinfiy, diniy, irqi, milliy ziddiyatlar oqibatida doimiy urushlar tufayli turli guruhlarga bo'linib ketgan davrda bunday g'oyaga ega bo'lish allomaning insonparvarligi va optimizmidan dalolat beradi. Forobiy o'z davrining mavjud davlatlarining butun kamchiliklarini, ular o'rtasidagi dushmanlarcha munosabatni aniq – ravshan ko'ra olgan, ammo shunga qaramay insoniyat baxt uchun yaralganligiga ishongan. Forobiy kishilik jamiyatni taraqqiyotida davlat va boshvaruvning o'rni, siyosiy boshqaruvdaadolat mezonlari, muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Natijada davlat bevosita jamiyatni ezgulikka

¹Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farrell. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 36 б.

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. . А. Қодирий номидаги халқ меросинашриёти, 1993.186-б.

da'vat etuvchi, bunyodkorlik fazilatlarini boyituvchi, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi mexanizm darajasiga ko'tariladi.

Alloma bir joyda “Agar shahar o'z qonunchiligidagi haqiqiy muhabbat, yuksak axloq, barkamol aqlga ega bo'lmasa, uning qismati halokat va parokandalik bo'ladi, agarda bu uch (go'zal nuftalar) bo'lsa albatta u farovonlikka erishadi”¹ , – desa, boshqa bir holatda “Boshqaruv ham qonunlarning soniga va qadriyatiga bog'liq. YAxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog'liq, yomon boshqaruv – yomon qonunlarga, etuk boshqaruv – etuk qonunlarga bog'liq ”² – deydi. Bu bilan Forobiy tarixiy jarayon hisoblanadigan mamlakat hayoti, ma'naviy axloqiy qiyofasi, farovonlik darajasi bevosita boshqaruv asoslariga, uning shakli, usul va uslubiga, qonun va qrirlarning, hukmlar va xulosalarning qay darajada asosliligiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi.

Yana bir joyda jamiyat hayotiga zarar keltiruvchi, tahdid soluvchi ishlar haqida gapirar ekan,adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida “sa'y-harakati, huquqlari va maqsadlari (adolatli) hokimlarga qarshi bo'lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni tozalashdir ”³ – degan g'oyani ilgari suradi. Bu esa davlat, boshqaruv, hokimiyat va uning adolatli faoliyati masalalarida o'rta asrlarda shakllanayotgan falsafiy, siyosiy, tarixiy, ijtimoiy tafakkurning nafadar yuksakligidan dalolatdir. Mutafakkirning bundan ming yillar ilgari yaratgan ushbu ta'limoti o'z ahamiyatini yuqotmasdan bugungi istiqlol va yangilanishlar sharoitida ham O'zbekiston rahbariyatining siyosati uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov, Forobiyning ideal rahbar haqidagi so'zlarini baho berar ekan, “Ayniqsa rahbar adolati, elu yurtga etakchilik qilishdek og'ir mas'uliyatni bo'yniga olgan odamning adolati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga ega”⁴ deb ta'kidlaydi. Bu kabi g'oyalar Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Sohibqiron Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ilgari surilgan.

¹Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. . А. Қодирий номидаги халқ меросинашиёти, 1993. 32-б.

²Ўша манба 33-б

³Ўша манба.37-б.

⁴И.А.Каримов. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т., Ўзбекистон, 2000, 59-б.

Kant davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan butun dunyo tashkiloti lozimligini qo'llab-quvvatlaydi va bu tashkilot nizolarni tartibga solish hamda tinchlikni ta'minlash kabi universal tamoyillarga asoslanishi kerakligini ilgari suradi.¹ Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu masalalar bilan shug'ullanib kelmoqda.

Rassel-Eynshteyn manifesti deb nom olgan va 1955 yil 9-iyulda Londonda e'lon qilingan manifest insoniyatning sovuq urush davridagi ikki qutbli dunyoga ajratilishi, qurollanish poygalari avj olib atom va vodorod bombalarini qo'lga kiritish uchun raqobat kuchayib dunyo yadro urushi xavfi ostida qolgan bir paytda butun dunyo olimlarinig rezolyusiyasi ostida mamlakatlar va davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun konstruktiv talablar hamda qarashlar ilgari surildi. Manifestning qisqacha mazmuni qo'yidagi mazmundan iborat:

"Insoniyat oldida yuzaga kelgan ushbu fojeaviy holatda, o'ylaymizki, olimlar ommaviy qirg'in qurollari yaratilishi tufayli yuzaga kelgan xavfni baholash va quyida ilova qilingan loyiha ruhida rezolyusiya chiqarish uchun anjumanga yig'ilishlari lozim. Hozirgi holatda biz u yoki bu xalq, qit'a yoki diniy ta'limot vakili sifatida emas, balki bundan buyon mavjud bo'lishi shubha ostida qolgan odamlar, insoniyat vakili sifatida chiqish qilmoqdamiz. Olam ziddiyatlarga boy, lekin kommunizm va antikommunizm o'rtasidagi qudratli kurash oldida barcha boshqa nizolar chekinadilar. Siyosiy vaziyatni teran anglagan deyarli har bir inson u yoki bu muammoga simpatiya yoki antipatiya bilan qaraydi, lekin biz, mukin bo'lsa, ushbu tuyg'ularni ortga tashlab, rivojlanishning ajoyib tarixiga ega bo'lган va yo'q bo'lib ketishini bizlardan hech kim istashi mumkin bo'lмаган, yagona biologik turning vakillari sifatida o'zingizga qarashingizni istaymiz. Biz bu haqda shunday gapirishga harakat qilishimiz kerakki, hech bir lager bizni tarafkashlikka ayblay olmasligi kerak. Biz o'zimizga quyidagi savolni berishimiz lozim. Natijasi barcha qatnashchilari uchun falokatli bo'lishi kerak bo'lган harbiy kurashning oldini olish uchun qanday qadam tashlash kerak?"

¹ К вечному миру.-И.Кант.Соченения на немецком и русском языках.-М.,1994. Том 1 стр 358.

Jamoatchilik va hatto ko'pchilik davlat arboblari yadroviy urushda o'rtaga nima qo'yilishini anglamaydilar. Ko'pchilik unga hanuzgacha shaharlarni yo'q qilish vositasi sifatida qaramoqda. Barchaga ayonki, yangi bombalar eskilariga qaraganda quvvatliroqdir va bir atom bombasi Xirosimani yo'q qilishga qodir bo'lganidek, bir vodorod bombasi er yuzidan London, N'yu-York va Moskva kabi eng yirik shaharlarni yo'qotishga etarlidir. Hozirgi kunda Xirosimani yo'q qilgan bombadan 2500 marotaba quvvatliroq bombani tayyorlash mumkin.

Hech kim bunday o'lim keltiruvchi radioaktiv zarrachalar qanchalik uzoqlarga tarqalishi mumkinligini bilmaydi. Lekin eng katta mutaxasislar bir ovozdan ta'kidlaydilarki, vodorod bombalari qo'llanilgan urush odam zotini yo'q qilishi tamoman mumkindir. Insoniyat oldida turgan qo'rquinchli va muqarrar savol qo'yidagicha: Biz odam zotini yo'q qilishimiz kerakmi, yoki odamzod urushlardan voz kechadimi?

Odamlar bunday tanlovga duch kelishni istamaydilar, chunki urushdan chiqish o'ta mushkildir. Urushni tugatish milliy g'ururga nisbatan zid bo'ladigan milliy suverenitetni cheklashga doir choralarini talab qiladi. Lekin, har narsadan ham ko'proq vaziyatni baholashga xalaqit berayotgan noaniq va abstraktko'ringan "insoniyat" tushunchasi bo'lmoqda. Odamlar xavfga abstrakt qabul qilingan "insoniyat" tushunchasi emas, ularning o'zlari, ularning bolalari va nabiralari duchor bo'layotganini tasavvur qilayotganligi dargumon. Ular o'zlarini va ularning yaqinlariga azobli o'lim duchor bo'lismosh xavfi tahdid solayotganini anglashga majbur qila olmayaptilar. Shuning uchun odamlar, zamonaviy qurollar ta'qiqlangan taqdirdagina urushlar davom ettirilishi mumkin deb hisoblamoqdalar. Bu aldamchi bir umiddir. Tinchlik paytida vodorod bombalaridan foydalanishni ta'qiqlash bo'yicha qanday kelishuvlarga erishilgan bo'lmasin, urush paytida ularga amal qilish shart emas deb hisoblaydilar va ikki taraf urush boshlanishi bilan darhol vodorod bombalarini yaratishni boshlab, ikkinchi taraf buni qilmasa, vodorod bombalariga ega taraf albatta g'olib bo'ladi.

Barchamiz o'z qarashlarimizga sodiqmiz, lekin inson sifatida biz shuni esda tutishimiz kerakki, Sharq va G'arb o'rtasidagi kelishmovchiliklar shu

yo'sinda hal qilinishi lozimki, u barchaga: kommunist va antikommunist, osiyolik, evropalik yoki amerikaliklar, oqlar yoki qoralarni qanoatlantirishga imkon berishi kerak. Bu kelishmovchiliklar qurol kuchi bilan hal etilmasligi lozim. Buni ham Sharq va ham G'arb tushinib olmog'i lozim. Oldimizga muttasil taraqqiyot, baxt, bilim va donolik yo'li turibti. Nizolarimizni unuta olmasligimiz uchungina buning o'rniga o'limni tanlaymizmi?

Biz odamlar sifatida odamlarga murojaat qilmoqdamiz: Inson zotiga oidligingizni yodda tuting va qolgan barcha narsani unuting. Agar siz buni uddasidan chiqsangiz, oldingizga jannatga yangi yo'l ochiq; uddasidan chiqolmasangiz, oldingizga - umumiy nobud bulish xavfidan o'zga yo'l yo'qligimuqarrar. Manifest orqali butun dunyo olimlari jahon hamjamiyatini qo'yidagi rezolyusiya ostida imzo chekishga chaqiramiz:

“Kelajak jahon urushida yadro quroli albatta ishlatilishi hamda ushbu qurol odam zotining mavjudligiga tahdid solayotgani munosabati bilan, biz barcha mamlakatlar hukumatlari va davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar jahon urushini keltirib chiqarish natijasida hal qilinishi mumkin emasligini tushunishlarini oshkora ma'lum qilishlarini talab qilamiz. Ular barcha ziddiyatli masalalarni hal qilishning tinch yo'llarini topishlarini qat'iy talab qilamiz”¹.

Oradan yarim asr o'tishiga qaramasdan ushbu manifestning ahamiyati bugungi dunyo global muammolari tobora xuruj qilayotgan davrda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Termoyadro xavfi, urush va tinchlik muammolari, terrorizm yalpi ekologik tahdid, genosid, millatlararo nizolar masalariga befarq qarab bo'lmaydi. Bu jiddiy va insoniyat taqdiri bilan bog'liq muammolarni mumkin qadar bartaraf etish Inson zimmasidagi eng og'ir mas'uliyatdir.

Zero, “hozirgi kunda dunyoda kamida 50000 dona yadroviy qurol mavjud. Ularning aksariyati AQSH, Rossiya va boshqa sobiq Sovet Ittifoqi davlatlarida saqlanadi. Shuningdek Buyuk Britaniya, Fransiya va, Xitoy, bundan tashqari, Isroil ham katta atom zaxiralariga ega. Hindiston ham ma'lum yadro quroli yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu yo'nalishda ilgari siljishga tayyor turgan yana bir

¹ Қаранг: <http://www.pugwash.ru>

qancha mamlakatlar ham borligi xalqaro munosabatlardagi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Hech kim yana 30 - 40 davlat yadroviy qurolni qo'lga kirlitsa dunyodagi tinchlik va xavfsizlikni hech kim kafolatlanadi deb ayta olmaydi¹, deb takidlaydi jamiyatshunos olim E. Giddens. O'z yadroviy quroli mavjudligini agressiyani jilovlash zaruriyati bilan oqlayotgan G'arb davlatlari uchun boshqa davlatlar ham xuddi shu sababga ko'ra unga ega bo'lishni xohlashlari tabiiy holdir.

Biz insoniyat tarixida ilk bora to'la yo'q qilinish xavfi ostida qolgan bashariyat avlodlarimiz. Urushning sanoatlashishi ana shu ahvolga olib keldi. Ammo bugungi dunyo davlatlari bir – birga chambarchas bog'liq va yadroviy urush oqibatlari shunchalik halokatliki insoniyat bir yoqadan bosh chiqarib, urush xavfini yo'qotish uchun kurashmog'i shart.

Ushbu global masalalar eng avvalo insondan barkamollikni, ma'naviy va axloqiy etuklikni taqozo etadi. Demak inson dastavval o'z salohiyatini, ezgulikka yo'naltirilgan qobiliyati va faoliyatini takomillashtirishi, uni muvofiqlashtirib turishi zarur. Ana shu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi dunyo global muammolari orasida eng globali inson muammosidir. Dunyo xaloskori, hayot va taraqqiyot najotkori inson ekan, uning o'zi komillikka, tarbiyaga, yuksak axloqiy darajaga muhtoj ekanligini anglamog'i lozim.

Bugun din niqobidagi terrorizm dahshat va qo'rquv bilan dunyonи egallashga intilmoqda. U jiddiy ravishda XXI asrning bitishi qiyin bo'lgan jarohatlaridan biri va global dunyo uning tahdididan qutula olmayapti. Demak, terrorizm global miqyos kasb etayotgan bir paytda unga qarshi kurashish har bir fuqaro burchiga aylanmoqda. Chunki u eng avvalo, o'z hayotini himoya qilishdan manfaatdor. Har bir fuqaro o'ziga shunday talab qo'ysa, shunday masuliyat bilan yashasa, yaxlit jamiyat, butun insoniyat hayoti kafolatlanishi muqarrar. Er yuzida ezgulik va tinchlik tantana qilishi shubhasiz.

Qur'oni Karimning "Baqara" surasi 76- oyatida "aql insonning insoniyligini belgilovchi buyuk ne'matdir", - deyilsa, "Anfol" surasining 22-oyati,

¹ Энтони Гидденс. Социология. Тошкент., Шарқ. 2002 Б. 387421.

“Furqon” surasining 34- oyati va “Mulk” surasining 10-oyatida aqlsizlik, aqli zaiflik, aqli noqislik insoniyigini emiruvchi, uning mohiyatini pasaytiruvchi illat sifatida qoralanadi¹. Aqli zaif, nodon kishilar shayton yo’ldan ozdirgan kimsalar va hatto, hayvonlarga qiyoslanadi. Boshqacha qilib aytganda aqli zaif va nodon kishilar johillardir. “Jaholat”, “razolat”, “adovat” va “qabohat” so’zлari shunchaki ohangdosh so’zlar emas. Ular mazmunan va mohiyatan bir-birini to’ldirib boradigan hodisa bo’lib tinchlikni buzishga xizmat qiluvchi tushunchalar hisoblanadi.

“Tinchlik” so’zi Qur’oni Karimda 40 marta uchraydi. Bu muqaddas kitobning oyatlaridan birida shunday deyiladi: “Er yuzida tinchlikni buzib, fasod-janjal qilmanglar. Haq taoloning rahmati yaxshi ehson qiluvchilarga yaqindir”.²

Umuman olganda, Islom qoidalari va tasavvuf ta’limotida “jaholat”, “razolat”, “adovat”, “qabohat” va “fitna-fasod” kabi illatlar orqali tinch – osoyishta hayotni buzish, to’g’ridan – to’g’ri xudoga qarshi isyon sifatida qabul qilingan.

Istiqlolimizning dastlabki yillarida, O’zbekiston mustaqil taraqqiyot yo’lini tanlagan, qator, bir-biridan qiyin, og’ir muammolarni hal qilishga chog’langan, turli qarama - qarshiliklar va ziddiyatlarni engib borayotgan iztirobli bir pallada “Literturnaya gazeta” gazetasining muxbiri Prezident I. Karimovdan interv’yu ola turib: “Dunyoni go’zallik qutqaradi”, - degan ibora bor. Siz bunga qanday qaraysiz?” – deb so’raydi. Unga javoban Prezident: “Dunyoni go’zallik va ezhulik qutqaradi”³ - deb javob beradi. Ana shu ikki og’izgina gapda olam – olam ma’no borligi bugun ko’zga yaqqol tashlanmoqda. Qachonki mustaqil hayotimizga tahdid kuchayib, xalqaro terrorizm, narkobiznes, diniy fundamentalizm avj olib borayotgan bir paytda bu hikmatning yangidan – yangi qirralari, bizga noma’lum bo’lgan ma’nolari ochilib bormoqda. Darhaqiqat, dunyoni faqat go’zallikkina emas, u bilan birga ezhulik qutqaradi. Zotan, ezhulik bor joyda adovat, razolat, jaholat, fitna va nizoga o’rin yo’q.

¹ Куръони Карим. Тошкент Ислом университети нашриёти, -Т., 2001.

² Куръони Карим. Аъроф сураси, 56 оят. –Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1992.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони ахборотномаси. 1991 йил, №1.

Forobiyning ezgulik haqidagi xulosalariga nazar solsak, Prezident I.Karimov g'oyasining yana ham yangi qirralari ochiladi. Jumladan, “Agar inson ilohiy ezguliklarga erishishni umid qilsa, uning hayoti quvonchli, hayot tarzi esa go'zal bo'ladi. Go'zal hayot tarzi esa xalq nazarida ham, Xudo nazarida ham yuksak bo'ladi”¹ – deydi Forobiy. Jaholat ustun kelgan hollar o'tmishda ko'p uchraydi. Deylik, Nasimiyning tovonidan so'yilishi, Mirzo Ulug'bekning o'z farzandi Abdullatif hukmi bilan o'ldirilishi jaholat va qabohatning yorqin misolidir. Bu holatlar qaysidir darajada shaxsiy adovat, o'zaro kelishmovchilik, shaxsiy manfaat doirasida yuz bergen edi. Agar jaholat umumjamiyat miqyosini kasb etsa, odamlar hayotiga tahdid soladigan bo'lsa, uni qanday baholash mumkin? Bunday hodisalarning o'lchovi bormi? Balki ularning miqyosini baholash, taroziga solish, qaysidir darajada xulosaga kelish ham mumkindir. Biroq, eng muhimi, jaholatga qarshi kurashish, qabohatni barbod etish, insoniyat hayotini turli tahdid va tahlikalardan xalos etish insoniyat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan g'oyatda ulkan voqe'likdir.

Biz jamiyatni erkinlashtirish va demokratik yo'lidan bormoqdamiz. Fikr erkinligi, g'oyalar xilma – xilligi sharoiti vujudga kelmoqda. Ozod shaxs, erkin fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Biroq ana shu fikr erkinligi va shaxs ozodligidan kim, qanday foydalanmoqda? Bu juda katta axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy hodisa. Turli g'oya va fikrdagi kishilar harakati avj olayotgan bir paytda umummanfaat yo'lida xizmat qiladigan sog'lom g'oyalarni asray bilish va qo'llab quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham Yurtboshimiz I.Karimov “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga javob bera turib:
“Fikrga qarshi – fikr, g'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi – ma'rifat ”² tamoyilini ilgari surgan edi.

Xalqaro siyosat va jahon hamjamiyati munosabatlarida “Eng kuchli haq” qoidasi amal qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, o'tgan XX asrning 90-yillariga kelib ikki bir-biriga mutloq zid siyosiy-harbiy tizim o'rtasida yarim asr

¹ А.Форобий. “Фозил одамлар шахри”.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Т., 1993 йил, 37-бет.

² Каримов. И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд, “Ўзбекистон”.Т., 2000, Б. 491-492.

davom etgan hayot-mamot kurashiga chek qo'yildi. Albatta, bu insoniyat tinchligi osoyishtaligi, taraqqiyoti manfaatlari nuqtai nazaridan ulkan siljish sifatida e'tirof etilsada, dunyo miqyosida o'ziga xos strategik bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keldi.

Dunyoni termoyadro xavfidan qutqarish, xalqlar va davlatlar o'rtasida mo''tadil iqlimni vujudga keltirish, diniy ekstremizm, fanatizm, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, narkotik moddalarning tarqalishiga chek qo'yish singari global muammolarni hal etishda, mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishda yuksak siyosiy-axloqiy madaniyat, urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o'tish jarayonida o'ziga xos munozaralar va muzokaralar madaniyatini yo'lga qo'yish XXI asrning og'riqli masalalaridan hisoblanadi. Ushbu global masala haqida Prezidentimiz Islom Karimov mustaqilligimizning ikkinchi yilidayoq BMT ning 48-sessiyasida so'zlagan nutqida "Dunyo mojarolarini hal etishda Sharqona munosabatlar ilmini egallash zarur"¹ degan fikrni bildirgan edi.

Bu bilan davlatimiz rahbari, buyuk davlatchilik shovinizmi, katta davlatlarning kichik davlatlarga tazyiqi, zo'ravonlik illatlariga barham berish, dunyo muammolarini hal etishda va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burishda muzokaralar yo'lini tanlash, har qanday mojaroli masalalarni aqidrok, yuksak siyosiy tafakkur va axloqiy tamoyillar orqali hal etish zarurligini ta'kidlagan edi. O'zbekiston rahbari yuqoridagi fikri orqali siyosiy maydonda davlatimizning sharqona axloq, odob va siyosiy madaniyatini namoyon etgan edi.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson uchun yurt tinchligi bebafo ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik va totuvlikka intilib kelgan. Shuning uchun ham barcha davrlarda tinchlikni saqlash va mustahkamlash umumbashariy muammo bo'lib kelgan. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari, avvalo tinch-totuvlik holatidagina ijobiy hal etilgan. Ta'kidlash zarurki, tinchlikni saqlash muammosini o'z-o'zidan kishilarning hohish istagi, orzu-umidlari bilan hal

¹Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон.

qilib bo'lmaydi. Insoniyat uchun muqaddas bu qadriyatga doimo izchil va qat'iy harakatlar tufayligina erishilgan. Vatanparvarlik Vatanga nisbatan sadoqat bilan xizmat qilish, uni dushmanlardan himoya etish, yurt tinchligini asrash, uning ozodligi, mustaqilligi, ravnaqi va farovonligi uchun kurash, milliy manfaatlarni himoya qilishda ko'rindi. Bugungi dunyo davlatlari bir – birga chambarchas bog'liq va yadroviy urush oqibatlari shunchalik halokatliki, insoniyat bir yoqadan bosh chiqarib, urush xavfini yo'qotish uchun kurashmog'i shart.

Ushbu global masalalar eng avvalo insondan barkamollikni, ma'naviy va axloqiy etuklikni taqozo etadi. Demak inson dastavval o'z salohiyatini, ezgulikka yo'naltirilgan qobiliyati va faoliyatini takomillashtirishi, uni muvofiqlashtirib turishi zarur.

1.3. Ma'naviy yuksalish jarayonlarida tinchlikparvarlikning axloqiy ehtiyojga aylanishi

Mustaqillik yillarida erishgan eng katta boyligimiz – xalqimizning tinch va osuda hayoti, jamiyatimizdagi o'zaro hurmat, mehr oqibat va bag'rikenglik, kabi olivjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un bo'lib yashash tamoyili tobora mustahkamlanib bormoqda.

Umumjahoni yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, kiyin bir guruh davlatlar, oxir – oqibatda barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsata boshlaydi. Dunyo ma'naviy yuksalish jarayonlariga har bir davlat o'z taraqqiyot ko'lami, ilmiy – ma'rifiy va ma'naviy – axloqiy saviyasi, kamoloti darajasidan kelib chiqqan holda qo'shila boshladi.

O'zbekiston umumplanetar o'zgarishlar jarayonlari oqimida o'zining betakror ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy yangilanishlari dasturiga ega bo'lgan mamlakat sifatida o'ziga xos mavke egallaydi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan favqulodda keng ko'lamdag'i ma'naviy yangilanishlar hozirgi zamon jahon sivilizasiyasi bilan mushtarak ekanligi alohida e'tiroflarga sazovor bo'lmoqda. Mustaqillik yillari O'zbekistonda ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy

hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy tamoyillar uyg'unligi ruhida rivojlantirish orqali mamlakatimizda yalpi ma'naviy yangilanishlar jarayoni boshlanishiga poydevor qo'yildi.

Mustaqil O'zbekiston yalpi yangilanishlar jarayonini ikki o'zaro uzviy bog'langan yo'nalishlarda amalga oshirildi:

birinchidan, mamlakatning ichki dunyosida, ya'ni iqtisodiyot, ma'naviyat, siyosat, turmush tarzida, xalq xarakteri va milliy mentalitetidagi ma'naviy yangilanishlardan iborat;

ikkinchidan, xalqaro ijtimoiy muhit manzarasini takomillashtirish, ya'ni qarama – qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni barqarorlashtirish, kolliziya (qarama – qarshi kuchlar manfaatining to'qnashuvi) muhitidan murosa, hamkorlik munosabatlari, tinchlik madaniyatiga o'tish, millatlararo, davlatlararo, konfessiyalararo tolerantlik munosabatlarini chuqurlashtirish, insoniyatga umumiyligi xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstrimizmga qarshi xalqaro tashkilot tuzilmalariga asos solish va boshqa faoliyatlar majmuidan iborat.

Mamlakatimizda ma'naviy – ruhiy poklanish, miliy qadriyatlarni tiklash, vorislik an'analariga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyotga joriy etish konsepsiysi ishlab chiqildi. Mamlakatimizni ozod va obod jamiyatga aylantiruvchi, Vatan ravnaqini ma'naviy ta'minlab beruvchi milliy istiqlol g'oyasi shakllandi. Milliy urf – odatlar qadriyatlar va an'analarning tiklanishi, yangi jamiyat qurishda ma'naviy – marifiy targ'ibot va ta'lim – tarbiyaning roli oshirildi. Bu sohani tubdan isloq qilish va yangilash jarayonlari izchil amlga oshirilmoqda.

Jumladan, yurtboshimiz I.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Jamiyatni ma'naviy yangilanishdan maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan – ko'p muhim masalalardan iborat"¹, deb asoslangan edi.

Darhaqiqat, ma'naviy o'zgarishlar jarayonlarining natijasida ijtimoiy ong mazmunidaodamlar tafakkurida, xulq atvorida yangi qadriyatlar qaror topdi.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон турмуш – пировард мақсадимиз. Т., Ўзбекистон, 2000, 499 б.

Hayotga munosabatlar tizimi o'zgardi. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, mamlakat barqarorligi kabi tinchlikparvarlik g'oyalari qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bugungi jahon hamjamiyatida bunday qadriyatlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

Atoqli nemis faylasufi Gegelъ bu borada “har bir davlat qurilishi ma'lum xalq milliy ma'naviy mahsuli, o'zligini namoyon etish va ma'naviy onglilik taraqqiyotining pillapoyasidir. Bu taraqqiyot zinasini qadam – baqadam bosib, bir me'yordagi harakatni, vaqt dan o'zib ketmaslikni taqozo etadi. Vaqt hamma narsaga qodir. Unda tafakkur, falsafa... hamma narsa mujassam.”¹, deb takidlaydi.

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday oljanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik bergenini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani davlatimiz oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Bunyodkor xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Zero, mamlakatimiz rahbari I.Karimov bu masalaga mustaqilligining ilk kunlaridayoq e'tibor qaratib, “bizga zarba bo'lib tushgan eng og'ir tanglik iqtisodiy emas, balki ma'naviy tanlikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy –

¹ Қаранг: Гегель. Философия права. М., 1990, стр.469.

ma’naviy qadriyatlarni g’oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko’ra ancha mashaqqatli bo’ladi” deb ta’kidlaydi.¹

Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo’qotsak, bu o’ta muhim ishni o’z holiga, o’zibo’larchilikka tashlab qo’yadigan bo’lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo’g’rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o’zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo’lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

El – yurtimiz o’zining ko’p asrlik tarixi davomida bunday mash’um xatarlarni necha bor ko’rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ushbu fojiali o’tmishni, bosib o’tgan mashaqqatli yo’limiz barchamizga saboq bo’lishi, bugungi voqe’likni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo’lib yashashga da’vat etishi lozim. Mamlakatimiz rahbari I. Karimov Yuksak ma’naviyat engilmas kuch nomli asarida “O’z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo’q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko’p bora o’z isbotini topgan”², deb ta’kidlaydi.

Vatanparvarlik Vatanni sevish, u bilan g’ururlanish, ona yurt erishgan muvaffaqiyatlaridan quvonish, uning istiqboli uchun qayg’urish kabi his – tuyg’ularda yorqin namoyon bo’ladi. Ma’lumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma’naviyatni rivojlantirishga mutlaqo yo’l qo’yilmagan. Aksincha, xalqimizning tabiatini, yashash tarziga yot bo’lgan kommunistik mafkurani har qanday yo’llar va zo’ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o’zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi.

Ijtimoiy va ma’naviy sohada, insonparvarlik g’oyalariga sodiqlik, inson, uning hayoti, shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmati, yashash joyni tanlash

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистон Мустақилликка эришиш остонасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. 263 б.

² Каримов.И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон турмуш – пировард максадимиз. Т., Ўзбекистон, 2000, 488 б.

huquqi, inson huquqlarining Umumjahon deklarasiyada mustahkamlangan me'yorlarini qaror toptirish, ma'naviyat va axloqiylikni tiklash, qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni asrab-avvaylash, milliy madaniyat va tillarga o'zaro hurmatda bo'lish, hurfikrlilik va vijdon, din erkinligi qoidalarini qaror toptirish, ijodni rivojlantirish, iste'dod va qobiliyatlarni namoyon etish uchun qulay sharoit yaratib nazarda tutadi.

O'zining xalqaro obro'-e'tiborini qozonish va mustahkamlash, xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida o'zini qaror toptirish uchun ko'p ishlarni qilish, ba'zida esa umuman boshidan boshlashi kerak.

O'zbekistonning tashqi siyosatiga, uni amalga oshirish yo'llarini belgilashga negiz bo'luvchi asosiy prinsiplar etib qo'yidagilarni belgilab olingan: O'z milliy-davlat manfaatlari ustun bo'lган holda o'zar manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Boshqa biron-bir davlatning ta'siriga tushib qolmaslik; Xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun kurashish, harbiy bloklar va uyushmalarga kirmasdan O'zbekistonning yadrosiz zonaga aylantirish; Tashqi siyosatda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga amal qilish; Tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsipini ro'yobga chiqarish va tinchliksevar mamlakatlar bilan tashqi aloqalarni o'rnatishga intilish; To'la ishonch prinsiplari asosida ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini qo'yidagilar tashkil etadi: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish.¹

"Bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga

¹ Каримов.И.А.Ўзбекистоннинг ўз истиқбол ва тараққиёт йўли. –Т., Ўзбекистон. 2003. 142 б.

munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin”¹.

Totalitar tuzum emirilgandan keyin dunyolar qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qoldimi?

Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasidagi xalqaro munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarini ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tadqiq qilish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, halqaro munosabatlarda mamlakatlar milliy o'zlikni anglashda faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarda o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi, etnik va millatlararo ziddiyatlarni saqlanib qolayotganligi, qotib qolgan mafkuraviy aqidalarini qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi, dunyonи katta qismida iqtisodiy zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi, ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqlanish kuchayib borayotganligi bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligini va avaylab munosabatda bo'lishni talab qilayotganligidan dalolat beradi.

Bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkablashib, uning global muammolari tobora ortib bormoqda. Bu esa suveren davlatlar rahbaridan boshlab, oddiy fuqarolarigacha o'z zimmasiga yuklagan juda katta burch va ma'suliyatni teran anglab, o'y hayolini hamisha tinchlik, osoyishtalikni saqlash, avaylash va mustahkamlashga qaratmog'i muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun mamlakatimiz tinchligi va barqarorligiga tahdid solib turgan turli iqtisodiy siyosiy, ijtimoiy, madaniy va diniy omilar mavjud. Islom fundamentalizmining respublikamiz milliy xavfsizligiga solayotgan xavf-xatari qo'yidagi ko'rinishlarda namoyon bo'layotganini ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarni davlat siyosatiga bo'lган ishonchini yo'qqa chiqarishga urinmoqda. YAxshilik yo'lidagi o'zgarishlarning ustuvor shartlari bo'lган barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va

¹ Каримов.И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. –Т., Маънавият. 2008. -16 б.

millatlararo tinchlik va totuvlikni buzish yo'lidagi urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Aqidaparastlarning maqsadi demokratiyani, dunyoviy davlatni, ko'p millatli va ko'p dinli jamiyatni obro'sizlantirishdan iboratdir.

Ikkinchidan, fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchi fuqarolar avvalo o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishi mumkinligini anglashi lozim.

Uchinchidan, mamlakat aholisi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilikni keltirib chiqarishga urinmoqda. Masalan, bu urinishlar Jazoir va Afg'onistonda yuzaga kelayotgan millatlararo nizolarni keltirib chiqarayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

To'rtinchidan, O'zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo'shni mamlakatlarda fuqorolar urushi to'xtamay, davom etib kelayotganligida nomoyon bo'lmoqda va bu mamlakatimiz tinchligi va barqarorligiga tahdidlar saqlanib qolmoqda.

Beshinchidan, musulmon va nomusulmon mamlakatlarda, ayniqsa ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida ko'ngilnisovutadigan fikr tug'dirishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Oltinchidan, Islom sivilizasiyasi bilan islomiy bo'limgan sivilizasiyalar o'rtasida yangi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ettinchidan, ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va halqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishda universal vosita degan fikrni qaror toptirishga xarakatlarni ko'rishimiz mumkin.

G'arbdagi tadqiqotchilar va islomshunoslar orasida fundamentalizm jahon hamjamiyati uchun xavfli bo'limgan, aksariyat xollarda o'z davlatlariga qarshi qaratilgan yo'nalish degan qarash keng yoyilgan. Go'yo aqidaparastlar bu davlatlarni buzib, o'zлari xoxlagancha qayta qurib olishgach, jahon hamjamiyati bilan muloqat qilishga durustroq tayyor bo'lar emishlar.

Islom fundamentalizmining xavfi haqida fikr yuritar ekanmiz, nafaqat uning islom dini ichidagi sabablariga, balki uni keltirib chiqarayotgan,

rag'batlantirayotgan jihatlariga ham doimo e'tibor qaratishga majburmiz. Diniy fundamentalizmning har qanday ko'rinishlariga qarshi chiqayotgan jahondagi ta'sir doirasi keng va obro' e'tiborli kuchlar turli madaniyatlar hamda sivilizasiyalar yonma-yon yashashidan normal, teng va o'zaro foydali shart-sharoitlari uchun kurashda O'zbekistonning ahamiyatini anglab etmoqdalar.

Ma'naviy tarbiyada din arboblarini xissasi katta bo'lishi kerak. Ular islom qadriyatlari mag'zi bo'l mish ezgulik va poklikka chaqiruvchi o'gitlarni odamlar diliga etkazadi. Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalarni yig'indisi emas. Diniy ta'limotlarda bosqinchilik va odam o'ldirish qat'iy qoralanadi. Binobarin, gumanistik mohiyatga ega diniy aqidalar tinchlik, totuvlik va bag'rikenglikni yoqlaydi. Ana shu ma'rifatni fuqarolarimiz qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladi. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishiga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishiga harakat qiladilar. Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din doimo odamlarni o'zini-o'zi idora etishiga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonliklardan chetlanishni buyurgan. Uni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga ishontirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan. Mamlakatimiz mutafakkirlari Xoji Ahmad YAssaviy, Xoja Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalar ijodida insonparvarlik va tinchlikparvarlikni targ'ib qiluvchi ko'plab g'oyalarni uchratishimiz mumkin.

Prezident I. Karimovning qo'ydagи so'zlarini ham keltirsh o'rинli deb bildik: "Qadimiy Movarounnahr va Xuroson farzandlarining jahon ilmu ziyozi tarixiga zarvaraqlar ila bitilgan asarlari oz emas. Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Rudakiy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Bobur, Abdullo Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa yuzlab zotlarni jahon yaxshi biladi."¹

Asrlar davomida din odamlarni eng ulug' maqsadlar yo'lida birlashishga,

¹ И. Каримов "Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида" Тошкент: Ўзбекистон 2012 й. 250 – бет.

hamjihat bo'lishga undagan. Xalqimiz turmushida, hayotida katta o'rin tutgan. Demak, din xalq ma'naviyatini, ma'rifatini yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan. Bugungi davlatchiligidan haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni, eng avvalo ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz lozim. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarni tobora uyg'unlashtirib hayotga tadbiq etishda, bizni olimlarimiz hozirgi bosqichda har bir yigit-qizni ilm-ma'rifatli, diyonatli, yuksak ahloqli bo'lishi bilan birga zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirish lozim degan xulosaga kelmoqda. YOshlarimiz islomiy qadriyat bilan bir qatorda koinot siru asrorlarigacha bo'lgan dunyoviy bilimini ham teran o'rganishlari zarur.

Yana shuni eslatib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq din davlat ishlaridan ajralgan holda, bizning ko'pmillatli mamlakatimizda islom dini bilan barobar pravoslaviya, iudaizm, protestantizm, katolik, buddizm dini singari o'ndan ortiq boshqa konfessiyalar mutlaqo erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Qaysi dinga munosibligidan qat'iy nazar bu konfessiyani vakilini biz bilan birga O'zbekiston xalqi farovonligi uchun mehnat qilayotgani bizni mamnun etadi.

Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida, bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim. “Aslini olganda, axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas. Axloq - bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani”¹ deb ta'kidlaydi yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining asarida.

¹Каримов.И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. –Тошкент: Ўзбекистон. 1996. -39 б.

Amerikalik faylasuf va siyosatshunos olim Frencis Fukuyama o'zining "Tarix intihosi" nomli asarida totalitar tuzum va mafkuralar (bu o'rinda u fashizm, nasizm va kommunizmni nazarda tutadi) barham topgan sayin dunyo miqyosida liberal demokratianing obro'si e'tibori va ta'sir kuchi ortib borishini takidlab, bundan kiyin universal siyosiy boshqaruv sifatida to'liq g'alaba qozondi va bundan kiyin bunday tizimni ishlab chiqarishga zarurat qolmaydi degan xulosaga keladi. Biroq fukuyama tasavvuridagi davlat diniy, irqiy, madaniy va sinfiy tafovutlardan xoli allaqandpy tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha yo'lini tanlagan insoniyat global "ochiq jamiyat" (Karl Popper atamasi) asosida birlashgan hamda diniy, irqiy, milliy, madaniy va boshqa tafovutlardan xoli "dunyo fuqarolari" timsolida bundan buyon siyosiy masalalar emas, asosan texnologiyani takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, turli madaniyatlarning birxillashuvi muammolari bilan mashg'ul bo'ladi. Fukuyama nazarida liberal demokratiya jahondagi davlatlarda yakkayu yagona hukmron dunyoqarashga aylangach, insoniyatning "eskilik qoldiqlari" ni (ya'ni milliy ma'naviy meros, davlatchilik an'analari, alohida elat va guruhlarga xos urf-odat, qadriyatlar va xokazo) ildizi bilan qo'porib tashlashi qoladi xolos. Xullas, Fukuyama ta'biri bilan aytganda, rivojlangan G'arb mamlakatlari xalqlari "tarix intihosi"ga etib, ular uchun huzur halovatli hayot boshlandi. Ammo Fukuyama bu malakatlarni ichidan emirayotgan muammolar, jumladan, azaliy diniy va milliy qadriyatlar, oila institutining tanazzulga yuz tutayotganini, jamiyatda g'ayrima'naviy xulq-atvorning qaror topayotgani, shaxsning yolg'izlashuv fenonimi tobora yaqqol namoyon bo'layotganiga e'tibor qaratmaydi. Vaholanki, xolisona fikr yuritadigan ko'plab olimlarning ta'kidlashicha G'arb ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnologik jihatdan qanchalik taraqqiy etmasin u g'oyaviy mafkuraviy, ma'naviy madaniy jihatdan halokat yoqasiga borib qolgan.

Insoniyat Sharq va G'arbgan bo'lingan ijtimoiy madaniy tizim sifatida azaldan bir biriga teng, bir biriga bog'liq bo'lgan bir aylananing ikki qutbi tarzida shakllanib, rivojlanib kelgan. Qadim qadimdan ular o'rtasida o'ziga xos mehnat taqsimoti qaror topgan: G'arb asosan innovasion texnologiyalarga ixtisoslashgan

bo'lsa, Sharqda ma'naviy madaniy asos, azaliy qadriyatlar ustuvor bo'lib kelgan. Barcha buyuk jahon dirlari G'arbda emas, aynan Sharqda paydo bo'lgani bejiz emasdir. Shu ma'noda Sharq va G'arb o'rtaqidagi farqni inson miyasi o'ng va chap yarim sharlarining bir biridan farqlanishiga qiyoslash mumkin. Bu o'rinda mashhur faylasuf Karl Yaspersning quyidagi mulohazasiga qulq tutish o'rinnlidir. "Turli shakllarda – deb yozadi u, - azaliy qutblilik (dunyoning Sharq va G'arb qutblarga bo'linishi nazarda tutilmoqda) asrlar mobaynida saqlanib kelingan... yunonlar va forslar, rim imperiyasining G'arb va Sharq qismlarga bo'linishi, g'arbona va sharqona nasroniylik, g'arb olami va islom, Evropa va Osiyo, bir so'z bilan aytganda, bu bosqichma bosqich almashib kelayotgan ziddiyatning mazmun mohiyati shundan iborat"¹.

Fukuyama esa bunday ikki yoki bugungi kunda ayrimyapon, xitoy, rus va hindolimlari yoqlab chiqayotgan ko'p qutblilikni mutlaqo xazm qila olmaydi. Jahondagi barcha mamlakatlar xalqlari, qaysi tamaddun va madaniyatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, ertami kechmi, «yorug' istiqbol» ga etaklovchi eng mukammal siyosiy boshqaruva shakli - g'arb liberal demokratiyasini (albatta, Fukuyamaga uning amerikacha modeli afzalroq ekani ma'lum) muqarrar ravishda qabul qiladi va o'zlashtiradi, degan uzul kesil xulosaga keladi. Biziningcha olimning bu xulosasi ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan g'arb va sharq mamlakatlari jamoatchiligidagi ma'qul bo'lmasligi aniq. Xatto g'arb liberal demokratiysi, uning amerikacha modelini joriy etgan yaponiya ham o'ziga xos madaniyati, qadriyatları, davlatchilik an'anaları, ajdodları e'tiqodidan voz kechgani yo'q. Har xolda, aksariyat mutaxasislar zamonaviy yapon siyosiy madaniyati haqida so'z ketganda, uning sharqona an'anaviylik va g'arbona qadriyatlarining o'ta noyob mujassami va mushtarakligi timsoli sifatida baholamoqda. Fukuyama ta'kidlaganidek, an'naviy yapon madaniy qadriyatlarning g'arbona andozalarga singib ketishi haqida umuman so'z borayotgani yo'q. E'tiborli jihat shundaki, Hindiston, Tayvan, Janubiy Koreya va Malayziya kabi Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari Braziliya,

¹Қаранг: Ясперс К. Смысл и назначение истории. М., «Юнион», 1991., С 115-116.

Argentina, CHili singari Lotin Amerikasi mamlakatlari, xatto amerikaning biqinida meksika ham liberal demokratik qadriyatlarni o'ziga xos milliy xususiyatlar bilan uyg'un xolda joriy etishga intilmoqda. Bu davlatlarning birontasi ham o'z milliy qadriyatlardan voz kechish evaziga g'arb liberal demokratiyasiga singib ketishiga shoshilayotshgani yo'q. Shu ma'noda Fukuyama taklif etayotgan «yorug' istiqbol» aslida insoniyatning taraqqiyot yo'lidan chalg'itadigan yana bir utopiya bo'lib qoladi¹.

Bob buyicha xulosalar

Birinchi bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak shuni aytish mumkinki, axloqshunoslik fanidagi markaziy tamoyillaridan biri bo'lgan tinchlikparvarlik tamoyili haqidagi nazariy ishlanmalar, ilmiy izlanishlar hali etarli emas. Chunki Prezidentimiz I.A.Karimovning bir qator asarlarida yurt tinchligi g'oyasi usutvor qilib belgilangan. Tinchlikparvarlik tushunchasi, tamoyili va ma'naviy taraqqiyotda tinchlikparvar xalqning irodasi yuzasidan o'tkazgan tadqiqotmiz quyidagicha xulosa chiqarishga olib keldi:

birinchidan, tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir. O'zbek xalqi tinchlikni o'z orzu- intilishlari, maqsad muddaolari ro'yobga chiqishining sharti deb biladi. Shuning uchun ham doimo YAratgandan tinchlik va omonlik tilaydi;

ikkinchidan, Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy etukligi – yurt tinchligini saqlashning murim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan bu g'oya milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi;

¹Қаранг:Фрэнсис Фукуяма. Конец истории и последний человек. М., Аст, 2005.

uchinchidan, har bir inson uchun yurt tinchligi bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik va totuvlikka intilib kelgan. Shuning uchun ham barcha davrlarda tinchlikni saqlash va mustahkamlash umumbashariy muammo bo'lib kelgan. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari, avvalo tinch-totuvlik holatidagina ijobiy hal etilgan;

to'rtinchidan, hozirgi paytda islom sivilizasiyasi bilan islomiy bo'lмаган сivilizasiyalar o'rtasida yangi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi tartibdagi geosiyosat xalqaro tinchlikparvarlik ruhiga salabiy ta'sir ko'rsatib, tinchlikni asarb qolishni xavch ositiga solib qo'yemoqda;

beshinchidan, ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va halqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishda universal vosita degan fikrni qaror toptirishga xarakatlarni ko'rishimiz mumkin. G'arbdagi tadqiqotchilar va islomshunoslar orasida fundamentalizm jahon hamjamiyati uchun xavfli bo'lмаган, aksariyat xollarda o'z davlatlariga qarshi qaratilgan yo'naliш degan qarash keng yoyilgan. Go'yo aqidaparastlar bu davlatlarni buzib, o'zlari xoxlagancha qayta qurib olishgach, jahon hamjamiyati bilan muloqat qilishga durustroq tayyor bo'lar emishlar;

oltinchidan, O'zbek mahallalari yurtimizdagи tinchlik va osoyishtalikni saqlashda bizning tayanchimiz va suyanchimizdir. Bugungi kunda ming-minglab mahalla posbonlari «O'zingni, o'z uyingni o'zing asra» da'vati asosida o'z uylari, o'z mahallalarining xavfsizligini saqlayotgani muhim ahamiyatga ega. Yurt asoyishtaligini, aholi tinchligini saqlash faqat qurolli kuchlar va huquq-tartibot organlarining vazifasi emas. Bu har birimizning muqaddas burchimiz.

II-BOB.TINChLIKPARVARLIK – MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASH DAVRINING YuKSAK QADRIYaTI SIFATIDA

2.1. Tinchlikparvarlikning milliy va umuminsoniy qadriyatga aylanishi

Qadriyatlar insoniyat tarixi davomida shakllanadi, ularning miqdori va sifatini ortishi insoniyat taraqqiyoti qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi. Insoniyat boshidan o’tkazgan son sanoqsiz urushlar natijasida tinchlik ham umuminsoniy qadriyatga aylandi.

Odatda urush muayyan mamlakat doirasida yoki uning tashqarisida, turli davlatlar o’rtasidagi muammoli masalalarni hal qilishda siyosiy zo’ravonlik qilish yoxud uni istisno etishni bildiradi. Ana shunday kuchlar yozma tarixiy manbalarni guvohlik berishicha so’ngi 6 ming yil davomida sayyoramizning 15 mingdan ziyod urushga sabab bo’lgan. Insoniyat tarixi atigi 300 yilgina urushsiz o’tganligiga amin bo’lamiz.

Amerikalik olim R.Klarkning “Urush ilmi va tinchlik” nomli kitobida bayon etilgan ma’lumotlarga ko’ra turli davrlarda yuz bergan urushlar tahlili shundan dalolat beradiki, 1820-1859 yillarda er yuzida 1 milliard aholi yashagan bo’lib, ushbu yillarda 92 ta urush harakatlarida 80 million odam halok bo’lgan. 1860-1899 bo’lgan 106 ta urushda 1,3 million, 1900-1949 yillarda esa 117 ta urush 142,5 million kishi umriga zomin bo’ldi.

YUqoridagi dalillar ko’rsatib turibdiki, urush va qurbanlar soni aholining o’sishiga qaraganda tezroq ko’paygan. R.Klark kitobida yozilishicha urushlar va ularda halok bo’lgan qurbanlar sonining ortib borayotganligi natijasida shunday kun kelishi ehtimolki, unda sayyoramiz aholisining aksariyati qirilib ketishi mumkin. Hozirgi kunda halqaro munosabatlarda qudratli davlatlar geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishda zo’ravonlikka moyillik bildirmoqda. Bunda aksariyat rivojlangan davlatlar hali hanuzgacha yalpi qirg’in qurollarini ko’plab ishlab chiqarish bilan harbiy qudratga erishishni o’z tashqi strategiyasining mazmuniga aylantirmoqda. YAdroviy qurollarga ega bo’lgan davlatlar soni bugunga kelib ettitaga etdi. Bu esa yadro urushi havfini yuzaga keltiradi. Bilamizki, termoyadro urushlari butun insoniyatni qirilib ketishiga olib kelishi

mumkin. CHunonchi 1945 yil 6 va 9 avgustda kam quvvatli atom bombalaridan bir nechtasini Amerika harbiylari Xirosima va Nagasaki shaharlari ustida portlatilganligining mudhish oqibatlari ham buni yaqqol ko'rsatganligi hammaga ma'lum.

Butun insoniyat hamjamiyatida 60 yildan ziyodroq vaqt mobaynida tahdid solib turgan atom quroli dahshati ehtimol, matematikaning hozirgi muvaffaqiyatlardan foydalanib, modellashtirish qo'yidagicha manzarani gavdalantirmoqda:

1. Hozirgi davrda to'plangan 50 mingdan ziyod yadro zaryadlarini 100-150 mega tonna quvvatga ega bo'lgan qismi mabodo portlatilsa, Amerika, Evropa va Osiyodagi asosiy shaharlar yonib ketishi mumkin. Bir oydan so'ng Er ustidagi atmosfera harorati $15-20^{\circ}$ ga pasayib, uning serkulyasiyasi tubdan o'zgarishi mumkin;

2. Unda shimoliy yarim shardan Janubga tomon tarqaladigan nur o'tkazmaydigan qora qatlam butun Er yuzini qoplab olishi ehtimoli bor;

3. CHuchuk suvning hamma manbalari muzlashi butun ekologik kommunikasiyalar buzilishi, dehqonchilik hosillari emirilishi mumkin, bularsiz esa hayotda assimilyasiya va dissimilyasiya to'xtaydi, ya'ni u mangu yo'qoladi;

4 .Okeanlarda ham xuddi shunday hodisa yuz beradi, chunki suvda temperaturani tez o'tkazish xususiyati bor.

YUqoridagi va shular kabi salbiy omillar shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda jahonning etti davlat ega bo'lib turgan yadro quroli siyosat vositasigina bo'lib qolmasligi, balki insoniyatning o'z – o'zini halok etish quroli ekanligi shubhasizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Alovida g'urur va iftixor bilan ta'kidlab aytmoqchimanki, O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz, bu jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir", degan so'zlarida mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ana shunday ma'naviy – ruhiy birlik va yakdillik aks etgan.

Amerikalik olim S.Xantington o'zining "Sivilizasiyalar to'qnashushi" nomli kitobida o'zining milliy qadriyatlariga nisbatan sodiqlik va boshqa madaniyatlarni moslashtirib olishi (adaptasiya) sharofati bilan Osiyo XX asr boshidan G'arb mamlakatlari g'oyalarining import qilish uchun kurash maydoniga aylandi, deb ta'kidlaydi.

Respublikamizdagi barcha millat vakillarining ahil – inoq, do'st – birodar bo'lib bir – birlarining qadriyatlarni hurmat qilgan tarzda yashashlari mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Qadimdan o'zining mehmondo'stligi, ochiq ko'ngilligi, mehr – oqibati, tinchliksevarligi bilan tanilib kelgan xalqimizning ma'naviy – axloqiy qadriyatlarini tiklash, ularni yanada ravnaq toptirish – bugungi o'zgarib borayotgan kundagi asosiy va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugun dunyoda tinchlikni taminlashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli va ahamiyati katta. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, teng huquqlilik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida xalqlarning o'zлari belgilaganlaridek millatlar o'rtaсидаги do'stona aloqalarni rivojlantirish, millatlarning ushbu umumiyl maqsadlarga erishuvida hamkorlikdagi harakatlarning markazida bo'lish kabi maqsadlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsad vazifalaridan hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qo'yidagi tamoyillarga asoslanib ish olib boradi: U barcha mamlakatlarning suveren tengligiga asoslanadi. Ular o'zlarining xalqaro munozaralarini tinch yo'l bilan, xalqaro tinchlikka va xavfsizlikka, adolatga tahdid solmasdan hal qilishlari kerak¹. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleysi 2001 yil 7 sentyabrdagi rezolyusiyasida 2002 yildan boshlab Xalqaro Tinchlik kunini 21 sentyabrь kuni nishonlash taklifini kiritdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha davlat va xalqlarni ushbu kunda urushlarni to'xtatish hamda a'zo davlatlarni Xalqaro tinchlik kunini nishonlashni keng jamoatchilikga xabardor etishga chaqiradi. 1954 yilning iyunъ oyida Yaponiya Birlashgan

¹Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. Асосий омиллар. БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. Тошкент.5-б. 2001

Millatlar Tashkilotiga “Tinchlik qo’ng’irog’i”ni in’om etdi. U dunyoning 60 mamlakati bolalari tomonidan to’plangan tangalardan qayta quyilgan bo’lib, sarv daraxtiga biriktirilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining N’yu-Yorkdagi bosh qarorgohida joylashgan qo’ng’iroq 21 mart hamda 21 sentyabrъ kunlari bir yilda ikki marotaba chalinadi. Qo’ng’iroqda quyidagi yozuv bor: «Butun jahonda tinchlik barqaror bo’lsin». Mamlakatimizda Xalqaro Tinchlik kuni 2007 yildan beri nishonlanmoqda.

XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro’y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan, Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o’zgaribketdi. Sobiq Ittifoqning parchalanishi, uning hukmron mafkurasining barbod bo’lishiga olib keldi. Chunki kommunistik mafkura aynan biz yoritmoqchi bo’layotgan milliy manfaatlarni, milliy dunyoqarashni, tub aholi turmush tarzi qadriyatlar va an’analarini o’zida ifoda etolmagani uchun ham inqirozga uchradi.

Mustaqillik sharoitida esa millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolar, jug’rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlarimiz o’zgarmoqda. Globallashuv sharoitida vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tarixi, ularning kelibchiqishi, o’ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo’shnichilik munosabatlariga har qachongidan ham boshqacharoq qarashni taqozo etmoqda. Zero, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo’lgan, tarixan bir muhitda yashab, biroq, ayni paytda mustaqil davlat bo’lib yashayotgan mamlakatlar o’z tarixiy ildizlarini qidirib topishini, o’zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklashini hayotning o’zi zarurat darajasiga ko’tarmoqda.

XXI asrga kelib xalqaro munosabatlarda hududiy daxlsizlik tamoyilining mustahkamlanishi, ochiqdan-ochiq aggressiv harbiy harakatlarni olib borish ta’qiqliandi. O’zaro munosabatlarda tenglik, hurmat va manfaatli hamkorlik qilish qoidalari rasmiylashdi. Biroq, bu bilan ayrim davat va kuchlarda boshqa xalqlar, hududlar, ulardagi er osti va er usti boyliklar va boshqa resurslarni tasarruf etish mayli susaygani yo’q. Bu esa mustabidchilik mafkurasining yangi mazmundagi g’oyalar bilan boyishiga, zamonaviy shakllarda namoyon bo’lishiga olib keldi.

O'z navbatida, "urush" tushunchasining ham mazmuni kengayib bordi. V.Slipchenkoning fikriga ko'ra, bugungi kunga kelib, "... urush murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, turli ko'rinishdagi kurashlar majmuasini tashkil etadi. Davlatlar va turli sosial tizimlar o'rtasida kechadigan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, axborot va boshqa shakldagi kurashlar shular jumlasidandir"¹.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda davlatlararo mintaqaviy hamkorlik siyosiy va iqtisodiy mazmundan birmuncha boshqacharoq -ma'naviy-mafkuraviy mazmun kasb etmoqda. Bu hozirgi zamon jahon sivilizasiyasining eng ilg'or yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq, ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. Chunki bu hududda asrlar mobaynida ma'naviyat, din-axloq, ta'lim-tarbiya va madaniyat uyg'unholda turmush tarziga aylangan. Axloq har qanday sharoitda insoniylikning bosh tamoyili sifatida tan olingan. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro yordam, bozor munosabatlari, savdo-sotiq, mol ayriboshlash ham qadimdan yuksak odob va axloqqa tayangan ma'naviy-mafkuraviy munosabatlarning bir qismi hisoblangan. Ruhiy, ma'naviy yaqinlik umuminsoniy qadriyatlarning keskin rivojlanishiga asos bo'lgan.

Afsuski, sobiq SSSR hukmronligi paytida ongimiz va tushunchalarimizga chegara qo'yildi. Oqibatda sayoz fikrlarga berilib ketdik. YA'ni nima Qozog'istonnikiyu, nima O'zbekistonni? Kim qaerda tug'ilganu, qaysi tilda ijod qilgan? Endi u qaysi millatga mansub? Farobi y o'zbekmi, qozoq? Ibn Sino tojikmi, o'zbek? Bunday savollarga yillar davomida javob axtarildi. Bundan esa "ulug' og'achilik" siyosatini yurgizuvchilar foydalandi, xolos. Biz buni o'z vaqtida anglay olmadik.

Holbuki, qadimiylar madaniy meros – Markaziy Osiyo mintaqasida tarixan birga yashab kelgan va hozirgacha yashayotgan har bir millatning merosidir.

¹ Слипченко В. Война будущего (прогностический анализ). – М.: Глобус, 2001. – С. 5.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo respublikalari bilan do'stona, qardoshlik munosabatlarini mustahkamlash milliy g'oya bilan sug'orilgan davlatimiz tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'naliishlaridan eng muhimidir. Prezidentimiz, – “Ular bilan , – deb yozadi qalin ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish, ilmiy va madaniy hamkorlikni kengaytirish O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining g'oyat muhim ustuvor yo'naliishi hisoblanadi”¹.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining kelajagi, uning istiqboli Markaziy Osiyo xalqlarining taqdiri bilan chambarchas bog'liq. O'zbeklar Markaziy Osiyodagi eng ko'p sonli millat hisoblanadi.O'zbekistondan tashqarida etti millionga yaqin o'zbek yashaydi. SHulardan uch yarim millioni Markaziy Osiyoning sobiq sovet respublikalarida istiqomat qiladi. Turli baholashlarga ko'ra, Afg'onistonda 2,5 milliondan ziyod o'zbeklar yashaydi².

Xorijdagi o'zbeklar haqida turlicha ma'lumotlar bor. Farg'ona viloyatidagi “Vatan” jamiyati bo'limining 80-yillardagi ma'lumotlariga qaraganda, o'zbeklar Afg'onistonda 1,5 million, Turkiyada 20 ming, Pokiston va Hindistonda 6 ming, AQSH da 2 mingdan oshiq, Saudiya Arabiston va Misr Arab Respublikasida 37 ming, Xitoy Xalq jumhuriyatida 13 mingni tashkil qiladi. O'zbeklarning uncha ko'p bo'limgan guruhlari Germaniya, Gollandiya (47 kishi), Daniya (50 kishi)da mavjud degan ma'lumotlar berilgan³. Bu mamlakatlarning har biri o'zbeklar g'uj bo'lib yashaydigan muayyan hududlarga ega. E. Raximboboev bergen ma'lumotlarga qaraganda xorijda 3 millionga yaqin o'zbek bo'lib, shulardan 2 millioni o'zbekistonlik o'zbeklardir⁴.

Tojikistonda aholining 24,4 foizi, Qirg'izistonda – 13,8 foiz, Turkmanistonda – 9 foiz, Qozog'istonda – 2,5 foiz⁵ga yaqinini o'zbeklar tashkil etadi. Albatta, xorijda istiqomat qiluvchi o'zbek vatandoshlarimizning umumiyligi

¹Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: Ўзбекистон, 1996. 1-жилд. -Б. 83.

²Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. ЮНЕСКО қатнашуви дастури доирасида чоп этилган. – Т.: ЖИДУ, 2005.. – Б. 30.

³Хайитов Ш.А., Собиров Н.С., Легай А.С. Хориждаги ўзбеклар. – Т.: Фан, 1992. – Б. 19.

⁴Рахимбобоев Э. Ватан, ватанпарварлар, ватанжудо // Халқ сўзи. – Тошкент, 1991. 17 январь.

⁵Туленов Ж., Фофуров З. Миллатлараро ҳамжихатлик давлатимиз бойлиги. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 18.

soni masalasi o'zgaruvchan va hali to'la oxirigacha echilgan masala deb bo'lmaydi. Lekin shunga qaramay bugungi O'zbekiston hududida yashayotgan bir milliondan ortik qozoklar uchun O'zbekiston Respublikasi ham tarixiy, ham asl Vatandir. YOKi bo'lmasa respublikamiz aholisining 3,8 foizini tashkil etuvchi tojiklar¹ uchun ham O'zbekiston Respublikasi ham tarixiy, ham asl Vatandir. "Turkiy tilli davlatlar jahon hamjamiyatining tabiiy va faol birqismi bo'lib, ularning eshigi tinchlik va taraqqiyot manfaatlari yo'lidaboshqa barcha mamlakatlar bilan o'zaro foydali, samarali hamkorlik qilishuchun ochiq ekanini alohida qayd etishni istardim", – deb ta'kidlaydi Prezident².

Darhaqiqat, biz kishilarimizning tafakkur tarzi, bugunimiz va kelajagimiz istiqboli ko'p hollarda xalqimizning jahonning madaniy xazinasiga qo'shgan ma'naviy qadriyatlarining tarixiy mohiyatini anglash vachuqur idrok etish bilan belgilanishini unutmasligimiz lozim.Turkiston xalqlarida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniyfazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasito'planmaguncha ovqat emay turish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish,ularga har doim iltifot ko'rsatish, mahalladoshlarga, kattayukichikkayordamni ayamaslik, andisha, uyat, odob-axloq – bularning hammasi xalqimizda chinakam e'zozlanadi. Xalqimizning hozirgi milliy-axloqiy qadriyatları tizimiga: do'stlik, insonparvarlik, mardlik, mehmondo'stlik, bolajonlik, or-nomus, milliy g'urur, vazminlik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik singari fazilatlar kiradi. Axloq va odob borasidagi milliy qadriyatlarning o'zaro birlashib,yaqinlashib borishi taraqqiyot qonunidir. Lekin har bir millatning o'zigagina xos bo'lган ijtimoiy, ma'naviy, milliy axloqiy qadriyatlari butunlay birlashib, uyg'unlashib ketmaydi. O'z milliy qadriyatlarni chuqurbilgan odamgina boshqa xalqlarning madaniy merosini o'rganishga ehtiyoj sezadi va qadriga etadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining merosida mintqa xalqlariga sharqona axloq va odobga asos bo'lgan ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlар haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar

¹Жўраев Н., Иброхимов А., Султонов Х. Ватан туйғуси. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.144.

²Каримов И.А. Туркий тилли давлатлар бошлиқлари бешинчи учрашувда сўзлаган нутқи // Бизкелажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. 1998, 9 июнь. – Т.: Ўзбекистон, 1999. 7-жилд. – Б. 81.

davrida ilm-fan, ma'rifat, me'morchilik va milliy san'at turlari yuksak darajada rivojlangan. Dunyodagi yirik davlatlarning hukmdorlari Samarcandga o'z elchilarini yuborishga intilar edilar. Sohibqironning Fransiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o'nlab qo'shnidavlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o'sha davrdagi jo'shqin siyosiy, madaniy va tijoriy aloqalardan guvohlik beradi. Masalan, G'arb temurshunos olimi, angliyalik tadqiqotchi Xiloda Xukxem Amir Temur to'g'risida: "Hozirgi zamon tarixi Amir Temurning buyuk shaxsiga etarli e'tibor bermadi. U Osiyoda turk-islam yuksalishiga asos soldi. Tarix uning ilmu amali bilan tenglashadigan boshqa bir muqobil hodisani bilmaydi. Markaziy Osiyoda birorta sulola o'zidan so'ng bunchalik boy meros qoldirgan emas... Amir Temur xalqlar o'rtasida o'zaro aloqalarini kuchaytirgan, savdo-sotiqni rivojlantirgan, Movarounnahrda madaniyat va san'atning gullab-yashnashiga homiylik qilgan",¹ – deb ta'kidlaydi.

Lekin turli shakllarda 130 yildan ortiq davom etgan mustamlaka davri mamlakatimizning tashqi aloqalarini uzib qo'ydi. Xorij bilan barcha munosabatlar istilochilarning nazorati va ruxsati bilan amalga oshirilar edi. Bir paytlar dunyoga dong taratgan o'l kamiz chekka bir viloyat darajasiga tushirib qo'yildi. SHO'rolar davrida xo'ja ko'rsinga chetga chiqarilgan bir-ikki diplomat hamda vazifasi oliy martabali xorijliklarni mehmon qilishdan iborat bo'lgan. Tashqi ishlar vazirligidan boshqa hech narsa yo'q edi.

Q.Xonazarov bu borada: "Mustaqil O'zbekistonning diplomatiya sohasidagi ilk qadamlari, uning tinchlik va barqarorlik ishiga qo'shgan ulushi haqida endigina ayrim kitoblar, to'plamlar, risolalar va maqolalar paydo bo'lmoqda. Bu borada muayyan yutuqlar va muvaffaqiyatlar qayd etilsa-da, ularni etarli, deya olmaymiz. Diplomatiyamiz tarixi va faoliyat tamoyillarini ishlashdagi kamchiliklarning asosiy sabablaridan biribizning ongimizda o'tmish qoldirgan siyosiy masalalarni tadqiq etishda jur'atsizlik...",² – deya juda haqqoniy fikr bildirgan. Q.Xonazarovning fikrlarini davom ettirib, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligining samarali ishlashi uchun to'siq bo'layotgan sabablar haqida N.Jo'raev "birinchidan, etmish

¹Иброҳимов А. Марказий Осиё ҳамкорлигининг маънавий асослари. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 32.
²97 Хоназаров Қ. Мустақиллик ва дипломатия фалсафаси // Мулоқот, – Тошкент, 2004. – № 3. – Б. 7.

yillik yaqin o'tmishda shakllangan soxta millatparvarlik hissiyoti, aholi bir qismi tushunchasi va dunyoqarashining ma'lum darajada cheklanganligi, mintaqaviy hamkorlik mazmun-mohiyatini to'la va chuqr tushuna olmayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatlarimizning o'zaro yaqinlashuvidan tahlikaga tushayotgank uchlarning mavjudligidir”¹, – deb ta'kidlaydi.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq bevosita mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda og'ishmay amalga oshirila boshladi. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlarining bugungi globallashuv jarayonida qo'shni davlatlar bilan savdo, madaniy munosabatlarini yaxshi yo'lga qo'yish orqali xalqlar, mamlakatlar o'rtaida do'stona aloqalar mustahkamlanmoqda. Shuning uchun ham CHingiz Aytmatov “Qarshimizda buyuk tarixiy qudrat namoyondirki, uning Markaziy Osiyo davlatlari uchun dolzarb qudrat –ehtiyoj ekani kundek ravshan”² deb ta'kidlaydi.

“Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tiborberilishi kerak. SHu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishijahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralibqolishi mumkin emas”³, – deb ta'kidlaydi Prezident I.Karimov. Alohida e'tibor berish kerakki, mustaqillikka erishgan mamlakatlarning hech birida madaniyat, ma'rifat va mafkuraga O'zbekistondagichalik katta e'tibor berilmayapti. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan turli sohalardagi tub islohotlar, eng avvalo, ma'naviy-mafkuraviy zaminga asoslangan holda yuksak madaniyat talablariga mosravishda olib borilmoqda. Prezident I.A.Karimov mamlakat kuch-qudratini xalqning ma'naviy-madaniy kamolotida ko'radi. U jamiki insoniy fazilatlarni takomillashtirish uchun zarur sharoit yaratish vazifasini qo'ymoqda. Bu aslida davlat tashqi siyosatining nechog'lik insonparvarligini ko'rsatadi. Insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash bilan birga zamon talablariga mos

¹98 Жўраев Н.Қ. Агар огох сен...Портретга чизгилар. Т.: Ёзувчи, 1998. – Б. 112.

²Марказий Осиё маданияти. – Тошкент, 1997 йил 7 апрел. – Б. 32.

³100 Каримов И.А. Ўзбекистон ўз истиқлол ва тараққиёт йўли // Ўзбекистон буюк келажак.сари. – Т.:Ўзбекистон. 1998. – Б. 62.

ravishda takomillashtirib borish - taraqqiyot mezoni, milliy ravnaq asosi. Shuning uchun Yurtboshimiz: “Mustaqil O’zbekistonning kuch-qudrat manbai, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir”, – deb ta’kilaydi.

Odamlarning xatti-harakati, voqelikka va har qanday yangilikka munosabati, eng avvalo yuksak axloq-odob, sharqona vazminlik, eng qiyin va murakkab sharoitlarda ham turli shaxsiy manfaatlarni umumdavlat va umumxalq manfaatlarini ustun qo'yish, jamoa bo'lib yashash kabi insoniy fazilatlarga qaratilgan. Ushbu milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilmoqda. Natijada turli millat va aqidalarga ega bo'lgan ko'pmillatli mamlakatda millatlararo totuvlik to'la ta'min etilmoqda. Endi inson qaysidir millatga mansubligidan ko'ra, ko'proq qaysi mamlakat fuqarosi ekanligi, qanday tarixiy tajriba va an'analarga vorisligi bilan faxrlanadigan bo'lmoqda.

- BMT ishtirokida Markaziy Osiyo tinchilikparvar batalonini tuzish;
- uch davlat Mudofaa vazirlari kengashini tashkil qilish;
- Markaziy Osiyo parlamentini tuzish.

1997 yil may oyida beshta prezident Markaziy Osiyoni yadroviy quroldan xoli hudud deb e'lon qildi va 1998 yilni Markaziy Osiyoda atrof-muhitni himoya qilish yili deb e'lon qilindi. Ushbu ziddiyatli holatlar 1999, 2000, 2001 yillar oqibatida vujudga keldi¹.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mavjud gaz, elektr energiyasi, suv va boshqa masalalar bo'yicha ziddiyatlar bo'lsa-da, unutmaslik kerakki, aynan shu narsa integrasiyani taqozo etadi. Zotan, Jan Jak Russo fikri bilanaytganda, davlatlar hech bo'limganda bir kunga birlashishlari lozim va ular o'zлari (xalqlari) ko'rishi mumkin bo'lgan foydani anglab, bilib ular hech qachon ajralmaydilar. Ana shu holatning o'zi integrasiyalashuv jarayonining asosini tashkil etadi. Biz, milliy manfaatlarning milliy mafkuraning shakllantirishidagi o'rmini aniqlab olishimiz kerak. Milliy mafkuraning eng oliy maqsadi milliy kuchga murojaat qilgan holda mamlakatning muhim milliy manfaatlarini himoya qilishdir.

¹Толипов Ф.Ф. Большая стратегия Узбекистана в контексте геополитической и идеологической трансформации Центральной Азии. – Т.: Фан, 2005. – С. 90.

Shuning uchun ham ular bir-birini to’ldirib turadi deyish mumkin. Shunday ekan, milliy mafkura millatning ruhini mustahkamlashda muhim rol uynaydi, degan xulosaga kelsa bo’ladi. Aynan millatning o’z taqdirini o’zi belgilashi, rivojlanishi muammolarining nazariy aspektlari juda qiyin va turli yondashuv asosida turlicha echiladi. U suverenitet, xavfsizlik, tarix, taraqqiyot kabi fundamental savollarga murojaat qilishni talab qiladi. Milliy mafkuraning birinchi vazifasi esa ushbu fundamental savollarga javob berishdan iborat. Davlat qanchalik kuchli bo’lsa, shunchalik muhim milliy manfaatlarni himoya qila oladi. Bu masalani echishda esa davlat ma’lum darajada milliy mafkuraga asoslanib ish yuritadi, sababi milliy mafkuraning o’zi millatning ruhi, ongi, birligiga asoslanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o’z mustaqilligini qo’lga kiritib, taraqqiyot sari qadam tashlayotgan globallashuv sharoitida jahondagi ma'lumbir siyosiy kuchlar, mafkuraviy poligonlar, ulkan iqtisodiy salohiyat vaqulay geosiyosiy mavqega ega bo’lgan davlatlar bu mintaqani o’z manfaatlari doirasiga tortishga harakat qilishmoqda. Ular o’z maqsadlariga erishish uchun ta’sir va bosim o’tkazishning turli shakllarini qo’llamoqdalar.

Markaziy Osiyo davlatlarining hukumatlari milliy va mintaqaviy muammolarni bartaraf etish maqsadida integrasiyalashuvi faqatgina tor iqtisodiy manfaatlар asosida bo’lishi kerak emas. Chunki terrorizm, diniy ekstremizm va uyushgan jinoyatchilik, Orolni asrash, chegaralar bo’ylab o’tgan daryo suvidan oqilona foydalanish, yadroviy quroldan holi hududni vujudgakeltirish borasidagi umumiy manfaatlар mintaqaviy xamkorlikka undamoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash, ularning bu yo’ldagi sa’y-harakatlari, imkoniyatlari va salohiyatlarini birlashtirish ayniqsa muhimdir. “Eng muhim vazifalarni, – deb aytgan edi I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Oliy Kengashning XSH sessiyasi da so’zlagan nutqida, – birgalikda kuch-g’ayrat sarflab hal qilamiz”¹.

¹ И.А.Каримов. Биздан Озод ва обод Ватан қолсин. – Т.: Ўзбекистон, 1996. 158.6.

Ana shu xulosaning o'zi yosh mustaqil davlatsiyosatining strategik rejasidan dalolat edi. Umuman, Prezident I.Karimov siyosatida mintaqaviy muammolar, o'zmamlakati taqdirini yaqin qo'shni mamlakatlar taqdiri bilan birga hamda mintaqalararo muammolarni umuminsoniy qadriyatlarga suyangan holda birgalikda hal qilish masalalari alohida o'rinni tutadi.

Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligidagi uyg'unlashuvini harakatga keltiruvchi bir qator omillar mavjud:

- Sovet Ittifoqining barbod bo'lishi bilan mintaqada yangi geosiyosiy vaziyat vujudga keldi;
- Mintaqadagi xalqlarning milliy o'ziga xosligi, urf-odat va an'analarining mushtarakligi;
- Mintaqada shakllangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvolning deyarli bir xilligi;
- Tarixiy birlik, milliy qadriyatlar, din, axloq, madaniyat va ma'naviy-mafkuraviy tamoyillar;
- Mintaqada tinchlik, xalqaro xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash va giyohvandlikka qarshi kurashzarurati. Mintaqada mamlakatlaridagi milliy o'ziga xoslik oxir-oqibatda barchaxalqlarni jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zolariga aylantiradi.

Har bir millatning o'ziga xos fazilatlari kamol topishi uchun imkon yaratadi. Hozirda BMTga jahonning 189 davlati a'zo bo'lib kirgan, ularning har biri bir-biriga o'xshamagan milliy jihatlar va qadriyatlarga ega.

SHu bilan birga, milliy madaniyatlarning bari umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Bu qadriyatlar markazida esa inson, uning erki, qadri, ma'naviy go'zalligi, milliy g'oya bilan sug'orilgan aqli turadi. Aynan umuminsoniy qadriyatlar milliy ma'naviyat bilan uyg'unlikda xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy birlikka, hamkorlikka chorlaydi. Umuminsoniy qadriyatlar aynan milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holdagini namoyon bo'la oladi.

2.2. O’zbekistonning “Mustaqillik deklarasiyasi”da tinchlikparvarlik tamoyilining inikosi

Mustaqillik -(arab. tobe emaslik, ixtiyori o’zidalik, qaram emaslik) – insonning erkin va ozod ravishda, o’z ixtiyori bilan boshqalarga bo’ysunmasdan ish yurita olishi, millat, davlat va jamiyat hayoti, ularning taraqqiyotini, ustuvor maqsad va vazifalarini mustaqil tarzda amalga oshirishilini anglatadi. Mustaqillik barcha jabhalardagi har qanday kamsitish, tobekni inkor etadi, o’zaro hurmat, bir-birini qadrlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanib ish ko’rish, keng dunyoqarash va erkin tafakkur asosida yashash, fikrlash, o’z hayotini emin-erkin o’zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi. Mustaqillik har bir xalqning, millatning, har bir fuqaroning o’z iste’dodi va imkoniyatlarini erkin tarzda namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo’l ochadi. Mustaqillik shaxs, oila, guruh, jamoa, millat, hudud, davlat, umuminsoniyatga mansub darajalarga bo’linadi. XVIII-XX asrlar insoniyat tarixida mustamlakachilar asoratiga tushib qolgan xalqlarning mustaqil davlatlar tuzish uchun kurashlari davri bo’ldi. SHimoliy Amerika aholisining mustaqillik uchun kurashi 1776 yilning iyulida “Mustaqillik deklarasiyasi”ni qabul qilish bilan yakunlandi. XVIII asrning 90-yillaridan boshlab XIX asrning birinchi choragigacha bo’lgan davrda Lotin Amerikasi xalqlari ispan, portugal, fransuz mustamlakachilariga qarshi kurashib, birin-ketin o’zlarining mustaqil davlatlarini barpo etdi. 1830 yilda YUnioniston usmonli turklar imperiyasidan ajralib, o’z Mustaqiligiga erishdi. XVIII-XIX asrlarda dunyoning qariyb yarmini o’z mustamlakalariga aylantirgan Buyuk Britaniya istibdodiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida 1876 yilda Kanada, 1901 yilda Avstraliya, 1910 yilda Janubiy Afrika, 1921 yilda Irlandiya, 1947 yilda Hindiston va Pokiston xalqlari o’z Mustaqillikini qo’lga kiritdi. Jahon tarixida 1917 yilda paydo bo’lib, zo’ravonlik tizimini yuzaga keltirgan sobiq ittifoq 1991 yilgacha saqlanib keldi. SHu yili xalqimizning azaliy orzusi ushaldi: 1991 yilda O’zbekistonn o’z mustaqilligini qo’lga kiritdi va milliy davlatchilagini tikladi.

Mustaqillik xalqimizning irodasi, o’zbek. millati haq-huquqi, uning sivilizasiyaga qo’shgan va qo’shayotgan betakror hissasini jahon hamjamiyati

tomonidan e'tirof etilishi hamdir. U bizni jahonning erkin mamlakatlari qatoridan munosib o'ren egallahsga, bozor iqtisodiyotiga asoslangan, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishga, xalqimizning moddiy, madaniy va ma'naviy salohiyatini mustahkamlashga, yurtimiz shon-shuhratini dunyoga yoyishga imkoniyatlar yaratuvchi eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillik mamlakat siyosiy tizimida salmoqli va jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Xalqimiz tarixida birinchi bor haqiqiy mustaqil davlatga xos yuksak demokratik talablariga monand Asosiy qonun – Konstitusiya va shu asosda ko'plab qonunlar qabul qilindi va amaliyotga tatbiq etildi. Ko'ppartiyaviylik asosida O'zbekiston parlamenti shakllantirildi, davlat va jamiyat hayotining muhim huquqiy poydevori yaratildi. Mustaqillik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish imkonini yaratdi. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarning erkinlashtirilishi tufayli mamlakatimizda bozor munosabatlari bosqichma-bosqich amalga oshirila boshladi. Mustaqillik tufayli mulkka egalik va uning huquqiy asoslari shakllantirildi va chuqur isloh qilindi. Mustaqillik xalqimizni mamlakatimiz hududidagi tabiiy resurs va boyliklarining haqiqiy egasiga aylantirdi. Xalqimizning azaliy hayot tarzidan chuqur o'ren olgan urf-odatlari, an'analar, bayramlari Mustaqillik tufayli qayta jonlandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ma'naviy merosimizning durdonalari ona tilimizda nashr etila boshlandi. Xalqimizning tarixi qayta tiklanib, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy va beba ho meros nafaqat xalqimiz, balki o'zga xalqlar tomonidan ham keng o'rganila boshlandi, o'zligimizni anglash va jahon afkor ommasiga tanitish yo'lida ulkan qadamlar qo'yildi. Mustaqillik yillarida yurtimizda milliy va diniy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelindi. 1 sentyabr yurtimiz, xalqimizning Mustaqillik kuni bayrami deb e'lon qilinmoqda. Shuningdek "Navro'z", "Ramazon hayiti", "Qurban hayiti" kabi milliy va diniy bayramlarimiz an'anaviy tarzda nishonlanib kelinmoqda. Mustaqillik tufayli O'zbekistonni dunyo tanidi va o'z navbatida mamlakatimiz dunyo mamlakatlari tomonidan mustaqil davlat sifatida tan olindi. Har bir millat va elat, etnik guruhlar, ularning urf-odat va an'analar hurmat qilinishi sababli yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar teng

huquqlik asosda umrguzaronlik qilmoqda. Mustaqillik sharofati bilan Yurtboshimiz rahbarligida O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li tanlandi, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tilmoqda; istiqlol ma'naviyatini shakllantirish va sog'lom avlodni voyaga etkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik davrida O'zbekiston BMTga (1992 yil 2 mart), Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi o'nlab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi, deyarli barcha nufuzli mintaqaviy uyushmalarga qabul qilindi, dunyodagi ko'plab davlatlar (130 dan ortiq) bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi, o'zaro hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yildi. Mustaqillik davrida mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, dunyo va mintaqa davlatlari o'rtasida tinchlikparvar tashqi siyosat yuritilmoqda. Mustaqillik yillari ulkan qurilishlar va bunyodkorlik ishlari uchun keng va katta imkoniyatlar davri bo'ldi¹.

Mustaqillik birinchidan, tazyiqdan, nazoratdan xoli bo'lish, erkinlik; ikkinchidan, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy tobe bo'lmaslik. O'zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqlol so'zi bilan yaqin ma'noda qo'llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi. Mamlakatimiz 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida "Mustaqillik Deklarasiyasi" qabul qilingan. Unda o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi, tajribasi, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash asosida respublikasimizning davlat Mustaqillikni e'lon qilindi. Oliy Kengashning 1991 yil 31 avgustda navbatdan tashqari VI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Bayonot" berildi. Mustaqillik yillarida shakllanish yo'liga kirgan milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini milliy o'zligimizni o'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizasiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyat parvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Uning vositasida har bir davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga

¹ Қаранг: Маънавият асосий тушунчалар изохли луғати // К.Назаров таҳрири остида. Тошкент: Фофур Ўулом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 293.

javob topa oladi. Mamlakatimiz Mustaqillikning bugungi bosh strategik maqsadi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bunda quyidagi bir qator sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy sohada barcha soha va tarmoqlarda erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish o'zgarishlarining asosiy yo'naliшlaridir.

Siyosiy sohada jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bu boradagi islohotlarning eng asosiy yo'naliшlaridir.

Ijtimoiy sohada jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo'lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish asosiy tamoyillardan biri bo'lib qolaveradi.

Ma'naviy sohada ilm-fan yutuqlarini amaliy ishlar bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi vva ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirishga, ulardan sisyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik asosiy vazifalardir.

Mustaqillik nafaqat jamiyat va davlat hayotining asosiy mezoni, balki har bir inson fuqaro umrining mazmunini ham belgilaydi. ana shu ma'noda u nafaqat imkoniyat balki yuksak mas'uliyatdir.

Mustaqillik erkin va ozod ravishda, boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish. Mustaqillik barcha jabhalardagi munosabatlarni me'yor-mezonga soladi, har qanday kamsitish, tobelikni inkor etadi. Mustaqillik — o'zaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, milliy va bashariy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish, keng dunyoqarash va erkin tafakkurga tayanib yashash, fikrlash, o'z hayotini o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi. Mustaqillik har bir xalqning, millatning, har

bir fuqaroning o’z iste’dodini namoyon etishi uchun zarur shart – sharoitlarni yaratishga yo’l ochadi.

Mustaqillik deganda, an’anaviy ravishda davlat mustaqilligi tushuniladi. Mustaqillik xalqimizning irodasi, o’zbek millatining haq-huquqini, uning jahon sivilizasiyasiga qo’shgan va qo’shayotgan betakror hissasini jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi vositasi hamdir.

Mustaqillik bizni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o’rin egallahsga, bozoriqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishga, xalqimiz salohiyatini mustahkamlashga, yurtimizshon – shuhratini dunyoga yoyishga da’vat etadi.

Mustaqillik deklarasiyasi O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Oliy Soveti davlatining ilk qonuniy asosi sifatida unda qo’yidagi tinchlikparvarlik g’oyalari mujassamlashgan:

O’zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an’analari, urf o’datlari, har bir millatning o’z takdirini o’zi belgilash huquqini ta’minlashdan iborat oliy maqsad haqi, har bir kishining farovon hayot kechirishini ta’minlashni oliy maqsad deb bilgan holda, O’zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy axloqiy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining Davlat mustaqilligini e’lon qiladi. Bu tarixiy hujjat tom ma’noda milliy davlatchiligidizning mustaqilligini ta’minlash yo’lidagi ilk qonuniy asos sifatida vujudga kelganligi va unda davlatimizning tinchlik va osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgan maqsad va ma’no inikosini topgan.

Mustaqillik Deklarasiyasidagi birinchi moddada O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining demokratik davlat mustaqilligi Respublikaning o’z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir. Bundan mamlakat o’z taqdirini o’zi belgilash huquqini qo’lga kiritilganini guvohi bo’lishimiz mumkin

Ikkinchı moddada O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo’yilmay turib, o’zgartirilishi mumkin emas. Demak davlat ahamiyatiga moltik masalalar xalq muhokamasidan kiyingga amalga oshirilishi mumkinligi tom ma’nodagi ichki va tashqi suverinetetni ifodalaydi.

Uchinchi moddada O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasida davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo’linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir deb mustahkamlangan va bu sobiq ittifoq davridagi barcha davlat hokimiyatlari endi mustaqil O’zbekiston Respublikasiga bo’ysunishini talab etadi va boshqa davlatlarning Respublika ichki va tashqi ishlariga aralashishiga yo’l qo’ymaydi.

Beshinchi moddada O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi davlat hokimiyati vakolatiga O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kirishi mamlakat milliy taraqqiyot yo’lini tanlashi va bu yo’ldagi tinchlikni ta’minlashni davlat o’zi nazorat etishini ta’minlaydi.

Deklarasiyaning beshinchi moddasiga binoan O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi deyiladi va bu bilan O’zbekiston xalqaro huquqning to’laqonli subъekti sifatida jahon hamjamiyati oldida barcha masalalarni xalqaro huquqning tamoyillaridan kelib chiqqan holda hal etish tashabbusini bildirayotganini ko’rishimiz mumkin.

Ettinchi moddada O’zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan o’zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshirishi va mintaqadagi tinchlikni ta’minlash yuzasidan turli tashkilotlaaro hamkorlik masalalarini o’zi belgilashini e’tirof etishi ta’kidlanadi.

Sakkizinchi moddada mustaqil davlatning asosiy belgilari, O’zbekiston Respublikasi o’zining taraqqiyot yo’lini, o’z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o’zi ta’sis etadi deya mustahkamlangan va bu mustaqil davlatga xos bo’lgan asosiy jihatlardan biri hisoblanadi.

Deklarasiyaning o'ninchi moddasi bevosita O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi, O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilashi haqida bo'lib mustaqillikni mustahkamlash va tinchlikni ta'minlash yo'lida zaruriy chora tadbirlar va qonunlar qabul qilishini nazarda tutilgan.

O'nbirinchi moddada O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasida yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy, siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquklariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik beradi. Bu bilan barcha millatlar va elatlarni tinch - totuvlikda yashashi davlat tomonilan kafolatlanishini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu Deklarasiya O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining yangi Konstitusiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir. Mustaqillik Deklarasiyasini O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990 yil 20 iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasida qabul qilingan. Va mustaqillikning daslabki huquqiy asosi sifatida tan olingan bo'lib unda mamlakat tinchligini ta'minlashga oid birqancha g'oyalar mujassamlashgan.

2.3. O'zbekistonda barqaror taraqqiyotning tinchlikparvarlik tamoyili bilan bog'liqligi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon o'tgan tarixan qisqa davr ichida dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'mini egalladi. "Demokratik islohotlar uchun jamiyatning barqarorligi va davlatning xavfsizligi hayotiy zaruriyatdir. Bularsiz boshqa masalalarni amalda hal qilish mumkin emas. O'zbekiston barcha mintaqalarda va avvalambor, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun qat'iyat va izchillik bilan harakat qilmoqda. Mintaqamizning xususiyati, uning jug'rofiy-siyosiy mavqeい shundayki,

voqealarning salbiy rivojlanishi oqibatida u butun dunyoda beqarorlikning katta manbalaridan biri bo'lib qolishi mumkin. Chunki, Markaziy Osiyoda har xil etnik va diniy guruhlarga mansub bo'lgan 60 milliondan ziyod aholi yashaydi. Bu erda yadro quroli shuningdek katta vayronagarchilik kuchiga ega bo'lgan oddiy qurol yarog'lar to'plangan. Ushbu mintaqadagi to'qnashuvlar oldindan aytib bo'lmaydigan miqyosdagi falokatlarni keltirib chiqara oladi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Birlashgan Millatar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48 sessiyasida so'zlagan nutqida aytgan bu so'zlarga qo'shilmaslik mumkin emas. Uchinchi ming yillikda xavfsizlik muammosi o'zining dolzarbligini zarracha bo'lsada yo'qotmadi. Aksincha, u yanada jiddiylashib bormoqda¹.

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridanoq dunyoda tinchlik, mintaqada qurolsizlanish, xususan Afg'oniston muammosini xalqaro insonparvarlik huquqi bo'yicha, Sharqona murosa talab va tamoyillari asosida hal qilish borasida bir nechta takliflar va tashabbuslar bilan chiqqanligi ma'lum. Masalan 2007 yil 16 avgustda SHanxay Hamkorlik Tashkiloti davlat rahbarlari kengashining navbatdagi uchrashuvida bu haqda alohida taklif O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surildi. Mazkur kengashda yurtboshimiz I. Karimov shunday degan edi: "Bizningcha, g'ayritabiyyoq tuyulsada, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishish yo'lini harbiylashtirish va kuch ishlatish ko'lmini yanada kengaytirishdan emas, balki qurolsizlanish va jahon hamjamiyati yordamida loyihalarni amalga oshirish, keskin ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni hal etish, mamlakat aholisini qo'llab – quvvatlashdan izlash kerak. Albatta, bu borada Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va mamlakatni qayta tiklashdan amalda manfaatdor bo'lgan barcha kuchlar o'rtaida murosa hamda ularning hamjihatlikdagi harakatiga erishish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi"². Darhaqiqat, XXI asr – globallashuv

¹ М.С.Гафарли. А.Ч.Касаев Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик –тараккиёт асоси. Т.: Ўзбекистон, 2001., 133 б.

² Каримов И.А. Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти давлат раҳбарлари кенгашининг кенгайтирилган таркибидағи мажлисдасўзлаган нутқ.|\Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чукурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизни ҳаёт даражасини ошириш-барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15.-Т.: «Ўзбекистон», 2007. 290-б.

jarayonlarida murosa kelishuv hayotimiz, turmush tarzimiz, tinchlik va barqarorligimizning bosh strategik vazifasi bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning jahondagi obro' – e'tibori yuksalib borayotgani, eng avvalo, yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobjiy o'zgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo'lmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov ta'biri bilan aytganda “Biz o'z xalqimizning, O'zbekistonda yashayotgan barcha aholining tub manfaatlari, tinchligi osoyishtaligini hisobga olgan holdagina yangi siyosatni qo'llashimiz mumkin. Bizga tinchlik va osoyishtalik kerak. Biz har bir oilani tinch – totuv yashashi tarafdomiz va shunga intilayotgan siyosatni qo'llab quvvatlaymiz”.¹

Yangi ming yillikda butun ma'rifatli dunyo o'z taraqqiyot istiqbollari strategiyasini belgilab olmoqda ekan, bizning davlatimizda ham mamlakatimizning rivojlanishi strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasida ustuvor yunalishlarni belgilab olindi. Mamalakat iqtisodiy, siyosiy hayotidagi ustivor yo'nalishlar bilan birga, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarxadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat. SHu munosabat bilan mamlakatimiz rahbari I.Karimov O'zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalkaro hamkorlikni rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan teng huquqlilik asosida sherikchilik qilish, barcha mojaro va muammolarni fakat tinch siyosiy va huquqiy vositalar bilan hal etish tarafdoi ekanini ta'kidlaydi.²

Ammo mintaqadagi ahvol, dunyoning boshqa hududlarida vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suverenitetiga, izchil va barqaror rivojiga xavf solishi mumkin bo'lgan kuchlarga munosib javob kaytaradigan xavsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etmoqda. Mazkur vazifalarni bajargan takdirdagina biz farovon turmushga, adolatli xayotga erishamiz, jaxon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rnimiz va nufuzimiz bo'ladi. Mamlakatimiz istiqlolga erishgan dastlabki kundan boshlab tinchlik-totuvlikni, o'z siyosatining ustuvor

¹ Каримов И.А . “Ўзбекистон Мустақилликка эришиш остонасида”, – Т.: Ўзбекистон., 2011. 367 – 368-б.

² Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 14-сессиясида сўзлаган маъruzасидан

yo'nalishlaridan biri ekanini jumlai jahonga e'lon qildi va ayni paytda mintaqaviy va global miqiyosda tinchlik va barqarorlikni saqlash yo'lidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilandi.

CHunonchi, O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning eng avvalo, BMTning xalqaro, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish zarurligini doimo ta'kidlab kelmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi Tashki siyosati, amalga oshirishdagi asosiy vazifalar, yaqin kelajakdagi ustuvor yo'nalishlar qo'yidagilardan iborat:

Birinchidan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash.

Ikkinchidan, tajovuzkorona hatti-harakatlar, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va xalqaro terrorchilikning yoyilish xavfi kuchayib borayotganini keng jamoatchilikka tushuntirish kerak. Bu jiddiy xavfni bartaraf etish bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikda zarur chora-tadbirlar ko'rish-bugungi kunda eng dolzarb vazifadir. Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli bo'lgan hududni barpo etish tashabbusini amalga oshirish mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartidir.

Ko'p yillar davomida cho'zilib kelayotgan Afg'on muammosi natijasida qo'poruvchilik, xalkaro terrorchilik, narkobiznes, noqonuniy yo'llar bilan qurolib kirish, sotish kabi xavf-xatarlar saqlanib qolmoqda. SHu munosabat bilan "6+3" guruhiga a'zo mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etish prinsiplari haqidagi "Toshkent deklarasiyasi" ni Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik yullarini izlashning universal dasturi sifatida qo'llash mumkin.

Uchinchidan, mamlakatimizda rivojlangan bozor Iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat barpo etishdek oliy maqsadga erishmog'imiz uchun O'zbekistonning jaxon hamjamiyatiga keng miqiyosda integrasiyalashuvini ta'minlash zarur. Jahonning eng taraqqiy topgan mamlakatlari bilan yaqindan

¹ А.Жўраев. Тинчликпарварлик мухим ахлоқий эҳтиёж сифатида Ўзбекистоннинг мустакил тараккиёт йўли ва ижтимоий-фалсафий тафаккур янгиланиши 1-қисм. Ёш олимлар илмий конференсияси материаллари. Т.2001 209-212 бетлар.

aloqa o'rnatish, etakchi, xalqaro iqtisodiy, moliyaviy hamda insonparvarlik tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish davlatimizning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuv jarayonining ajralmas qismidir. Bugungi kunda Evropa davlatlari, Osiyo mintakasidagi davlatlar va ko'pgina jahon davlatlari bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va boshqa ko'pqirrali hamkorligimiz rivojlanayotgani ma'lum.

O'zbekiston Respublikasining tinchlik borasidagi siyosati, mintaqamiz va jahondagi havf-xatarlar haqidagi qarashlari Prezident I.Karimovning asarlarida, ayniqsa, uning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida, shuningdek, BMTning sessiyalarida hamda xalqaro maydonda so'zlagan nutqlarida juda aniq va bat afsil bayon qilib berilgan. Birinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash zarur. Ularning bu yo'ldagi sa'y-harakatlari, imkoniyatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish ayniqsa muhimdir.

Markaziy Osiyoda yashovchi turli millat va elatlarning asrlar mobaynida shakllangan ma'naviy va madaniy aloqalarini mustahkamlash mintaqamiz xavfsizligining muhim sharti ekanini alohida ta'kidlash kerak.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy hamkorlik maqsadlarini har tomonlama kengaytirish, iqtisodiy loyihalarni, birinchi galda, mintaqaning boy tabiiy zaxiralaridan, energetika va suv manbalaridan foydalanish, transport kommunikasiyalari, gaz va neftъ tarmoqlarini barpo etish, ekologik muammolarni hal qilish kabi sohalarga tegishli aniq loyihalarni yaratish va amalga oshirish borasida kuch va imkoniyatlarni birlashtirish lozim. Aynan mana shu sohalarda hamkorlik qilish Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarning manfaatlariga mos kelishi shubhasiz. Bu hamkorlik butun mintaqaning kuchli ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga, shu bilan birga, uning xavfsizligi, barkarorligi va rivojlanishiga mustaxkam asos yaratgan bo'lar edi.

Uchinchidan, Xavfsizlikning bo’linmas va yaxlitligi haqidagi bosh prinsipga tayanib, terrorchilikka qarshi kurash buyicha xalkaro markaz barpo etishga oid O’zbekiston tashabbusini amalga oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish.

Markaziy Osiyodagi barqarorlik va tinchlikni izdan chiqarishi mumkin bo’lgan xavf – xatarlarning oldini olish va bartaraf qilish bo’yicha bu muhim masalaga xalqaro tuzilmalarning e’tiborini oshirish borasidagi takliflarni amalda joriy etish yo’lidagi sa’y-harakatlarni davom ettirish darkor.

Mustaqillik yillarida tinch va osuda hayotni barpo etish mustaqillikni qo’lga kiritishga nisbatan og’ir va mas’uliyatli vazifa ekanligi ayon bo’lmoqda. Ma’lumki, jahon tarixida o’z siyosiy mustaqilligini qo’lga kiritgandan keyin uni ichki va tashqi dushmanlardan saqlab qolish, xalqni bu mas’uliyatli ishga safarbar etishga jiddiy yondasha olmaslik sababli yana boshqalarga qaram bo’lib qolish holatlari ham kam emas. Bu esa bizdan doimo ogoh bo’lishni mustaqilligimizni har qanday yovuz kuchlardan, jumladan, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm balosidan ko’z qorachig’idek asrab, himoya qilib yashashini talab etadi.

Afsuski, ayrim odamlarning dunyoqarashida tinchlikni ta’minalash – bu davlat, hukumat va huquq tartibot sohasi xodimlarining ishi, degan noto’g’ri, loqaydlik kayfiyatidagi tushuncha o’rnashib qolganligini nohush xolatdir. Biroq, tinchlik va osoyishtalik har bir insonga daxldor bo’lgan hayotiy zaruratki, uni saqlash shu yurtda yashaydigan har bir fuqaroning muqaddas burchi bo’lmog’i kerak. Shuning uchun ham, bugun har birimiz “tinchlik-osoyishtalikni, shu tinch va osuda hayotni, musaffo osmonni asrash uchun shaxsan men nima qilyapman, bu yo’lda o’z huzur-xalovatimdan voz kechishga tayyormanmi”? degan savolni o’zimizga berishimiz axloqiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Masalan, “O’z uyingni o’zing asra” degan da’vatning ijtimoiy-axloqiy mohiyati barchani ogoh va sezgir bo’lib yashash – qandaydir o’tkinchi, mavsumiy kompaniya emas, balki kundalik ish, kundalik amaliy harakat bo’lmog’i zarurligida ko’rinadi. Avvalo, tinchlik o’z – o’zidan bo’laveradi, degan sodda va zararli tasavvurlardan qutilish kerak. Tinchlik

uchun har kuni, har soniyada kurashib yashash lozimligini chuqur anglab etish lozim.

Prezidentimiz I.Karimovning “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” risolasida ta’kidlanganidek, “Tinchlik – Ollohning buyuk ne’mati, hammamiz uchun hayotimiz asosi barcha orzu-umidlarimiz manbaidir. Lekin “Tinchlik bo’lsin degan mazmundagi so’zlarni qayta-qayta tilga olar ekanmiz, ko’pincha uning ma’no-mazmuni nechog’lik teranligi haqida o’ylab ko’rmaymiz. Ma’no-mazmuni anglanmagan so’zning esa, ta’siri ham, qadri ham bo’lmaydi. Bunday ezgu da’vatlar zamirida aniq ma’no va amaliy harakat bo’lishi kerak”¹.

Bu davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma’lum bo’lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasida o’z ifodasini topmoqda. SHu bilan birga bu mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o’ylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo’lmoqda. O’zbekiston o’z tashqi siyosatida faqat bitta maqsad O’zbekiston manfaati va yana bir bor O’zbekiston manfaatini ko’zlab ish tutayotganligini qayd etish joiz. O’tgan davr mobaynida O’zbekiston o’zining milliy manfaatlariga mos keladigan barcha mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Ayni paytda xalqaro hayotning muayyan prinsipial masalalari bo’yicha yondashuvlarda tafovut bo’lgan davlatlar bilan ham ochiq muloqot olib borayotganligini qayd etish mumkin.

O’zbekiston rahbariyati xalqaro munosabatlarni mafkuralashtirishga bo’lgan har qanday urinishga qat’iy qarshi turib keldi. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, bu mintaqani barqaror xavfsizlik hududiga aylantirish O’zbekiston tashqi siyosatining muhim ustuvor yo’nalishi etib belgilangan.

O’zbekistonda integrasiya jarayonlari va bozor islohotlarini rivojlantirishga, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiyl bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Bu borada xalqimiz asrlar davomida shakllangan “Qo’shning tinch — sen tinch” degan hayotiy naqlga doimo amal qilib kelmoqda. SHuni ta’kidlash lozimki, Spanxay Hamkorlik Tashkiloti, Markaziy Osiyo Hamkorligi

¹ Каримов. И.А. Тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.: Ўзбекистон., 2008. 19-б.

Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorligamiz mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Dunyo hamjamiyatida tinchliklik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida O'zbekiston xukumatining ham xissasi katta hisoblanadi. Bunda ayniqsa yurtboshimiz I.A.Karimov xizmatlari beqiyos ahamiyatga ega. Sharqiy Evropaning etuk siyosatchisi L.Levitin o'zining "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida" nomli kitobida "Aqshda Ruzvelt, Angliyada Cherchil, Fransiyada De Goll tarixning ma'lum davrlarida qanday muhim o'rinn tutgan bo'lsa, I.Karimov ham istibdoddan qutilgan o'zbek xalqi O'zbekiston uchun ana shunday buyuk shaxs bo'lib qoladi"¹-deb ta'kidlagani bejizga emas edi.

Yurtboshimiz I.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida mamlakatimiz, millatimiz, jamiyatimiz va har bir fuqarolar xavfsizligiga, yangilanish va taraqqiyot yo'liga solinayotgan tahdidlar nimalardan iborat ekanligini tahlil qilib, "Shuni esda tutishimiz kerakki, butun tarix tahdidlar va ularni daf etishdan iborat. G'oyat keng ma'nodagi hamkorlik – shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan tortib to xalqaro integrasiyagacha bo'lgan hamkorlik orqali davr tahdidlariga qarshi munosib javob berish uchun ishonchli kafolatlarimiz bor" degan umumsayyoraviy tinchlikdan boshlab, shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlargacha qanday ta'minlanishi mumkinligini ta'kidlab quyidagilarni sanab o'tadi.

Biz mavjud real xavf-xatarlarga jiddiy qaraymiz. Ayni vaqtda imkoniyatlarimizni, ta'bir joiz bo'lsa, jozibali jihatlarimiz va afzal tomonlarimizni ham bilamiz. Bizning mineral xom-ashyo, insoniy va ishlab chiqarish zaxiralarimiz ichki barqarorligimizni va halqaro nufuzimizni mustahkam kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Aminmanki, mamlakatimiz XXI asrda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida munosib o'rinn olish uchun tarixiy imkoniyatlarga ega. Biz o'zimiz

¹Л.Левитин. "Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида" – Т.: Ўзбекистон., 2001. 192-б.

uchun, eng muhimi bolalarimiz va nabiralarimiz uchun butun dunyo bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochmoqdamiz. O'zbekistonni, uning imkoniyatlarini chuqurroq bilishini, kelajakda biz bilan hamkorlik qilishdan shubhasiz foyda ko'rishni chin dildan xoxlaydigan barcha kishilarga yordam berishni istaymiz.

Yangi ming yillikka yo'l ochib borar ekanmiz, hammaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz. Xavfsizlik, barqarorlik va sobit qadam rivojlanishi degan so'zlar buning ramzidir. Chunki, aynan mana shu tashunchalar har bir mamlakatning, har bir halqning tinchligi, faravonligi, ravnoqi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Sayyoramizda jug'rofiy-siyosiy muvozanat ajralmas sharti bo'lib qoladi. Bu har bir insonga kelajakka dadil va ishonch bilan qarash huquqini beradi

O'zbekiston tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni hal etishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. SHu bilan birga, jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog'liq mutlaqo yangi tendensiya va vaziyatlar, shuningdek, yangi tahdidlarning paydo bo'lishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalarini, birinchi navbatda, uning etakchi organi — Xavfsizlik Kengashini isloh qilish va tarkibini qayta ko'rib chiqishni tezlashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Evropa qit'asidagi Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Evropa Ittifoqi va NATO kabi muhim tuzilmalar bilan yurtimizda demokratik va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, mamlakatimizda va umuman mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida hamkorlikni mustaqkamlashdan manfaatdordir. Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa yirik, nufuzli xalqaro moliya va iqtisodiyot tuzilmalari hamda tashkilotlari bilan hamkorlik kelgusida ham tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalişlaridan bo'lib qolmoqlas. Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu tashkilotlarning roli va o'rni benihoya katta.

O'zbekiston jahondagi yirik, xalqaro maydonda etakchi o'rinni tutadigan davlatlar — AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va Evropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor beradi. Mamlakatimiz Janubiy Koreya Respublikasi, Braziliya, Hindiston, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, YAqin Sharq va Arab Sharqining ko'plab mamlakatlari bilan yaqin munosabatlar o'rnatgan.

Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo'lib qolmoqda. XXI asr vabosi bo'lган ushbu illatga qarshi jahon hamjamiyatining murosasiz kurashini O'zbekiston to'la qo'llab – quvvatlamoqda, Markaziy Osiyo nafaqat yadroviy, balki har qanday boshqa ommaviy- qirg'in qurollari, chunonchi, biologik va kimyoviy qurollardan ham xoli hududga aylanishiga, ayniqsa, xalqaro terrorizmning bunday qurollarga ega bo'lishga intilayotgani bugungi kunda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etayotganligiga jahon hamjamiyatining e'tiborini tortib kelmokda.

2001 yil sentyabr voqealaridan so'ng AQSH va uning bir qator ittifoqchi davlatlari tomonidan Afg'onistonda aksilterror kompaniyasi amalga oshirildi. Mazkur vaziyatga nisbatan O'zbekiston o'zining qat'iy pozisiyasini bayon etdi hamda Markaziy Osiyo davlatlari orasida bu tashabbusni birinchilardan bo'lib qo'llab – quvvatlab kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Afg'onistonni qayta tiklanish jarayonida faol ishtirok etish bilan birga qo'shni Afg'onistonga gumanitar yordam berish, mamlakat transport infratuzilmasini, jumladan, yo'llar, ko'priklarni qayta tiklash haqida, ta'lim va ma'orif sohasida, qurilish va obodonchilik borasida o'zaro hamkorlik olib bormoqsa.

O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilish borasidagi taktik va strategik vazifalarni samarali hal etishga qodir bo'lган, ixcham, tezkor, zamonaviy qurol – yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlangan milliy

armiyamizni barpo etish bo'yicha ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlar tizimli ravishda va bosqichma- bosqich amalga oshirilganini alohida ta'kidlash kerak.

Armiyani isloh qilishning har tomonlama puxta o'ylangan dasturiga muvofiq, mamlakatimiz xavfsizligiga qarshi qaratilgan tashqi va ichki taxdid va xatarlarni chuqur o'rganish asosida Qurolli Kuchlarni qurish va boshqarishning mutlaqo yangi tizimi shakllantirildi. Harbiy okruglar, chegara hududlarining tuzilishi, harbiy operasiyalar olib boriladigan eng muhim yo'naliislarda jangovar qo'shin guruhdarining tashkil etilishi, o'z tarkibida eng muhim harbiy tuzilmalarni birlashtirgan Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabining shakllantirilishi mamlakatimizda yagona maqsad va vazifalar negizida uzviy bog' langan ishonchli mudofaa tizimini yaratish imkonini berdi.

O'zbekiston rahbariyati aholining ko'p millatlilagini hisobga olib, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab millatlararo tinchlik -totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqsa. Davlatimiz milliy siyosatining asosiy yo'naliislari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi;
- Millatidan qat'i nazar fuqarolarning qonun oldida tengligi;
- Davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida etnik o'ziga xosliklarni hisobga olish;
- Millatchilikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasizlik;
- Ijtimoiy va siyosiy hayotda barcha millat va elat vakillarining har tomonlama ishtirokini ta'minlash;
- Respublikada ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiladigan partiyalar va jamoat birlashma-lari tuzilishi hamda ularning faoliyati taqiklangan.

Respublikada hozirgi paytda 27 millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin Milliy Madaniy Markaz (MMM) faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston

diyorida qadimdan turli sivilizasiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma – yon yashab kelgan. Bu erda yashovchi xalq, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, boshqa joydan ko'chib kelib, o'rnashib qolgan emas. Bu zamin ota – bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlar vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu – umidlari, oljanob maqsad – muddaolarini o'zida mujassam etadi.

Ushbu an'ana va tafakkur tarzining tarkibiy qismi millatlararo totuvlik g'oyasi bo'lib, u umumbashariy qadriyat, turli xalklar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

“Milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, dinaga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy qadriyatlarniz, shu bilan birga, zamonaviy umumbashariy, umuminsoniy yutuqladan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor”¹.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi jahon tamadduni g'arb industrial tipining asosiy tavsiiflari tahlili shuni ko'rsatadiki, uning rasional – texnikaviy asoslarida ma'naviyat etarli darajada o'z ifodasini topmagan va bu holat asta sekinlik bilan insoniyat hayotidan aqliy-ma'naviy mohiyatning qadrsizlanishiga,sun'iy lashishiga olib keladi. Ularda ma'naviy barkamollik,etuklik tuyg'ularidan ko'ra moddiy manfaatdorlik, engil va oson hayot kechirish ishtiyoqi ustuvorlik qilmoqda. Bu o'z – o'zidan Sharqona tamaddun asoslarini o'rganish, har qanday taraqqiyot yuksak ma'naviyat, barkamol axloq tamoyillariga asoslanmog'i lozimligini taqozo etadi. Hozirgi zamon tamadduniga bunday yondashuv insoniyatni asrash, uning istiqboli va iqbolini belgilash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash imkonini beradi va kafolatlaydi.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т., Ўзбекистон., 2000, 502-б.

O'zbekiston davlatining dunyoviy maqomini belgilashda hamisha uning Sharqqa mansubligidan va Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida sivilizatorlik rolini o'ynaganligidan kelib chiqib yondashmoq kerak.

Global muammolarning asosiy jihatlari termoyadro urushi xavfi, Afrika, Lotin Amerikasi va dunyoning yana bir qancha mintaqalaridagshi ijtimoiy – siyosiy tanglik, xalqaro terrorizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, millatchilik va hokazolar O'zbekistonga, uning istiqboliga jiddiy tahdid solmoqdaki, ularni bartaraf etishda mamlakat jahon hamjamiyati bilan doimiy va samarali hamkorlik qilmog'i o'z – o'zidan ma'lum. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, bugun mustaqil o'zbekiston davlati umumsayyoraviy o'zgarishlar oqimida eng faol va kuchli ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy – siyosiy sub'ektga aylandi.

Mustaqillik biz uchun — o'zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson manfaati, erkinligi va farovonligining, biz ko'zlagan demokratik jamiyat barpo etishning garovidir degan ezgu g'oya to'plamning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Barqarorlik, tartib intizom, fuqarolarning tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlamasdan mamlakatimizning hozirgi kuni hamda kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bob buyicha xulosalar

Tinchlikparvarlik – mustaqillikni mustahkamlash davrining yuksak qadriyati sifatida deb nomlanuvchi ikkinchi bob bo'yicha xulosalarimiz quyidagicha:

birinchidan, mamlakatimizda qaror topgan siyosiy bag'rikenglik, dinga ishonuvchilarni majburan o'z e'tiqodidan qaytarib, dinni ma'muriy tarzda ta'qiqlab qo'yishning har qanday amaliy va nazariy ko'rinishlariga chek qo'yadi. Shuningdek, u jamiyatdagi barcha konfessiyalar, ya'ni dinlar, cherkov va diniy birlashmalar, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarni teng huquqli deb biladi, biron bir diniy imtiyozni boshqa dinlardan ustun qilib qO'y maydi. SHu bilan birga, jamiyatda shaxs kamolotida ilmiy dunyoqarash qaror topishini vijdon erkinligining amalda namoyon bo'lish belgilaridan biri deb hisoblaydi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik Deklarasiysi O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990 yil 20 iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasida qabul qilingan. Va mustaqillikning daslabki huquqiy asosi sifatida tan olingan bo'lib unda mamlakat tinchligini ta'minlashga oid birqancha g'oyalar mujassamlashgan. Konstitusiya qabul qilinganicha tinchlikka erishish tamoyillari va ichki va tashqi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga asos bo'lib rol o'yнagan;

uchinchidan, hozirgi jahon tamadduni g'arb industrial tipining asosiy tavsiflari tahlili shuni ko'rsatadiki, uning rasional – texnikaviy asoslarida ma'naviyat etarli darajada o'z ifodasini topmagan va bu holat asta sekinlik bilan insoniyat hayotidan aqliy – ma'naviy mohiyatning qadrsizlanishiga,sun'iylashishiga olib keladi. Ularda ma'naviy barkamollik,etuklik tuyg'ularidan ko'ra moddiy manfaatdorlik, engil va oson hayot kechirish ishtiyoqi ustuvorlik qilmoqda. Bu o'z – o'zidan Sharqona tamaddun asoslarini o'rganish, har qanday taraqqiyot yuksak ma'naviyat, barkamol axloq tamoyillariga asoslanmog'i lozimligini taqozo etadi. Hozirgi zamon tamadduniga bunday yondashuv insoniyatni asrash, uning istiqboli va iqbolini belgilash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash imkonini beradi va kafolatlaydi;

to'rtinchidan, Mustaqillik biz uchun — o'zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson manfaati, erkinligi va farovonligining, biz ko'zlagan demokratik jamiyat barpo etishning garovidir degan ezgu g'oya to'plamning mazmun-mohiyatini belgilaydi;

beshinchidan, mustaqillik har bir insonga to'la baxt-saodatni va'da qilmaydi, balki, baxtli yashashga imkoniyat yaratib beradi. Barqarorlik, ijtimoiy tartibot, fuqarolarning tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlamasdan mamlakatimizning hozirgi kuni hamda kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu axloqshunoslikdagi tinchlikparvarlik tamoyilini hayotimizga naqadar aloqador eganligini bildiradi.

III-BOB TINChLIKPARVARLIK AXLOQIY TAMOYILI VA UNING YoShLAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHIGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI

3.1. Tinchlik va barqarorlikni asrash, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashning ijtimoiy-siyosiy asoslari

Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida mustaqillikni yanada mustahkamlash, respublikamiz ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos tamoyillari, islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish va jamiyatda tadbirdorlik ruhini keng qaror toptirish, chinakam mustaqil demokratik davlat barpo etishning tamoyillari hamda tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni amalga oshirish borasidagi dolzarb vazifalar haqida tahliliy fikr-mulohazalar bilan birga, bugungi kunda sayyoramizdag'i tinchlik va barqarorlikka jiddiy xavf solib turgan omillar, jumladan Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi muammolar to'g'risida ham atroficha fikr yuritilgan. Chunki har qaysi davlat, jamiyat o'z oldiga qo'ygan maqsad sari borar ekan, buning uchun mamlakatda, avvalo, tinchlik-osoyishtalikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda jamiyat a'zolarini moddiy va ma'naviy jihatdan rahbatlantirish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni asrashda jamiyat ma'naviy hayotini isloh qilish, tafakkur yangilanishi, inson omiliga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, uning ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish, ma'naviy merosimizni jahon ahliga namoyish qilish, yosh avlod ongida faxr-iftixor tuyg'ularini tarbiyalash kabi masalalar jamiyatimizning yangilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda tinchlik va barqarorlikka xavf solayotgan xalqaro terrorizm, ekstremizm va unga qarshi kurash, mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, bu boradagi hamkorlik masalalari borasidagi muammolar bugungi kunda ziyorilarimizning diqqat markazida.

Ma'lumki, urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadigan, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch-totuv yashashga bo'lgan ijobjiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydigan, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi

kurashni, zarba berishni taqozo etadigan tinchlikparvarlik va tinchlik siyosati O'zbekiston siyosatining eng ustuvor jihatlaridan biridir. Bu borada tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig'inlarda ma'ruzalar qilish emas, balki faol xatti-harakat, uyuştiruvchilik, tashkilotchilik bиринчи darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi. Tinchlikka amal qilganlar fidoyi insonlardir. Ularning ana shu fidoyilarcha xatti-harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga takrorlanmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o'z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy madaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o'zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

Ba'zi ulug' davlatchilik va buyuk millatchilik ruhi hukmron bo'lgan jamiyatlarda tinchlikparvarlar quvg'in qilinadi, turmaga tashlanadi. Lekin ular o'z tamoyillaridan hech qachon qaytmaydilar. Ular insoniyatni barcha nizoli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqiradilar, Er yuzida tinchlik o'rnatish uchun tinimsiz kurash olib boradilar.

Jamiyatdagi tinch-totuvlik, birdamlik va ularni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi, ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o'rtasidagi hamjihatlik vaziyati, davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishini barqarorlik tushunchasi ifodalaydi. G'arb olimlari R.Darendrof va A.Kozer haqiqiy barqarorlik yo'q, har qanday barqarorlik beqarorlikning arafasi yoki muayyan beqarorlikdan keyingi holati, jamiyatning yangi beqarorlik oldidan tin olish davri, degan fikrni ilgari surganlar. Bundan farqli tarzda T.Parsons "ijtimoiy tizimning barqarorligi qoidalari"ni ishlab chiqishga harakat qilgan. Uning fikricha, har qanday barqaror jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tashkil etadigan elementlar faoliyati o'zaro uyg'un bo'lishi shart. Ana shu uyg'unlik doimiy barqarorlik omilidir. Bunda davlatning vazifasi jamiyatning eng kichik bo'g'lnlari, jamoalar, tashkilotlar, idoralar orasidagi mutanosiblikni saqlash va mustahkamlashdan iborat. Agar davlat buning uddasidan chiqa olsa, u

jamiyatni barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruvchi (regulyator) vazifasini ado etadi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning muayyan islohotlarni amalgalashirishi uchun imkon yaratadi. Bu qarashlar ko'pgina mutaxassislar tomonidan e'tirof qilingan. Barqarorlik jamiyat taraqqiyotining, islohotlarni bosqichmabosqich amalgalashirishning asosiy sharti, ma'naviy tamoyillar amaliyotini ta'minlash omilidir.

Millatlararo totuvlik – mamlakatimiz siyosatining ustuvor jihatlaridan biri hisoblanib, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifoda etadi.

Er yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan, bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun, ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarur.

Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta'minlashga bir yoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolar keltirib chiqarishini ko'rsatdi. Xususan, davlatga o'z nomini bergen (titul) millat bilan o'sha joyda yashaydigan boshqa millat va elat vakillari orasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab qiladi. Aks holda jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin.

Bu masala mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtaida asrlar davomida milliy nizolar bo'limgani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Mamlakatimiz Konstitusiyasida, "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", deb ta'kidlanishi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda esa barcha fuqarolarga ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeい, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, denga munosabati, mashg'ulotining turi va

xususiyatidan qat'i nazar teng saylov huquqining berilishi belgilab qo'yilganligi ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir.

“O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. Konstitusiyamizda belgilab qo'yilgan ushbu qoida ham hayotda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Respublikamizda milliy madaniy ehtiyojlarni qondirishning muhim mexanizmiga aylangan 140 ga yaqin milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatayotgani fikrimizning dalilidir. Bundan buyon ham qo'lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojiga ijobiy ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida Milliy madaniy markazlar jamiyatning etnosiyosiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, bu erda 136 millat vakillari yashashi bois, mustaqillik yillarida etnik o'ziga xoslikka asoslangan turli Milliy madaniy markazlar tuzilgan va hozirgi kunda bu markazlar samarali faoliyat ko'rsatayotganligi quvonarli holdir. Hozirgi kunda respublikada o'ndan ortiq millat vakillarining 140 qa yaqin Madaniy markazlari faoliyat olib bormoqda. Birgina koreys millati vakillarining 28ta Madaniy markazi faoliyat olib bormoqdaki, bu O'zbekistonning, o'zbek xalqining respublikada yashovchi barcha millat vakillari taqdiriga befarq emasligidan dalolatdir. Bular O'zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillarining o'z milliy madaniyati hamda tarixiy qadriyatlarini tiklashga oid ehtiyojlarini har tomonlama qondirmoqda.

Etnik o'ziga xoslikka asoslangan Milliy madaniy markazlar mamlakatda millatlararo tinch-totuvlikni ta'minlash, barcha millat va etnik guruh vakillari faoliyatini respublikada milliy-etnik jarayonlarning ijobiy rivojiga, demak, barcha qatlamlarning manfaatlarini hisobga olgan holda olib borilayotgan milliy siyosatga muvofiqlashtirib, ularning fuqaroviylar dunyoqarashini shakllantirib, rivojlantirish yo'lida muayyan mavqega ega. SHu jihatdan ham Milliy madaniy markazlar

faoliyatiga keng o’rin ajratib, ularning mavqeini etnik guruhlar orasida ko’tarish muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekistonda Milliy Madaniy Markazlar faoliyatini kuzatish quyidagi fikrlarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi:

1. Respublika rahbariyati tomonidan olib borilayotgan milliy siyosatdagi ustuvor yo’nalish mamlakatda yashovchi barcha millat va etnik guruh vakillarining etnoijtimoiy taraqqiyoti, iqtisodiy ravnaqi va har tomonlama kamol topishi uchun teng shart-sharoit hamda imkoniyatlarning yaratilganligi etnik taraqqiyotni ta’minlashda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.

2. O’zbekistonda 136 millat va etnik guruh vakillari yashab, ularning aksariyati o’z milliy-madaniy uyushmalariga ega bo’lib, bu markazlar respublikada umumfuqaroviylar mentalitetning shakllanib rivojlanishida muhim ishlar qilmoqda.

3. Respublikada Baynalmilal madaniyat markazi O’zbekistonda faoliyat ko’rsatayotgan barcha Milliy madaniy markazlarning o’z milliy urf-odat, an’ana va etnik xususiyatlarini qayta tiklab, targ’ib etishini ta’minlash bilan bir qatorda, ular faoliyatini o’zaro tinch-totuvlik, umuminsoniy qadriyatlarga mansublik tamoyillari asosida muvofiqlashtirib, mamlakatda etnoijtimoiy vaziyatning yanada barqaror mazmun kasb etishida asosiy rol o’ynamoqda.

4. Milliy madaniy markazlar mamlakat madaniy hayotida etakchi mavqeni egallashlari bilan bir qatorda etnosiyosiy vaziyatning ijobjiy rivojida hamda millatlararo munosabatlarning uyg’unlashuvida zaruriy ahamiyat kasb etmoqda.

5. “O’zbekiston – umumiyligi” doirasida faoliyat olib borayotgan Milliy madaniy markazlar respublikada yagona “o’zbekistonliklar” etnosiyosiy birligining ta’milanishida muhim rol o’ynab, barqaror fuqaroviylar jamiyatning rivojida ham sezilarli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Jamiyatda milliy-etnik jarayonlarni tahlil etishda empirik ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo’lsak, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o’rganish Markazi tomonidan tarqatilgan ma’lumotlarga ko’ra respondentlardan “Quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri Sizning millat haqidagi tushunchangizni to’laroq aks ettiradi?”

degan savolga javoblarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh - aksariyat javoblarda (54,3%) millat (milliylik) fenomeniga ijobiy munosabatda bo'lgan bo'lsalar, ba'zilar o'z javoblarida bunday holatga tanqidiy munosabatda bo'lganlar. Birinchi guruhga qo'shilgan respondentlar shartli ravishda (54,3%), "millat" fenomenini, kishilarning birinchi bo'lib, yagona yashash hududi, davlat, til, e'tiqod birligi o'ziga xos madaniyatni o'zida mujassam etgan etnofuqaroviylar birlik sifatida qaraganlar. Bu albatta milliy ongning umumfuqaroviylar, umumdavlatchilik ongi sari o'sayotganligidan dalolat bo'lib, g'arbda ilgaridan mavjud bo'lgan milliy-davlatchilik g'oyalariga hamohangdir. SHu o'rnida yana bir narsani takrorlab o'tish joizki, "millat" tushunchasi g'arb va Amerika olimlari tomonidan ko'p qirrali mazmunda idrok etilib, "millat", "xalq", "davlat" tushunchalarini o'zaro sinonim sifatida talqin va e'tirof etilsa, marksistik yo'naliш vakillari – asosan ayrim sobiq ittifoq olimlari millat burjuaziya, ya'ni kapitalistik jamiyat mahsuli bo'lib, utopik jamiyat bo'lgan kommunizm sharoitida yo'qoladi degan da'veoni ilgari surganlar (Zbignev Bzejinskiy millat mohiyatiga etatistik yondashuvdan kelib chiqib, millatni XX asrning xomxayol nazariyasi sifatida ta'riflagan). Millatning yo'qolib ketish nazariyasi tabiiyki, o'zining ilmiy asosiga ega emas edi. Chunki, har qanday jamiyatda millat etnoijtimoiy birlik sifatida ijobiy mazmun kasb etib boraverib, jamiyatning tabiiy rang-barangligini ta'minlaydi. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganda, aksariyat respondentlarning javoblari ilg'or fikrli olimlar tomonidan millat mohiyatiga berilgan ta'rif va qarashlarga nisbatan yaqin. Aholining 39,6 foizi millat - bu pasportdagi belgi emas, balki insonning ma'lum bir xalqqa mansubligidir, desalar, 24,4 foizi millat - insonning muayyan millatga mansubligini ma'naviy his etish deb hisoblaydi. Albatta bunday ta'rif, asosan, respondentlarning ruhiy-ma'naviy hissiyorliga asoslanib, millatning siyosiy-funksional fenomeniga etarlicha baho bera olmaganliklari sabablidir. 4,7 foiz respondentlar "hozirgi kunda "millat" tushunchasi etarli darajada eskirgan va bu jarayon o'z ahamiyatini yo'qotib borishda davom etadi", - deb hisoblaydilar. Ularning 4,4% millat ijtimoiy hodisa sifatida kishilarning o'zaro yaqinlashishiga to'sqinlik qilib, bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi, deb hisoblaydilar.

Respondentlarning aksariyati milliylik (millat) asosan milliy davlatchilik bilan bog'liq, degan fikrni ilgari suradilar, ko'pchilik (61,7%) yuqoridagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Bu:

1. "Millat" va "milliy davlatchilik" tushunchalarining o'zaro yaqinlashayotganligi – milliy dunyoqarashning umumfuqaroviylar sari o'sayotganidan;
2. Jamiyat a'zolarining ongida o'z etnik qobig'idan chiqib, umumsivilizasiya rivoji sari talpinayotganidan dalolatdir.

Respondentlarning fuqarolik mavqeini empirik ma'lumotlar asosida aniqlash uchun quyidagicha savol berildi: "Siz o'zingizni avvalo kim deb hisoblaysiz, o'zbekistonlikmi yoki o'z millatingiz vakilimi?". So'rov natijalari O'zbekistonda yashayotgan barcha aholi uchun fuqarolik o'z-o'zini tavsif etishda belgilovchi omil ekanligini tasdiqlaydi.

Respondentlarning ko'pchiligi (65,0%) dastavval o'zini O'zbekiston fuqarosi deb biladi. 17,2% esa o'z millatining vakili deb his qiladi, 16,1% esa har ikkalasini his qiladi. Bu jihatlar respublika aholisi orasida umumfuqaroviylar jihatlarning o'sayotganidan dalolatdir.

Demak, jamiyat ijtimoiy negizidagi sifatiy o'zgarishlar boshqaruvgaga tabiiy ravishda ta'sir etadi, boshqaruv jarayonida etakchi shaxs ana shu jihatlarga asosiy e'tibor qaratmog'i lozim. Jamiatning ijtimoiy stratifikasiya (tabaqalanishi)si, unda o'rta qatlamni rag'batlantirish jamiatida ijtimoiy-siyosiy muvozanatning saqlanishida etakchi mavqe kasb etadi. Zero, o'rta qatlam yuqori va quyi qatlam, shu bilan birga, davlat va fuqarolar orasidagi munosabat mezonini belgilovchi asosiy omildir. Har kanday jamiatning rivoji undagi mavjud o'rta qatlam miqdori va holati bilan belgilanadi. SHu jihatdan ham respublikamizda o'rta qatlamni rag'batlantirish haqida respublika rahbariyati tomonidan qator chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Jamiyat ijtimoiy stratifikasiyasida milliy-etnik bo'linish ham muhim mavqe kasb etib, jamoa etakchisidan alohida diqqat-e'tibor talab etadi. Bu o'rinda

o'zbeklar respublikaning asosiy millati sifatida barcha etnik guruhlar orasida do'stlik va hamjihatlikning ustuvor ahamiyat kasb etishida muayyan mas'uliyatga egadir. Ana shunday birlashtiruvchilik xususiyat barchamizning zimmamizdagi burchdir.

Ma'lumki, milliy mansublik etnik dunyoqarashning mahsuli bo'lib, huquqiy-demokratik jamiyat sharoitida yagona fuqaroviylar birlik sifatida maydonga chiqadi. Shuning bilan milliy o'zlikni anglashni ifoda etadigan millatga mansublikni his etish shakli turli millatda turlicha daraja va ko'rinishda ekanligini ham unutmaslik zarur. Jamoa etakchisi ana shu jihatlarga e'tibor qaratishi lozim. Zero, jamoada etnik totuvlik ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlardan dalolatdirki, bu O'zbekistondagi ijtimoiy taraqqiyotga ham bevosita ta'sir etadi.

Diniy bag'rikenglik (tolerantlik) xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyatni ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. Hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Qadimdan diyorimizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lgan xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini eminerkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu - yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Hozirda mamlakatimizda o'n olti konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu

boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitusiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi va tinchlik, yaxshilik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish, doimo yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratligini ta'kidlaydi. Shunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag'rikenglik yotadi.

Diniy bag'rikenglik muayyan dinga e'tiqod qiluvchi kshilarning boshqa din vakillariga nisbatan xolisona munosabatda bO'lishidir. Diniy bag'rikenglik bilan juda yaqin tushunchalar bO'lsa ham biri biridan tafovut qiladigan tomonlari bor. Diniy bag'rikenglik muammosi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bO'lib, uning zamirida jamiyat a'zolarining huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. Diniy bag'rikenglik - sabr-toqatlilik, chidamlilik, bardoshlik hamda inson, jamiyat, dunyo haqidagi qarashlarning O'zaro mubahosi usulidir. Diniy bag'rikenglik o'zbek mintaletiga xos bo'lgan xislat bO'lib, eng og'ir damlarda murakkab masalalar echimida qo'l keladi. «Sabr tagi rahmon» deb hadislarda bekorga aytilmagan. Dinlarning kelib chiqishi bir bo'lishiga qaramay, jahondagi xalqlar turli dinlarga, hattoki bir xalq, millatlarda har xil dinlarga e'tiqod qiladilar. Ulardagi diniy bag'rikenglik yagona Allohga sig'inish, kishilar o'rtasidagi totuvlik, insonparvarlik, mehr-oqibatlilik, vijdoniylik, halollik, pokizalik, insof-diyonatlilik kabi talablari shaxs, guruh va jamiyat a'zolari hayotida muhim rol o'ynaydi. Diniy bag'rikenglik dunyo hodisalarga munosabatlarda, o'tmish va ma'naviy qadriyatlarni baholashdagi mezonlarda, hattoki turli dinlararo muhim masalalar echimini topishda o'z ifodasini topadi. YUNESKO diniy bag'rikenglik (bag'rikenglik) muammosiga alohida e'tibor berib, 1995 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining bag'rikenglik yili deb, 16 noyabrni esa har yili YUNESKO

a'zolaridan 185 davlat ishtirokida Parijda Bag'rikenglik Tamoyillari Deklarasiyasi qabul qilindi.

Mustaqillik yillari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda amalga oshirilgan ulkan islohotlar, o'zgarishlar, yangilanishlar qatori diniy bag'rikenglikni mustahkamlovchi vijdon erkinligi, davlat va din munosabatlarining adolatli siyosati o'rnatildi. Bugungi kunda respublikamizda 2201 ta diniy tashkilot, shu jumladan O'zbekiston Musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston Musulmonlari qoziyati, Toshkent Islom instituti, 10 ta madrasa va 2003 ta masjid, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Pravoslav seminariyasi, rim-katolik cherkovi, Evangelъ xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, to'liq injil xristianlar markazi, Xristian seminariyasi, O'zbekiston Bibliya jamiyati, 162 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy va 8 ta bahriy jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddist ibodatxonasi davlat ro'yhatidan o'tgan.

BMT Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning Konstitusiyasi va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumiyligi deklarasiyaga muvofiq, har bir inson fikrlash, vijdon va diniy erkinligi huquqiga ega. U huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligi, o'z dini yoki e'tiqodiga, O'zicha, shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va jamoaviy qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Yana bu deklarasiyada turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar O'rtasidagi, davlat bilan din, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi.

Mamlakatimizda qaror topgan siyosiy bag'rikenglik, dinga ishonuvchilarni majburan o'z e'tiqodidan qaytarib, dinni ma'muriy tarzda ta'qiqlab qo'yishning har qanday amaliy va nazariy ko'rinishlariga chek qo'yadi. Shuningdek, u jamiyatdagi barcha konfessiyalar, ya'ni dinlar, cherkov va diniy birlashmalar, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarni teng huquqli deb biladi, biron bir diniy

imtiyozni boshqa dinlardan ustun qilib qO'ymaydi. SHu bilan birga, jamiyatda shaxs kamolotida ilmiy dunyoqarash qaror topishini vijdon erkinligining amalda namoyon bO'lish belgilaridan biri deb hisoblaydi.

Mamlakatimizda din va e'tiqod erkinligi huquqining ta'minlanishi natijasida ko'p millatli xalqimizda hech qaysi din vakillarining diniy nafsoniyatlari kamsitilmaydi; diniy hissiyotlarni avj ham oldirmaydi; din fuqarolarning, shu jumladan, yoshlarning ham ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Diniy bag'rikenglik shaxsning e'tiqodida alohida o'rinn egallaydi. E'tiqod shaxsni o'z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan mativlar sistemasidir. "Ayni paytda shuni ham unutmaslik kerakki, dunyoviylik — bu dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shaklangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar — bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'naviy meros bo'ladimi, axloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi — bularning barchasini rad etadi. Natijada odamzot o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'u va qarashlari, tayanib-suyanib turadigan poydevoridan mahrum bo'lib, «sho'ro dohiylari» aytganidek, ulkan davlat mashinasining «vintchasi»ga aylanadi. Oxir-oqibatda bunday odam ota-onasini ham, o'z millati, xalqi va Vatanini ham tanimaydigan ayanchli holatga tushib qoladi.

Sobiq mustabid tuzum aynan ana shunday yovuz maqsadlarni ko'zlar edi. Shuning uchun kommunistik mafkura avj olgan davrlarda, xususan, o'tgan asrning 80-yillari oxirlarida xalqimizning boshiga qanday azob-uqubatlar yog'dirilganini, albatta, hech qachon unutib bo'lmaydi.

O'sha mash'um yillarda ko'pchilik hatto janoza marosimlariga borish, yaqin kishisini yo'qotgan odamlardan ko'ngil so'rashga ham hayiqib qolgan edi. U yog'ini so'rasangiz, ba'zi mas'ul lavozimda ishlaydigan odamlar mafkura

tazyiqidan yurak oldirib, ota-onasi qazo qilganda dafn marosimlarida ishtirok etmaslikka ham majbur bo'lgan edi.

Lekin har qanday shafqatsiz ta'qiblarga qaramasdan, xalqimiz baribir o'z muqaddas diniga sodiq qoldi. Shuning o'ziyoq dinni inson, xalq va jamiyat hayotidan aslo o'chirib bo'lmasligidan yana bir bor dalolat beradi.

Biz muqaddas dinimizning xalqimiz tarixidagi ana shunday beqiyos o'rni va ta'sirini inobatga olgan holda, uni har tomonlama tiklab, hayotimizdan mustahkam va munosib o'rin olishiga erishdik.

Ayni vaqtida bugungi murakkab va shiddatli zamonda jahonda o'z o'rnini topishga intiladigan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqur va puxta egallashi shartligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur», degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta. Bu so'zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlamoqda.

Bizning ma'naviy hayotimiz ana shu ikki asos, ikki tayanch nuqtaning ustida mustahkam turishi lozim. Bordiyu ana shu asoslardan birortasi bo'shashgudek bo'lsa, yana o'zgalarga tobe va qaram bo'lishimiz hech gap emas. Bugungi dunyoning pastu balandini tushunadigan har qanday aqli raso odam buni yaxshi angraydi, albatta. Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya'ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi qunning og'ir va murakkab savol-lariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi. SHu ma'noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug'lab, shu bilan birga,

dunyoviy hayotga ham qat’iy ishonch bi-lan intilib yashagan taqdirimizdagina o’z ezgu maqsadlarimizga eta olamiz”¹.

3.2. Yoshlarni tinchlikparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik mahorat hamda uning singdirish usullari.

Xalq va Vatanning kelgusi istiqboli, taqdiri bugun ta’lim tizimida ta’lim va tarbiya olayotgan avlodga bog’liq.Ta’lim-tarbiyaning mazmuni, saviyasi mamlakat iqtisodiyoti, siyosatining oqibatini belgilaydi.Shuning uchun o‘z kelajagini o‘ylagan millat, mamlakat ma’naviy-tarbiyaviy islohotlar orqali ma’naviy yetuk avlodni voyaga yetkazish, ular uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratishni birinchi navbatda hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar deb qaraydi.O‘tgan qisqa davrdayoq har jihatdan barkamol, iymon-e’tiqodi mustahkam, bilimli, fidoyi vatanparvar kishilar Vatan istiqbolining porloqligiga zamin bo‘lishi tobora ayon bo‘ldi.Shuning uchun Prezidentimizning fikricha: “Har tomonlama yetuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo‘yayotgan o‘ta murakkab, og’ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz ko‘zlagan yuksak marralarni egallahning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz”².Shunday ekan, mustaqilligimizning istiqboli, mamlakatimizning ertasi, buyuk kelajak yaratish yo‘lidagi dasturiy maqsadlarning pirovard natijasi barkamol avlodni voyaga yetkazishga, ta’lim-tarbiya tizimida jiddiy yangilanishlarni vujudga keltirishga bog’liq.

Demak, biz o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya mazmunini zamon talablariga muvofiq takomillashtirib borishimiz, o‘zgartirishimiz, o‘qituvchilar saviyasi, pedagogik mahoratini tubdan yaxshilashimiz orqali ta’lim-tarbiya tizimini yuksak darajada ko‘tarishimiz lozim bo‘ladi. O‘quv dasturlaridan tortib, o‘quv jarayonining ichki mazmunigacha, o‘qituvchilarimizning bilim saviyasi, mahoratidan tortib, jamoatchilik o‘rtasidagi nufuzigacha – barcha-barchasida isloh qilishga, yangicha munosabat bildirishga ehtiyoj sezilib turadi. Ma’lumki, har bir davlatning ta’lim soxasida o‘z dasturi, konsepsiysi va andazalari bo‘ladi. Bu

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”. 2008. 93-96 бетлар.

²Каримов И.А.Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фукаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир.”Баркамол авлод йили” Давлат дастури.-Т.:”Ўзбекистон”,2010,-Б.-4.

dastur va konsepsiyalar ta’lim tizimining to‘la isloh qilinishi va o‘ziga xos universal model yaratish yoki mukammallashtirish, mavjud tizimlardan foydalanib, o‘z ta’lim sohasini rivojlantirish strategiyalarni nazarda tutishini tushunish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan XX sessiyasida “Ta’lim to‘g’risidagi”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinishi orqali ta’lim-tarbiya tizimlari, mazmuni, pedagogik asoslarini yangilash imkoniyatlari kuchaydi.

Milliy dasturning “Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar” bobida: ”Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta’minlanadi. Umumiyligi hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma’rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, milliy modelimiz konsepsiyasining mazmuni milliy turmush tarzimiz va ma’naviy-ahloqiy an’analarimiz bilan hamohangdir. Xususan respublikamiz jamiyatshunos olimlari, faylasuflar, pedagoglar ta’lim-tarbiya tizimida milliy modelimizning asosiy xususiyatlarini tahlil etar ekan ko‘proq uning milliy tarbiyadagi o‘rni hamda ahamiyatini ochib berishga e’tibor qiladilar.

“Ta’lim tizimini isloh qilish va modernizasiyalash maqsadida davlat tomonidan keng qamrovli chora-tadbirlar izchil amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonda ta’lim-tarbiyani sifati va samaradorligini mutazam oshirla borish bilan birgalikda o‘quvchilarning ta’limdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarida ixtisoslik va mutaxassisliklariga mos ish o’rinlariga ega bo’lib, e’tibor qaratildi va milliy kadrlar tayyorlashning maxsus dasturlarida quyidagilarga urg’u berildi:

birinchidan, umumiy ta’lim maktablarida dars berish sifatini oshirish, o’qituvchilarni, metodlarni qo’shimcha ravishda moddiy rag’batlantirish, maxsus sinfxonalar barpo etish, oliy o’quv yurtlarining maktablarni otaliqqa olishni yo’lga qo’yish;

ikkinchidan, eng iste’dodli bolalar uchun maktablar ochishni;

uchinchidan, korxonalar bilan maktablar o’rtasida sifat jihatlardan yangi munosabatlarni joriy etishni;

to’rtinchidan, hunar-texnika bilim yurtlarida (kollejlarda) xo’jalik hisobini joriy etishning va shu asosda ommaviy kasb kadrlarini tayyorlash sifatini keskin oshirish;

beshinchidan, oliy o’quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashning buyurtma berish usulini joriy etishni o’z ichiga olishi kerak”¹.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi qonunida ham yosh avlodning ma’naviy va madaniy tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlар konsepsiyasida ham tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zarurati alohida ta’kidlangan. Unga ko’ra tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo’lgan barcha g’oyalar qaytadan ko’rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligi, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shaklantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini joriy etishga bog’liq.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma’naviyati negizi asosida hukumat qarorlarida va o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimidagi islohotlarda, ijodkor o’qituvchilarning faoliyatları, olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o’z aksini topmoqda. Jumladan, S.Ochilov “Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari” nomli risolasida tarbiyaviy ishlarning quyidagi

¹ Баркамол авлод орзуси. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 2000. 83-бет.

yangicha yo‘nalishlarini asoslab berdi: ”Bo‘lajak avlodda - hurfikrlilik, milliy iftixor, milliy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va ozodlik, insonparvarlik, birodarlik va hamkorlik, ilmga mehr-muhabbat, iymon va e’tiqod, halollik, axloqiy poklik, madaniy merosga hurmat, adolatparvarlik va ozodlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik, tadbikorlik va ishbilarmonlik, qonunga nisbatan itoatkorlik, mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish g’oyalariga sadoqat, muqaddas dinimizga hurmat, Prezident va davlatni qadrlash kabi sifatlarni tarbiyalash”¹.

Bu g’oyalar O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbek modeli”ning besh tamoyili talablariga asoslanib olingan bo‘lib, uning mezonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mahorati va qoidalari ham o‘z aksini topgandir. A.Jo‘rayevning “Tarbiyaviy darslarni o‘tish” risolasida ham mustaqillik g’oyasi bilan bog’langan tarbiyaviy tadbirdan yangicha qoidalarga darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi bir qator shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Jumladan, uning shaxsiy sifatlari – axloqiy yetuklik, ma’naviy poklik, vatanparvarlik, milliy g’ururlilik, mafkuraviy onglilik, vijdoniylik, adolatparvarlik, tashabbuskorlik, qat’iylik, bolajonlik, nozik didlik, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylilik, topqirlik, xushmuomalalik, kelajakka ishonch, ozodalik va h.k.

Tarbiya san’ati shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba’zilarga esa, juda oson ish bo‘lib tuyuladi. Odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qancha kam tanish bo‘lsa, unga shunchalik tushunarli va oson bo‘lib ko‘rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e’tirof etadi, ayrimlar buning uchun tug’ma qobiliyat, malaka va ko‘nikma kerak deb o‘ylaydilar, lekin juda kam odamsabr-toqat, tug’ma qobiliyat va malakadan tashqari yana O‘zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo‘lining mohiyati, besh tamoyil, taraqqiyotimizning axloqiy negizlarini bilish; milliy tarbiyaning ma’naviy mohiyatini chuqur anglash; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ilg’or pedagogik

¹Сафо Очил.Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари.-Т.:”Ўқитувчи”,1995.-Б.-254.

texnologiyalarni bilish; o‘z fanining milliy-tarbiyaviy imkoniyatlarini sezish; O‘zbekiston hukumatining ichki va tashqi siyosatidan mukammal xabardorlik; milliy tarbiyaning nazariy va uslubiy asoslarini chuqur bilish; o‘zi tug’ilib o‘sgan joy,o‘zbek xalqi tarbiyaviy an’analarini puxta bilish; o‘g’il va qiz bolalarni milliy-tarbiyaviy xususiyatlarini bilish; qiyosiy pedagogik va etnopsixologik bilimlar; ijtimoiy falsafiy va ruhshunoslik bilimlari; O‘zbek madaniyatini chuqur, atoflicha bilish;millatning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish; milliy g’oya va ma’naviyat asoslari, tarix, siyosat, o‘lkashunoslik, adabiyot va san’at, axloqshunoslik, huquqshunoslik, texnika borasida bilimlarga egalik, o‘z xalqi tarixini yaxshi bilish kabi maxsus bilimlar kerakligini anglay oladi. Shuningdek, bu jarayon o‘qituvchi – murabbiyyadan shaxsiy va kasbiy sifatlar, maxsus bilimlar bilimlar bilan bir qatorda o‘ziga xos ko‘nikma va malaka ham talab etadi. Xususan -

Konstruktiv. Milliy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish malakalari;har bir o‘quvchi shaxsining pedagogik tashxisini, bolaning hoziri va istiqbolini ko‘ra bilish; milliy tarbiyada umumpedagogik usullarni qo‘llay olish; bir millatli va ko‘p millatli o‘quvchilar jamoasida har bir o‘quvchini milliy tarbiyalashning xususiy dasturini tuzib,amalga oshira bilish; tarbiyalanuvchilarga alohida, guruhiy va tabaqalashgan holda yondashuv, ularning yosh, psixologik, jinsiy, maxalliy xususiyatlarini hisobga ola bilish malakalari va boshqalar.

Tashkilotchilik. auditoriyaning faol talabalar jamoasini milliy-tarbiyaviy maqsadlarda jipslashtirib, boshqara olish; auditoriya ahlining jamoa bilan yakka faoliyat turlarini tashkil qila olish; o‘quvchilarning ijtimoiy-milliy faolliklarini rag’batlantirish, rivojlantirish; o‘quvchilarga milliy-tarbiyaviy maqsadlarda topshiriqlar berish va ularning boshqarilishini nazorat qilish, yordam berish; mahalla, qishloq, oila, homiy tashkilotlar bilanmilliy-tarbiyaviy hamkorlikni tashkil qilish va h.k.

Kommunikativ. Talabalar, o‘qituvchilar, ota-onalar, mahalla, qishloq oqsoqollari bilan aloqa o‘rnata olish; o‘quvchilar orasida, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarni boshqara olish; har bir talaba qalbiga yo‘l topib, o‘ziga

moyillik uyg'ota olish; jamoaga, talabaga ko'rsatilishi kerak bo'lgan tarbiyaviy ta'sirning qanday natija berishini oldindan ko'ra olish; dunyoga, o'ziga va mazkur vaziyatga talabasining ko'zlari bilan qaray olish; tevarak-atrofni, munosabatlarni, milliy madaniyatni talaba darajasida (o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib) tasavvur, idrok qila olish(empatiya) va h.k.

Gnostik. Talabani milliy tarbiya obyekti sifatida pedagogik o'rganish; milliy-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik-psixologik bilimlardan, ilg'or tajriba namunalaridan, adabiyotlardan foydalanish; izlanuvchanlik; milliy-tarbiyaviy vosita, tashkiliy shakl, uslubyo'l-yo'riqlarni muqobil tanlash; o'zining kasbiy va shaxsiy sifatlarini tahlil qilib takomillashtirish; milliy istiqlol talabalaridan kelib chiqib, o'z faoliyatini isloh qilishga tayyorgarlik, isloh qila olish va h.k.

Ma'lumki, har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyalanganligi, odobliligi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi – til. Tarbiyachi muomalasida tilga juda ehtiyyotkor bo'lishi kerak. Tili shirin, xushmuomalali o'qituvchi eng obro'lidir. Qo'pol, odobsiz gaplarga o'rin qoldirmaslik, talaba shaxsiyatiga tegadigan qo'pol muomala qilish o'qituvchining izzati va obro'yiga putur yetkazadi. "Tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlovchi muhim omil – pedagogik mahoratdir.Tarbiyaviy mahorat Olloh tomonidan in'om etilgan, tajribalar jarayonida shakllanuvchi bir yuksak fazilatdir"¹.

O'qituvchining pedagogik mahorati ko'p qirrali bo'lib, u - o'quvchilarni o'ziga jalb qila olish, ishtiyoqini uyg'ota olish, milliy zamonaviylik g'oyasini singdirib, milliy-tarbiyaviy vazifalarga ruhlantira olishida; O'zini "mukammal, zamonaviy o'zbek ziylisi" siyosiga ongli ravishda tayyorlash va takomillashtira borishida; O'zbek tilida sof, tiniq, ifodali, ta'sirli, ohangdor so'zlash; Notiqliq va aktyorlik mahoratida; His-tuyg'ularini jilovlay olish; o'quvchilarga bevosita va parallel ta'sir ko'rsata olishida; talabalarga mehribon va hamkorligida; O'quv-tarbiya jarayonida halol vaadolatli bo'lishida; talabalarning qayg'u-hasrati, g'ami

¹Хасанбоев Ж,Туропова М,Хасанбоева О.Маънавий-ахлокий тарбия асослари.-Т.: "Фафур Ғулом",2000.-Б.-111.

va omadsizligiga hamdard bo‘lishida; Muomila madaniyati; Chuqur bilim egasi bo‘lishida; O‘qituvchining ruhiy holatida (samimiylik, xayrixohlik, olivjanoblik); Jamoa bo‘lib ishlashda vaziyatni ijobjiy tomonga san’atkorona yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi;

Tarbiya jarayonida pedagogik ta’sir ko‘rsatish mahorati o‘quvchiga u yoki bu yuksak ahloqiy sifatlarning mohiyatini anglatish jarayonida qo‘llaniladigan o‘qituvchi-tarbiyachining ish usullaridan biri. Bunda o‘qituvchi belgilangan vazifani bajarish uchun o‘quvchilarga aniq maqsadga yo‘naltirilgan muayan talablarni qo‘yadi. Bu talablar o‘qituvchining pedagogik mahoratidan kelib chiqib o‘ziga xos shakllarda qo‘yilishi ham mumkin. Bunday talab bolalar jamoasi bilan ishslashning dastlabki bosqichidir. Ijodkor pedagoglarni fikricha “Samimiyl, oshkora, ishonarli, qizg’in va qat’iy talab bo‘lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo‘lmaydi”. Bunday talablar jamoani bir maqsad yo‘liga boshlashi uchun: talabning ijodiy bo‘lishi, o‘quvchi-talabalarning xatti-harakatlariga to‘sqinlik qilmasligi; talab aniq va tushunarli bo‘lishi; qo‘yilgan talab natijasini bilish; talab ochiq chehra, muomila madaniyati yuzasidan berilishi, iltimos, maslahat, yaxshi niyatga chorlashi; talablar o‘quvchilarning yoshi, bilim saviyasiga mos bo‘lishi; talablarda kesatqi, luqma, minnat bo‘lmasligi;

O‘qituvchining pedagogik ta’sir ko‘rsatishdagi yana bir usul talabalar jamoasini milliy va umuminsoniy qadiriyatlarni uyg’unlashtirish asosida tarbiyalashdir. Bunday jamoada tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida oshkora ishonch bo‘lishi, o‘z-o‘zini boshqarish, an’ana va qonunlarga amal qilinishi muhimdir.

O‘qituvchining navbatdagi masalasi talabalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtrish borasidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirib, ilg’or tajribalarga suyanib, talabalarni tarbiyalash jarayonida o‘rtoqlik-do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini shakllantirish mahoratini o‘zlashtirishdan iborat. “Buning uchun har qaysi ota-on, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shahsni ko‘rishi

zarur”¹. Tarbiya jarayonida talaba yoshlarda quyidagi shaxsiy sifatlarni shakllantirishga ahamiyat qaratish lozim:

- talabalar jamoasini tarbiyalash va ularda o‘zaro munosabat aloqalarini yaratish;
- talabalar kundalik faoliyatlarini jamoaga jipslashtirish;
- shaxsiy manfaatni jamoa bilan uyg’un holda ko‘rishga o‘rgatish;
- jamoada bir-biriga mehr-oqibat, muruvvat sahiylik, do‘stona hamkorlikni, hallolikni, xushmuomilaliknishakllantirish, uni katta tarbiyaviy kuchga aylantirish.

G’oyaviy-mafkuraviy tarbiya usullari to’g’risida professor J.YA.YAxshilikov o’z “Milliy g’oya va mafkura” monografiyasida² bir qator ijobiy fikrlarni bildirib o’tgan. Jumladan, ijodkor rahbar hamda ilg’or o‘qituvchi-tarbiyachilar o‘z faoliyatları jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi g’oyaviy tarbiya usullarini bilib olishlari kerak:

- ta’lim tarbiya usuli – bunda ko’rgazmalilik, uzluksizlik, yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash, tarxiylik va mantiqiy izchillikni ta’minlash usullaridan keng foydalanish;
- targ’ibot-tashviqot usuli – bunda keng qarovlilik, maqsadga yo’naltirilganlik, ishonchlilik, asoslanganlik, ilmiylik asosida olib borish;

Darsdan tashqari ma’naviy-marifiy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkonga ega bo‘lib, uni qaydarajada olib borish guruh rahbari, o‘qituvchi va tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog’liqdir.

3.3. Globallashuv davrida yoshlarda tinchlikparvarlik madaniyatini shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining natijalari.

Tinchlikparvarlik bu insonlarning tinch-xotirjam, yaratuvchanlik, buniyodkorlik bilan shug’ullanishi, ijod qilishi, yaratgan ijod mahsullarining uzoq yillar mobaynida xalqi, el-yurti, Vatani va umuman, insoniyatga xizmat qilishiga

¹Каримов.И.А Юксак маънавият – енгилмас куч –Т:”Маънавият”, 2008.-Б.-176.

² Яхшилков Ж.Я, Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя ва мafкура. Т.: Фан, 2015, 243-244 бетла.

ishonch-e'tiqodi, hayotning qadriga etish, tiriklikni ulug'lash ruhidagi faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog'liq axloqiy tamoyildir. Tinchlikparvarlik xususiyati o'zbek xalqining turmush tarzi, qo'shiqlari, alla va ertaklari, dostonlarida ham ifodalanadi. Chunki xalqimiz tinch-totuv yashashni, bunyodkorlik, yaratuvchanlikni afzal ko'radigan tinchlikparvar, mehnatkash, bolajon xalq. Xalqimizning ezgu niyatli, ochiq ko'ngilli, hammaga yaxshilikni ravo ko'rib yashaydigan xalq ekanini ko'pchilik chet ellik sayyoohlar, olimlar ham ta'kidlagan. Mas., mashhur venger olimi German Vamberi (1832-1913) o'z asarlarida turkiylarning mehmondo'st, tinchliksevar, sabr-qanoatli, og'ir-bosiq xalq ekanini ta'kidlaydi. O'zbek xalqi ham do'stlik, ahillik, hamjihatlik, bunyodkorlikni ardoqlab, shu kabi noyob xislatlari bilan umuminsoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shib kelayotgan xalq. Tinchlikparvarlik xalqimiz mentaliteti, orzu-niyatlari, xulq-atvoridagi bosh fazilatlardan hisoblanadi.

Ushbu masalaga chuqurroq va ilmiy yondashish uchun tinchlikpavarlik axloqiy tamoyilining yoshlari ongidagi holati va ularning axloqiy ongida qay tarzda shakllanganligini bilish uchun tajriba-sinov uchun Samarqand shahar So'zangaron tibbiyot kolleji 2-bosqich talabalari tanlab olindi. Tibbiyot kolleji talabalari kasbhunarlaridan kelib chiqib xalq tinchligi va sog'lig'i bilan mashg'ul bo'lganliklari bois ushbu emperik tadqiqot o'tkazishni shu erda lozim topdik.

So'zangaron tibbiyot kolleji o'quvchilarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida ma'nnaviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda o'quvchilarini ma'nnaviyat, axloq, insonlarning ichki dunyosining go'zalligi va axloqan pokligi, yuksak axloq-odobga, oliyjanob fazilatlar, yaxshilikka da'vat etuvchi, ma'nnaviy dunyosi keng, ular tomonidan go'zallikni yaratish haqidagi aniq tasavvurlarining mavjud bo'lishini talab etadi. Biz innovation tarbiya texnologiyalari vositasida ma'nnaviy-axloqiy ruhda tarbiyalanganligini pedagogik va psixologik ijtimoiy mezonlaridan foydalandik.

Psixologik mezonlar o'quvchilarning ichki dunyosini, ruhiyatini, inchunun butun ma'nnaviyati sayqal topgan, ular ma'rifatga, ilm olishga, yuksak axloq-odobga, oliyjanob fazilatlar, yaxshilikka da'vat etuvchi, ma'nnaviy dunyosi keng,

shaxslaroaro o‘zaro munosabatga kirishish jarayonida ijobiy tassavvurlarini anglab olishi natijalarida namoyon bo‘ladi.

So‘zangaron tibbiyot kolleji o‘quvchilarini axloqiy tamoyillar va yurt tinchligi g’oyasi asosida tarbiyalash maqsadida, innovation tarbiya texnologiyalari vositasida “*Tinchlikparvarlik – xalqimizning azaliy qadriyati*” mavzuda davra suhbat o‘tkazildi. Davra suhbatida soha mutaxassislar, ustozlar bilan birgalikda tashkil etdildi. Suhbatda kollej talabalari ishtirokchilarga savollar bilan murojaat qilishdi: “Yurt tinchligi g’oyasini shakllantirish qanday yo’llar bilan olib boriladi?”, “Jamiyat taraqqiyotida tinchlikni, barqarorlikni o‘rnini qaday izohlaysiz?”, “Hozirgi kunda yoshlarning ma’naviy dunyosini buzadigan, tinchlikparvarlikni shakllantirishga yo’l qo’ymaydigan illatlarni aytib bering?”, “Axloqiy tamoyillarlarning yoshlar hayotidagi o‘rnini izohlab bering?”, “Tinchlik madaniyatini shakllantirishda konstitusianing o‘rnini izohlab bering?” kabi shularga o‘xhash ko‘pgina savollar bilan murojaat qilishdi va ularda ma’naviyat, axloq, yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari ularning bartaraf etishda guruh murabbiylarining faoliyatida innovation tarbiya texnologiyalarining o‘rni haqida, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining ahamiyati haqida tasavvurlari kengaydi. Davra suhbatidan tarbiya texnologiyalari, ma’naviy dunyo, axloq-odob qoidalari, milliy qadriyatlar, axloqiy ong, ma’naviy qadriyatlar haqida ko‘pgina ma’lumotlarga ega bo‘lishdi va yaxshi ta’surotlarga ega bo‘ldilar.

Xalqimiz murosai madora, qo’shni haqi, xalq mulki, yaxshilik nima-yu, yomonlik nima ekanligini juda yaxshi biladi. Unga xos “Bir kun urush-janjal bo’lgan erdan qirq kun baraka qochadi”, “YOn qo’shni – jon qo’shni”, “Qo’shning tinch – sen tinch”, “Tiriklikning boshi birlikda” kabi serma’no maqollar tinchlik, ahillik, hamjihatlikning asl mazmun-mohiyatini aks ettirib, tarbiyaviy ahamiyatini ta’kidlaydi. Mamlakatimizning hozirgi tashqi siyosati ham aynan xalqimizning tinchlikparvarligi, yaxshi qo’shnichilik ibrati, beg’araz va sof niyatli xalq ekanidan dalolatdir.

Tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosini, ruhiyatini, butun ma’naviyati sayqal topgan, ular ma’rifatga, ilm olishga, yuksak axloq-odobga, oliyjanob

fazilatlar, tinchlikparvarlikka da'vat etuvchi, ma'naviy dunyosi keng etib tarbiyalashda kasb-hunar kolejlarining o'rni beqiyosdir. Biz tanalagan mavzuimiz yuzasidan tadqiqot ishlarini So'zangaron Tibbiyat kollejida tajriba-sinov ishlarini olib bordik.Tibbiyat kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashdagi maqsadini aniqlab oldik: talabalarni bag'rikeng, ruhiyatini, butun ma'naviyati sayqal topgan, ular ma'rifatga, ilm olishga, tinchlik madaniyati, axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalanganlik, yaxshilikka da'vat etuvchi, ma'naviyat, axloq-odob qoidalari haqidagi aniq tasavvurlarini shakllantirishdan iborat.

Tibbiyat kolleji o'quvchilarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida tinchlikparvarlik tamoyilari ruhida tarbiyalashga doir tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: *aniqlovchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi*.

Boshlang'ich bosqichda Tibbiyat kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida tinchlikka bo'lган munosabat, daxldorlik hissi, zararli g'oyalarga qarshi immunitetli bo'lish va Yurtboshimiz I.A.Karimovning asarlarida tinchlikparvarlik tamoyili bo'yicha aytilgan fikrlari, Konstitutsianing moddalarida tinchlik haqidagi fikrlar mavjudligi borasidagi nazariy bilimlar tahlil etildi. Tibbiyat kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida inson baxti uchun zarur bo'lган moddiy va ma'naviy ne'matlarga, avvalo, tinchlik orqali erishish mumkinligini aniqlash zarur. Tinchlik hukmron bo'lsagina buyuk va ezgu orzularni ko'nglimizga tugishimiz, ularning ro'yobi uchun intilishimiz mumkin. Yurti tinch, ko'ngli xotirjam xalqqa to'yu tantanalar, shodligu xurramlik yarashadi, bayramlar tatiydi, ahillik va totuvlik, qut va baraka hamdam bo'ladi. Xalqimiz bu oliy ne'matni doim ulug'lab kelishining, har safar duoga qo'l ochganda Yaratgandan, avvalo, el-yurtga tinchlik va osoyishtalik, farovonlik va obodlik tilashining sababi ham shunda.

Tibbiyat kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida tinchlikpavarlik tamoyili ruhida tarbiyalashni tashkil etish uchun guruh rahbarlari ish rejalarini tahlil etildi va birlikda muhokama etildi.

“Tinchlikparvarlik – xalqimizning azaliy qadriyati” mavzusi bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini baholash varaqasi (tajriba avvalida 30 nafar o‘quvchi)

№	Savollar	Baho		
		Yuqori	O‘rta	Past
1	Tinchlik so‘zining ma’nosini bilasizmi?	11	15	4
2	Yurt tinchligi g’oyasini qaysi fanda uchratish mumkin?	8	12	10
3	Tinchlikparvarlikka qarshi bo’lgan illatlarni bilasizmi?	10	11	9
4	O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qaysi moddasida Tinchlikparvarlik tamoyili asoslangan?	5	15	10
5	O’zbek milliy maqollarida tinchlik va tinchlikparvarlik tamoyilarini tarannum etadiganlarini bilasizmi?	12	12	6
6	Yurtboshimizning qaysi asarida tinchlikpavarlik va uni o’rnatish jarayoni aks ettirilgan?	5	15	10

Tibbiyot kolleji talabalarini yurt tinchligi va uni shakllantiradigan ob’ektiv va sub’ektiv omillari bilan tanishtirish, respublikamizda tinchlikni saqlash, barqarorlik, xavsizlik shartlari jarayonlarini tushintirishni tashkil etish uchun guruh rahbarlari ish rejali tahlil etildi va birlikda muhokama etildi.

Asosiy bosqichda – Tibbiyot kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida tinchlikparvarlik tamoyili ruhida tarbiyalashga doir tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Ya’ni turli tarbiyaviy ahamiyatga ega kechalar, tarbiyaviy, ma’naviyat soatlarida va darsdan tashqari tadbirlari jarayonida tarbiya texnologiyalarni joriy qilish, tinchliksevarlik ruhida tarbiyalash borasidagi **“Mahallang tinch – sen tinch”, “Yurt tinchligi – oliy qadriyat”, “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Vatanparvarlik millat fazilati”** mavzularda ma’ruzalar, davra suhbatlari va noan’anaviy tarbiya texnologiyalari asosida bir

qancha axloqiy ongini shakllantirishga doir tadbirlar va ma’naviyat soatlari tashkil etildi.

Yakuniy bosqich jarayonida tarbiyaviy faoliyat shakllarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichi amalga oshirildi. Tibbiyot kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida yurt tinchligi g’oyasi asosida tarbiyalash faoliyati yo‘lga qo‘yilib, talabalarning axloqiylik ruhda tarbiyalanganlik darajasi tahlil qilindi. Guruh rahbari bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni tahlil o‘tkazildi. Tibbiyot kollejlarida mustaqillikka erishish jarayonida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida talabalarni tinchliksevarlik ruhida tarbiyalash, barkamol avlodning muammolarini o‘rganish va shu asosda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortmoqda. Shu nuqtai nazardan talabalarni tinchlikpavar, daxldorlik hissi asosida tarbiyalash muammosi davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan vazifadir.

“Tinchlikparvarlik – xalqimizning azaliy qadriyati” mavzusi bo‘yicha o‘quvchilarining bilimlarini baholash varaqasi (tajriba so‘ngida 30 nafar o‘quvchi)

№	Savollar	Baho		
		Yuqori	O‘rta	Past
1	Tinchlik so‘zining ma’nosini bilasizmi?	18	10	2
2	Yurt tinchligi g’oyasini qaysi fanda uchratish mumkin?	17	10	3
3	Tinchlikparvarlikka qarshi bo’lgan illatlarni bilasizmi?	19	9	2
4	O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qaysi moddasida Tinchlikparvarlik tamoyili asoslangan?	16	10	4
5	O’zbek milliy maqollarida tinchlik va tinchlikparvarlik tamoyilarini tarannum etadiganlarini bilasizmi?	18	10	2

6	Yurtboshimizning qaysi asarida tinchlikpavarlik va uni o'rnatish jarayoni aks ettirilgan?	18	10	2	
---	-------------------------------------------------------------------------------------------	----	----	---	--

Tibbiyot kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida tinchlikpavarlik madaniyati asosida tarbiyalashga doir tajriba-sinov ishlarini o'tkazish natijasida xalqimiz tinchlikni yuksak qadrlashini, o'z orzu-intilishlarini, ezgu niyatlari ro'yobga chiqishining muhim kafolati ekanligini bilib oldilar. Davlatimiz rahbari rahnamoligida istiqlol yillarida erishgan eng katta boyligimiz xalqimizning tinch va osuda hayotidir. Jamiyatimizda qaror topgan o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi oljanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un yashash tamoyili yanada mustahkamlanib borayotir. Zotan, osoyishta hayot, avvalo, bu odamlar o'zaro ahil-inoq yashab, yaxshi kunlarini bahamjihat o'tkazish singari milliy qadriyatlar asosida tibbiyot kolleji o'quvchilarini daxldorlik asosida tarbiyalanganlik natijalari o'z aksini topdi.

Tibbiyot kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida tinchlikpavarlik tamoyili asosida tarbiyalash jarayonida, tajriba-sinov ishlarining natijalariga muvofiq talabalarni yurt tinchligi va milliy mafkura asosida tarbiyalanganligi borasida fikr to'la tasdiqlandi. Uning tasdiqlanishi Tibbiyot kolleji talabalarini innovation tarbiya texnologiyalari vositasida bag'rikenglik asosida tarbiyalanganligini samarali va muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilish ehtimoli ko'zda tutilgan metodikaning pedagogik jihatdan to'g'ri asoslanganligini isbotlandi.

Tajriba–sinov maydonchasi: kasb-hunar kolleji tizimida o'tkazilgan tajriba sinovlarining natijalari

Ma'ruza mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi

Mavzu	"Globallashuv davrida yoshlarda tinchlikparvarlik madaniyati va daxldorlik hissini shakllantirish masalalari"
1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
Talabalar soni:20–30 gacha	Vakti: 80 daqiqa

O‘quv mashg’ulotning shakli	Informasion baxs munozarali dars
Ma’ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tinchlikparvarlik tushunchasining ma’nosи 2. Yurt tinchligi — ulug’ ne’mat, barqaror taraqqiyot garoovidir. 3. O’zbekistonning tinchlik yo’lidagi xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko’p tomonlama hamkorligi
Mashg’ulotning maqsadi:	Tinchlikparvarlik tamoyilini ijtimoiy, ma’naviy-axloqmy ko’rinishlari, fuqarolik daxldorligi tushunchasini yoshlar ongida shakllantirish
Pedagogik vazifa:	O‘quv faoliyatining natijasi:
Yoshlarga tinchlikparvarlik tamoyili asosida shakllangan madaniyat va qarashlar, fikrlarning ahamiyatini yoshlarga yetkazish.	Talabalar ta’lim jarayonida tinchlikni mohiyatiga, qadriga va shart-sharoitlarni bilib oladilar va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarini o’rganadilar.
Shaxs ma’naviyatini tarbiyalashda ta’lim muassasalari va oila hamkorligi	Talabalarga shaxs ma’naviyatini tarbiyalashda allomalar asarlarining ahamiyati yoritiladi.
O‘qitish usullari va texnika	Ma’ruza, «Klaster» texnologiyasi, «Nimada?» texnologiyasi, «FSMU» uslubi
O‘qitish vositalari	Komp’yuter tenologiyasi, slaydlar
O‘qitish shakli	Jamoa bo‘lib ishlash
O‘qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta’minlanganligi.
Mustahkamlash	Talabalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollarni beradi. FSMU usullaridan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi.
Baholanadi	Kuzatish ogzaki nazorat, savol –javob, topshiriklar

1.2.“ Globallashuv davrida yoshlarda tinchlikparvarlik madaniyati va daxldorlik hissini shakllantirish masalalari”

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	Ta’lim oluvchi
	Ta’lim beruvchi	
1. Mavzuga kirish (15 dakika)	1.1 O‘quv kursi nomini aytadi. Ekranga yangi mavzuning rejasi yoziladi.(1–ilova). 1.2 Mavzuning kirish kismi tushuntirib beriladi. 1.3 O‘quvchilar o‘quv faoliyatini baholash	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar

	mezonlari bilan tanishtiriladi.	Tinglaydilar
2–bosqich Asosiy bosqich (55 dakika)	<p>1.1 Powerpoint dasturi yordamida slaydlarni namoyish kilish va izoxlash bilan mavzu buyicha asosiy nazariy jixatlarini tushuntirib beradi</p> <p>1.2 Tinchlikparvarlik haqidagi qarashlariga oid ma'lumotlarni beradi.</p> <p>1.3 Shaxs ma'naviyatini shakllantirish konsepsiyasiga oid ma'lumotlarni beradi.</p> <p>1.4 Sharq mutafakkirlari ma'naviy axlokiy qarashlariga oid ma'lumotlarni beradi.</p> <p>1.5 «Klaster» metodi asosida o'quv materiali Mustahkamlaniladi.</p>	Yozadilar. Yozadilar. Tinglaydilar Savollarga javob beradilar. Tahlil kiladilar.
3–bosqich. Yakuniy bosqich.	<p>3.1 Mavzu buyicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa kiladi.</p> <p>3.2 O'quvchilar bilimlarini Mustahkamlash uchun savollarni beradi. FSMU , Insertdan foydalanim, mavzu mustahkamlanadi.</p>	Savollar beriladi. Vazifani yozib oladilar.

Mavzu: “Globallashuv davrida yoshlarda tinchlikparvarlik madaniyati va daxldorlik hissini shakllantirish masalalari”

Reja:

1. Tinchlikparvarlik tushunchasining ma'nosi
2. Yurt tinchligi — ulug' ne'mat, barqaror taraqqiyot garovidir.
3. O'zbekistonning tinchlik yo'lidagi xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorligi

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar ta'lim jarayonida yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash imkoniyatlari bilan tanishadilar. Talabalarga barkamol avlod tarbiyasida ta'lim muassasalari va allomalarning bebaho asarlari ahamiyati yoritiladi.

2–ilova

Baholash mezon iva kursatkichlari


Guruhsiz	Savolning tulik va anik yoritilishi	Misollar bilan muammoga yechim topishi	Guruh a'zolarining faoliyoti	Jami ball
----------	-------------------------------------	----------------------------------------	------------------------------	-----------

	0–5 ball	0–5 ball		

Globallashuv davrida yoshlarda tinchlikparvarlik madaniyati va daxldorlik hissini shakllantirish masalalari.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilanoq dunyodagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro ikki hamda ko'p tomonlama munosabatlarini belgilashda birinchi navbatda tinchlikparvarlik tamoyiliga amal qiladigan ichki va tashqi siyosat yuritishini jahonga ma'lum qilgan edi. Chunki tinchlik, xotirjamlik hukm surgan mamlakatdagina farovon va obodlik uchun intilish, ezgu rejalarни amalga oshirish ishtiyoqi hamda imkoniyatlari yuzaga keladi. Xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, turli tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi kurash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda ushbu hayotiy haqiqatning qadr-qimmati yanada yuksak va teran mazmunga ega. Istiqlol yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi ham ana shu ustuvor vazifalar ijrosiga og'ishmay amal qilib kelinayotgani bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «... **Biz dastlabki kunlardanoq mustaqil ravishda tashqi siyosat yurita boshladik. Tinchlik va hamjihatlik prinsiplarini olg'a surdik. O'zbekiston iqtisodiy va ma'naviy salohiyatli buyuk davlat ekanini anglatib turdik va bu haqiqatni amalda namoyon eta boshladik.**» Albatta, O'zbekiston hukumati tomonidan tinchlikparvar ichki va tashqi siyosatning targ'ib etilishida qator tarixiy, g'oyaviy-ma'naviy asoslar mavjud. Bugun mehnatkash, bag'rikeng o'zbek xalqi, ko'p millatli O'zbekiston uzoq o'tmish silsilasida erishgan ma'naviy qadriyatları negizida fuqarolik jamiyatini barpo etishida osoyishtalikning ahamiyati beqiyos. Chunki, barqaror taraqqiyotning uzlusiz ta'minlanishi uchun, xalqaro sahnada tinchlikni qo'llab-quvvatlash dolzarb masala hisoblanadi. **Mashhur Amerika olimi Samuel Hantington o'zining asarlarida yangi davrda «madaniyatlar to'qnashushi»ni bashorat qilgan bo'lsa, biz buni «madaniyatlar uchrashushi» deb baholab, insoniyatning endigi tarixiy bosqichi o'zaro hamjihatlik va osoyishtalikda yashashi uchun katta bir imkoniyat davri bo'ladi, degan fikrni ilgari surmoqchimiz.** Binobarin, bozor iqtisodiyoti asosidagi dunyoviy jamiyatga intilish, bu — dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tanlagan magistral yo'l bo'lib, mazkur oqim qaysidir ma'noda davlatlar o'rtasida istaymizmi-yo'qmi o'zaro kompromiss (kelishuv) muhitini yaratish zaruratini ifodalaydi.

Klaster metodi



«INSERT» jadvali

<i>Javob variantlari</i>	<i>V</i>	<i>+</i>	<i>-</i>	<i>?</i>
Tinchlik madaniyati				
Sivilizatsiya madaniy – ma’naviy rivojlanishning mahsuli sifatida.				
Mustaqillik va madaniyatimiz taraqqiyotining istiqbollari.				
Moddiy va ma’naviy madaniyat.				

V – bilaman.

+ - yangi ma'lumot.

- - bilganlarimga zid.

? – meni o'ylantirmoqda.

Tajriba sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi.

Falsafiy fanlar darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida tajriba sinov ishlarining tizimini tashkil qilish va uning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyatini tasdiqlovchi va bir biri to'ldirovchi metodlar majmuasini qo'lladik.

Tajriba sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2014-2015 o'quv yillari mobaynida Suzangaron tibbiyot kolleji o'quvchilari va o'qituvchilari bilan tadqiqot ishlari o'tkazildi. Tadqiqot ishni olib borishda 203, 204–guruh mos ravishda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Bularda nazorat guruhiga 203–guruh, tajriba guruhiga 204–guruhi talabalari ajratildi. Shundan 30 ta o'quvchi nazorat guruhlariga, 30 ta o'quvchi tajriba guruhlariga jalg qilindi. Tajriba sinov ishlarida jami 60 ta o'quvchi ishtirok etdi.

Tajriba sinov va nazorat maydonlari tarkibi

Nº	Sinov maydoni	Tajriba guruhi	O‘quvchi lar soni	Nazorat guruhi	O‘quvchi lar soni	O‘quvchilarning umumiy soni
1	Suzangaron tibbiyot kolleji	203 guruh	30	204 guruh	30	60

Tajriba guruhlarda dars taklif etayotgan pedagogik texnologiyalarni kullah, rivojlantirish asosida, nazorat guruhlarida esa an’anviy uslubda amalga oshirildi.

Pedagogik tajriba sinov–ishlarini tashkil etish metodikasi yukorida, o‘quvchilar milliy g’oya va ma’naviyat asoslari fanini uzlashtirishda yul kuyayotgan xato va kachiliklarni ular oldidagi muammolarni urganish jarayoniga asoslanadi. Tajriba–sinov ishlarini kuyidagi tartibda dasturi ishlab chikildi.

Tajriba–sinov dasturi.

1.O‘rta maxsus kollejlarida “Falsafiy” fanlarining umumiy hajmini aniklash va fanning ukitilish jarayonini urganish va tahlil kilish.

2. Har bir sinflarda “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fanining o‘qitilish jarayonlarini kuzatish, o‘quvchilarning fanga oid nazariy va amaliy bilimlarini aniklash.

3. “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fani yuzasidan o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan tajriba sinov dars ishlanmalarini tayyorlash

1. “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fani mashg’ulotlarini tashkil etishda:

- A) interaktiv
- B) innovasion
- S) axborot texnologiyalar
- D) tabaqlashtirib o‘qitish

Ye) didaktik uyinli o‘qitish

J) muammoli o‘qitish metodlaridan foydalanish.

5. Har bir metod buyicha olingan natijalarni aniklash va takkoslash.

6. Olingan nazariy va amaliy bilimlar natijalarini urganish va takkoslash, o‘quvchilar bilim va kunikmalarida uzgarish darajasini kayd kilish.

7. Olingan ilmiy natijalarni kafedra yig’ilishida, ilmiy konferensiyalarida olib chiqish va ular asosida tavsiyalar berish.

Utkazilgan tajriba–sinov ishi yuqoridagi dastur asosida tashkil etildi.

3.1–jadvalda qayd etilgin tajriba guruhalarda biz ishlab chiqqan texnologiya asosida “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” darslarini yo’lga qo’yish uchun dastlab ish rejalar, kalendarli reja va kunlik ish rejalar o‘rganildi va tahlil kilindi. Tajriba –sinov ishlarida tajriba guruhi yuqorida keltirilgan noan’naviy usullar, sahnalashtirish, trening, boshkotirma, turli xil topishmoklar shaklida dars tashkil etildi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishga sabab buldi. Buning isboti sifatida jadval 3.2 da tajriba guruhi a’zolarining DTS asosida bilim, kunikma va malakalari monitoringi natijalari aniklandi. Ushbu jadvalda tajriba guruhi sinflar hamda o‘quvchilar soni asosida samaradorlik foiz hisobida aniq qilib kursatilgan.

Globallashuv davrida yoshlarda tinchlikparvarlik madaniyati va daxldorlik hissini shakllantirish masalalari mavzusida olib borilgan tajriba–sinov natijalariga ko‘ra kollej o‘quvchilari axloqiy me’yorlar asosida tarbiyalanmoqlar. Yangi pedagogik texnologiyalar va innovasion tarbiya usullarini qo’llanishi sifat samardorligini oshirib boradi.

3-bob bo'yicha xulosalar

O’zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon shu vaqtgacha tadrijiy ravishda amalga oshirib kelayotgan tashqi siyosati bu shunchalik kuzatuvchi maqomidagi siyosat emas, balki xalqaro munosabatlar tizimining teng huquqli, faol a’zosi sifatidagi aniq maqsadlarni ko’zlagan tinchlikparvar siyosat ekanligini har bir tashlanayotgan jiddiy qadamlar misolida ko’rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda olib borayotgan tashqi siyosatini, uning mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradigan strategik ustuvor yo'naliishlarini yanada takomillashtirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lishi tabiiydir. SHu bois 2012 yil sentyabrь oyida «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Unda O'zbekiston Respublikasining turli harbiy siyosiy bloklarga kirmasligi, o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozisiyaga ega bo'lishi hamda o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi, ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi kabi tinchlikparvarlik tamoyillariga yo'g'rilgan ezgu-maqсадлар mujassamdir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, **qon-qonimizga singib ketgan bizga tinchlik va omonlik kerak, tamoyilini amalga oshirish barchamiz uchun dolzarb vazifadir**. Shubhasiz, tinchlik diplomatiyasini targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash xalqlar hamda davlatlar o'rtasidagi do'stlik, yuksalish va taraqqiyot omilidir.

Mustaqillik davrida kasb-hunar kolleji o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy ruhida tarbiyalash, kundan-kunga ulg'ayayotgan avlodning muammolarini o'rganish va shu asosda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortmoqda. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarni tinchlikparvarlik tamoyili asosida tarbiyalash muammosi davlat ahamiyatiga molik bo'lgan vazifadir.

Birinchidan, innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida o'quvchilar ongida tinchlikpavarlik tamoyillarini asoslari to'g'ri tashkil qilish va yo'naltirish tamoyillarini boyitishga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning ma'naviy-madaniy merosi, milliy qadriyat va an'analar, milliy maqollar, tarixda o'tgan milliy qahramonlarning tinchlikparvarlik faoliyati o'quvchilarning yurt tinchligi g'oyasi asosida tarbiyalashni tashkil etishga samarali ta'sir etadi.

Quyidagi muammolar bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarни beramiz:

birinchidan, innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida o‘quvchilarni. Markaziy Osiyoning «yadro qurolidan xoli hudud»ga aylantirilishi borasida Prezident I.A.Karimovning o’rni, Afg’iston bo'yicha Toshkent muzokaralari, mintaqaning kelgusidagi xavfsizlik arxitekturasining mustahkamlanishida O’zbekiston tashabbuslari xususida o‘quv qo‘llanma va uslubiy qo‘llanmalar yaratish zarur;

ikkinchidan, o‘quvchilarini yurt tinchligi g’oyasi asosida tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishda texnologik yondoshuv, ya’ni har bir bosqichni alohida –alohida loyihalab olish, erishiladigan natijalardan kelib chiqib, maqsad va vazifalarni belgilab ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash samaradorligini oshirish;

uchinchidan, o‘quvchilar ongida tinchlik madaniyatini shakllantirish uchun “ommaviy madaniyat” illatlari va ularni xavfini tushuntirish, reproduktiv xavfsizlikni tushintirish, tinchlikni kompleks qadriyat sifatida aks ettiruvchi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish;

XULOSA

XX asrni oxiri va XXI asrning boshlarida o`zbek xalqi tarixi uchun butunlay yangi davrni boshlandi. Bu jarayon mustaqillik, millat tushunchalari bilan bog`liq bo`lgan milliy uyg`onish, butunlay yangi tarixiy sharoitlarda butunlay yangi milliy davlatchilikka asos solish singari ijtimoiy-tarixiy hodisadir. O`zbekiston Respublikasi o`zining juda katta aqliy va jismoniy imkoniyatlarini namoyon etib, jahon siyosatiga eng zamonaviy fikrlar bilan kirib borayotgan, o`zining novatorlik kuchini ko`rsatayotgan, davlat hayotida yuz berayotgani singari jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ham tubdan isloh qilishga ta`sir qiladigan g`oyatda yangi imkoniyatlarini ko`rsatib bormoqda.

Mustaqillik, millat tushunchalari va bevosita uning tashabbuskori Islom Karimov nomi bilan bog`liq bo`lgan uchinchi Renessans davri boshlandi. Albatta, bunday milliy taraqqiyot bir necha o`n yilliklar va hatto asrlarni qamrab oladi. Biroq, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, XXI asr O`zbekiston va o`zbeklar hayotida yangi sivilizatsiya davri bo`lib qoladi. O`zbekiston xalqi va Yurtboshimizning davlatni ichki va tashqi siyosatidagi oqilona, tinchlikparvarlik harakatlari tufayli barqaror taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy o'sish singari ma'naviy-axloqiy yutuqlarga erishib bormoqda. Ushbu dissertasiyada tadqiq qilingan tamoyil axloqshunoslik fanidagi markaziy tamoyillaridan biri bo`lgan tinchlikparvarlik tamoyili haqidagi nazariy ishlanmalar, ilmiy izlanishlardir. Tinchlikparvarlik tamoyili Prezidentimiz I.A.Karimovning bir qator asarlarida va bir qator mualliflarning asarlarida batafsil o'rganilganligini guvohi bo'ldik. Tinchlikparvarlik tamoyili va ma'naviy-axloqiy taraqqiyotda tinchlikparvar xalqning irodasi yuzasidan o'tkazgan ilmiy tadqiqotmiz quyidagicha xulosa chiqarishga olib keldi:

birinchidan, tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi, kamol topishining omili va zaruriy shartidir. O`zbek xalqi tinchlikni o'z orzu-tilishlari, maqsad muddaolari ro'yobga chiqishining sharti deb biladi. Shuning uchun ham doimo yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi;

ikkinchidan, yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy etukligi – yurt tinchligini saqlashning murim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan bu g'oya milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi;

uchinchidan, tinchlikni saqlash va mustahkamlash foyalari YUNESKOning Nizomida qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, unda "kishilar ongida tinchlikni himoya qilish foyalarini qaror toptirish lozim, chunki urush to'frisidagi qarashlar aynan kishilarning ongida paydo bo'ladi" deb yozib qo'yilgan. Agar zamonaviy majarolar tabiatining o'zgarganligini hisobga oladigan bo'lsak, YUNESKO Nizomidagi ushbu foyalarning naqadar dolzarb tus olganligining guvohi bo'lamiz;

to'rtinchidan, hozirgi paytda islom sivilizasiyasi bilan islomiy bo'limgan sivilizasiyalar o'rtasida yangi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi tartibdagi geosiyosat xalqaro tinchlikparvarlik ruhiga salabiy ta'sir ko'rsatib, tinchlikni asarb qolishni xavch ositiga solib qo'ymoqda;

beshinchidan, O'zbek mahallalari yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni saqlashda bizning tayanchimiz va suyanchimizdir. Bugungi kunda ming-minglab mahalla posbonlari «O'zingni, o'z uyingni o'zing asra» da'vati asosida o'z uylari, o'z mahallalarining xavfsizligini saqlayotgani muhim ahamiyatga ega. Yurt asoyishtaligini, aholi tinchligini saqlash faqat qurolli kuchlar va huquq-tartibot organlarining vazifasi emas. Bu har birimizning muqaddas burchimizdir;

oltinchidan, Tinchlikparvarlik – mustaqillikni mustahkamlash davrining yuksak va eng qadrli qadriyatidir. Mamlakatimizda qaror topgan siyosiy bag'rikenglik, dinga ishonuvchilarni majburan o'z e'tiqodidan qaytarib, dinni ma'muriy tarzda ta'qiqlab qo'yishning har qanday amaliy va nazariy ko'rinishlariga chek qo'yadi. Shuningdek, u jamiyatdagi barcha konfessiyalar,

ya'ni dinlar, cherkov va diniy birlashmalar, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarni teng huquqli deb biladi, biron bir diniy imtiyozni boshqa dinlardan ustun qilib qo'ymaydi. SHu bilan birga, jamiyatda shaxs kamolotida ilmiy dunyoqarash qaror topishini vijdon erkinligining amalda namoyon bo'lish belgilaridan biri deb hisoblaydi;

ettinchidan, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik Deklarasiyasini O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990 yil 20 iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasida qabul qilingan. va mustaqillikning daslabki huquqiy asosi sifatida tan olingan bo'lib unda mamlakat tinchligini ta'minlashga oid birqancha g'oyalar mujassamlashgan. Konstitusiya qabul qilinganicha tinchlikka erishish tamoyillari va ichki va tashqi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga asos bo'lib rol o'ynagan;

sakkizinchidan, Mustaqillik biz uchun — o'zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson manfaati, erkinligi va farovonligining, biz ko'zlagan demokratik jamiyat barpo etishning garovidir degan ezgu g'oya to'plamning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Mustaqillik har bir insonga to'la baxt-saodatni va'da qilmaydi, balki, baxtli yashashga imkoniyat yaratib beradi. Barqarorlik, ijtimoiy tartibot, fuqarolarning tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlamasdan mamlakatimizning hozirgi kuni hamda kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu axloqshunoslikdagi tinchlikparvarlik tamoyilini hayotimizga naqadar aloqador eganligini bildiradi;

to'qqizinchidan, fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida kasb-hunar kolleji o'quvchilarini tinchlik, totuvlik tamoyillari asosida tarbiyalash, kundan-kunga ulg'ayayotgan avlodning muammolarini o'rganish va shu asosda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortmoqda. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarini tinchlikparvarlik tamoyili asosida tarbiyalash muammosi davlat ahamiyatiga molik bo'lgan vazifadir.

o'ninchidan, kasb-hunar kollejlarida innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida o'quvchilar ongida tinchlikpavarlik tamoyillarini asoslari to'g'ri

shakllantirish va yo‘naltirish tamoyillarini boyitishga nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarimizni beramiz:

birinchidan, kasb-hunar kollejlari va akademik liseylarda tarbiyalanuvchi barkamol avlodning ongida axloqiy tamoyillarni, ya’ni tinchlikpavarlik tamoyilini to’lificha singdirish uchun o’quv rejalarida mavjud ijtimoiy fanlar tarkibida “Yurt tinchligining ijtimoiy-axloqiy asoslari” degan mavzuni kiritish zarur;

ikkinchidan, kasb-hunar kollejlari, ayniqsa tibbiyot mutaxasisligiga mo’ljalangan kollejlarida “ma’naviy-axloqiy tahdidlarni bartaraf etish chora tadbirlari” ishlab chiqilib, uni reproduktiv tahdid singari ko’rinishlarini aks ettiradigan filmlar ishlab chiqish zarur. O‘quvchilarini yurt tinchligi g’oyasi asosida tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishda texnologik yondoshuv, ya’ni har bir bosqichni alohida –alohida loyihalab olish, erishiladigan natijalardan kelib chiqib, maqsad va vazifalarni belgilab ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash samaradorligini oshirish;

uchinchidan, o‘quvchilar ongida tinchlik madaniyatini shakllantirish uchun ijtimoiy-siyosiy mavzudagi uslubiy ko’rsatmalar ishlab chiqish va bu bo'yicha Samarqad davlat universiteti professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasmiy hujjatlar:

- 1.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 40 б.
- 1.2. Ўзбекистон Республикаси “Мустақиллик Декларацияси” – Тошкент: 1990. – 24 б.
- 1.3. “Баркамол авлод йили” давлат дастури. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 80 б.
- 1.4. Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилишда партиялар ролини янада кучайтириш тўғрисидаги Қонун. 2006 йил 8 ноябрь. // ЎзР Олий Мажлиси Ахборотномаси. – Тошкент, 2006. – № 11. – Б. 75.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

- 2.1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
- 2.2. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. – Т.5. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
- 2.3. Каримов И.А Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. – Т.6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 342 б.
- 2.4. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. – Т.10. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
- 2.5. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Т.12. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
- 2.6. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 448 б.

- 2.7. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.– Б. 29-65.
- 2.8. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 2.9. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 415-683.
- 2.10.Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб ҳисоблашар эди // «Независимая газета» мухбири саволларига жавоблар. 2005 й. 14 январь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 64 б.
- 2.11. Каримов И.А. Ҳамкорлик, тараққиёт ва хавфсизликни таъминлаш йўлидан // Халқ сўзи. – 2010 йил 22 сентябр.
- 2.12. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳатларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. – Т.15. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 320 б.
- 2.13.Каримов И.А. Ўзбекистон Мустақилликка эришиш остонасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

3. Kitob va turkum nashrlari:

- 3.1.Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010.
- 3.2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Мерос, 1993. – 210 б.
- 3.3. Абу Наср Форобий. Фазилат, баҳт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2001. – 98 б.
- 3.4. Абу Райҳон Беруний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. –Тошкент: Фан, 1972. – Б. 68.

3.5. Анчуков С. Геополитика как идеология и практика мирового исторического процесса. – М.: Страна, 1999. – 120 с.

3.6. Жўраев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий мажаролар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 188 б.

3.7. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б 458.

3.8. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.

3.9. Ибн Сино. Фалсафий рисолалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1963. – 109 б.

3.10. Очилдиев А.С. Бугунги дунёning мафкуравий манзараси: монография /А.Очилдиев; Масъул муҳаррир: Қ.Назаров; ЎзР Фан ва техн. Дав. қўмитаси, Респ. маънавият ва маърифат кенгаши, Ўзб-н файласуфлари миллий жамияти. – Тошкент: Ижод дунёси , 2002. – 32 б.

3.11. Очилдиев А.С. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Муҳаррир, 2009 – 96 б.

3.12. Тўраев Б., Убайдуллаев У. Ўзбекистон минтақада тинчлик химоясида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 244 б.

3.12. Отамуродов С., Мамашокиров С., Холбеков А., Лафасов М. Марказий Осиё: ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. – Тошкент: IJOD DUNYOSI, 2001. – 31 б.

3.13. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 395 б.

3.14. Бу муқаддас ватанда азиздир инсон. – Тошкент: Ғофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – 145 б.

3.15. Слипченко В. Война будущего (прогностический анализ). – М.: Глобус, 2001. – 198 с.

3.16. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли лугати // Қ.Назаров таҳрири остида. Тошкент: Ғофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий

уий, 2009. – Б. 295

3.17. Тинчлик ва бағрикенглик атамалари изоҳли луғати. – Тошкент: ЖИДУ, 2005. – 140 б.

3.18. Фалсафа: қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 496 б.

3.19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. – Т.4. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2008. – 608 б.

3.20. Ўзбекистон: динлараро ҳамжиҳатлик – тинчлик гарови. – Тошкент: ЖИДУ, 2005. – 221 б.

4. Dissertasiya va dissertasiya avtoreferati:

4.1. Юлдашева М. М. Ҳозирги даврда мафкуравий таҳдидлар намоён бўлишининг хусусиятлари ва уларнинг олдини олиш йўллари: Дис. Фалс. фан. ном. –Т.: ЎзМУ, 2010. – 167 б.

4.2. Сидоров И.В. Формирование справедливости в контексте этики.: Автореф. дис. ... канд.филос.наук. –М.: Академия, 2008. – 24 с.

4.3. Пахрутдинов Ш.И. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таҳди: Сиёс. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: Академия, 2001. – 18 б.

4.4.Пахрутдинов Ш. Таҳдид – ҳалокатли куч: Мақола ва маърузалар тўплами / Ш.Пахрутдинов; ред. А.Азизхўжаев; Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. – Тошкент: Академия, 2001. – 317 б.

5. Jurnal va gazetalardagi maqolalar:

5.1. Каримов.И.А. Ўтганларни хотирлаш, кексаларни эъзозлаш бизнинг фарзандлик бурчимиздир. 2015 йил 9 май “Хотира ва кадрлаш” куни муносабати билан сўзлаган нутқидан олинган. // Zarafshon газетаси 2015 № 62, 2-бет.

5.2. Баҳодир Зокир. Инсоният истиқболи: Ғарбона ва Шарқона талқинлар // Тафаккур. –Тошкент, 2012. -№ 1. – Б. 100 - 108.

5.3. Шавкат X. Муроса – тинчлик ва барқарорлик омили. //
Фалсафа ва хуқуқ. –Тошкент, 2009. -№ Maxsus сон. –Б. 86 - 87.

6. Konferensiya materiallari:

6.1. Нурматова М.А. Ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги //
Маънавий янгиланиш жараёнларида этика ва эстетика фанларининг
долзарб муаммолари:. Республика илмий-амалий конференция
материаллари. –Тошкент: ЎзМУ, 2011. –Б. 20-26.

6.2. А.Жўраев. Тинчликпарварлик мухим ахлоқий эҳтиёж сифатида
Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёт йўли ва ижтимоий-фалсафий
тафаккур янгиланиши. Республика Ёш олимлар илмий конференсияси
материаллари. Т.2011. 1-қисм. –Тошкент: ЎзМУ, 2011. –Б. 209-212.

7. Internet saytlari:

- 7.1. htt: // www.un.org
- 7.2. htt: // www.unsyst.org
- 7.3. htt: // www.undp.org
- 7.4. htt: // www.unep.org
- 7.5. htt: // www.unesef.org
- 7.6. htt: // www.ziyonet.uz
- 7.7. htt: // www.gov.uz
- 7.8. htt: // www.agi.uz
- 7.9. htt: // www.edu.uz
- 7.10. htt: // www.unikom.uz

ILOVALAR

